

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
QASHQADARYO VILOYAT PEDAGOG XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

To'ra NAFASOV
Vazira NAFASOVA

O'ZBEK TILI TOPONIMLARINING O'QUV IZOHLI LUG'ATI

(maktab o'quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun)

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2007

Lug'at o'rtta maktab o'quvchilari, kollej va litsey talabalariga mo'ljallab tuzildi. Toponimlar joylarning lisoniy ifodasi, xalq tarixining so'zdagi bayoni bo'lganligi, tarix, geografiya kabi qator fanlarning asosiy tushunchalari hisoblanganligi bois ona tili va adabiyot, tarix, geografiya, ekologiya fanlari o'quvchilari va shu ixtisoslik yo'nalishlarida ta'lun olayotgan talabalar uchun lug'atdagi til tarixi, tillar va xalqlar munosabatlarini o'rganish birlamchi dalil hisoblanadi, shu sababli lug'atdagi dalillar va izohlar ular uchun ham foydali deb o'ylaymiz.

Taqrizchilar:

B.Mengliyev,
filologiya fanlari doktori, professor

O.Jo'raqulov,
tarix fanlari doktori, professor

A.Mamatov,
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-08-126-0

© T.Nafasov, V.Nafasova, "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati".
"Yangi asr avlodi", 2007-y.

ALIFBO

A B D E F G

H I J K L M

N O P Q R S

T U V X Y Z

O' G' SH CH NG'

TOPONIMLAR – XALQ IJODI, TIL MULKI, TARIX KO‘ZGUSI

Yunoncha “topos”, “onyma” so‘zlaridan tarkib topgan toponim atamasi joy nomi degan ma‘noni anglatadi. Joy nomi deganda aholi yashash joylari (respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloq, ovul, mavze, daha, mahalla, guzar...), suv havzalari (okean, dengiz, daryo, ko‘l, suvombori, jilg‘a, irmoq, hovuz, band, ariq...), yer yuza shakllari (tog‘, cho‘qqi, qoya, balandlik, tepa, jar, g‘or, maydon, yaylov, adir...) nomlari tushuniladi. Ba‘zan geografik nomlar, yersuv otlari ham deb yuritiladi. Toponim – ilmiy atama.

Har qanday toponim – so‘z sifatida o‘ziga xos ma‘no va vazifaga ega. Respublikamizning turli hududlarida **Qo‘rg‘on**, **Qo‘rg‘onak** nomli qishloq va ovullar, mahalla va guzarlar bor. **Kattaqo‘rg‘on**, **Uchqo‘rg‘on**, **Qoraqo‘rg‘on**, **Toshqo‘rg‘on**, **Qo‘rg‘ontosh** kabi qishloqlar soni ham anchagina. Bu nomlar ma‘lum hududdagi aholi maskanlarining maxsus atoqli otlari hisoblanadi. Ularning har biri yaralgan davri, o‘rni, aholisining tarkibi, geografik shart-sharoiti, tabiiy muhiti, ishlab chiqarishi, sug‘orish manbalari kabi qator belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Nomlarning joylashish tartibi – birlamchi ahamiyat kasb etadi va ular tildagi oddiy **qo‘rg‘on**, **uch**, **katta**, **qora**, **tosh** so‘zlaridan tubdan farq qiladi.

Keltirilgan nomlarning barchasi shu hududda tarixning ma‘lum bir davrida (atrofi devor bilan o‘ralgan inshoot, hovli-joy) qo‘rg‘onning nomi bo‘lgan, so‘ngra shu istehkom atrofidagi qishloq, ovul, mahalla, tuman nomiga aylangan. Qo‘rg‘onlarni bir-biridan farqlash uchun **katta**, **uch**, **tosh**, **qora** kabi so‘zlar qo‘shilib, yangi nomlar hosil qilingan. Har bir qo‘rg‘on va aholi turar joyining yaratuvchisi va nomlovchisi – xalq. Qo‘rg‘on va aholi maskani qachon yaratilgan, nima uchun, kim tomonidan, qayerda, qanday zaruriyat tufayli vujudga kelganligi kabi masalalar tarix fanining jumladan, o‘lkashunoslarning asosiy vazifasidir.

Mo'g'ul hukmdori o'z saltanati (1318-1326) uchun shoh qasri qurdirgan. Shohona ko'shki "qarshi" so'zi bilan atash XIV asr mo'g'ul tilida, XI asr turkiy tilda lisoniy odat bo'lgan. Ana shu qasr nomi shahar nomiga aylangan. Sanskrit tilida ulkan ibodatxonani "buhar" (bihar) deyishgan. Bu so'z qadimgi eroniy tilda ham mavjud bo'lgan. Buxoro viloyatining hozirgi nomi ana shu so'zning zamonaviy shaklidir. Andijon — suv bo'yi, daryo yoqasi degani. **Namangan, Zarafshon, Badaxshon, Ardaxshon, Sherjon** nomlarining so'nggi qismi – gan, -gon, -kom, -kan, -kon, -jon, -shon so'zlari suv, daryo ma'nosidagi so'zlardir. Bu so'zlar qadimgi turkiy "o'kuz" so'zi bilan ma'nodosh. Amudaryoni qadimda turkiy xalqlar "O'kuz" deb atashgan. "Shohnoma"da Amudaryo Ob nomi bilan tilga olingan. Rud, daryo, ob, suv so'zlari ham bir xil ma'noda qo'llanilgan.

Aholi yashash joy nomlari nomida **balx, balq, baliq; -duvon, -tuvon; -mitan, metan; qo'rg'on, qal'a, chaqar, rabot, saroy; -chem, -tim, -chim; -kat, -kent, -qand** kabi so'zlar ko'p uchraydi. Bu so'zlar shu shaklda qishloq, ovul, shahar nomiga aylangan: **Balx, Metan, Qo'rg'on, Chaqar, Qal'a, Rabot, Saroy, Chem, Kat**. Keyinchalik shu joyning belgilarini bildiruvchi turli so'zlar qo'shib yangi nomlar hosil qilingan: **Qorabaliq, Oqkaliq, G'ijduvon, Parmetan, Shamaton, Namaton, Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Qo'rg'oncha, Toshqal'a, Oqrabot, Oqsaroy, Chimqo'rg'on, Navkat, Novqat, Toshkent**. Shahar nomlari tilda dastlab qishloq nomi sifatida yuzaga kelgan. Qishloq nomlari esa, dastlab qo'rg'on nomi tarzida vujudga kelgan. Bu nomlar – xalqimizning shaharsozlik madaniyatini qabul qilishi natijasi va tildagi ifodasidir.

Shahar, tuman, qishloq nomlarining ma'lum bir guruhi daryo, suv, jilg'a, ariq, quduq, ko'l, kanal, hovuz nomlari zaminida yuzaga kelgan, ya'ni nom ko'chgan. Toponimikaning muhim xususiyatlari va qonunlaridan yana biri nom ko'chish – transonimizatsiya hodisasidir. Masalan, Sirdaryo – daryo nomi. Bu so'z tuman, viloyat, mahalla, ko'cha nomiga o'tgan. Boshqa narsa, tushunchalarning nomiga ham aylanishi mumkin (masalan, firma, gazeta, jurnal, maktab va hokazo). **Qorasuv, Oqdaryo, Yangiariq, Toshariq, Polvonyop, Toshsaqo, Varganza, Siyob, Panjob, Hazorasp, Otaliqarna** nomlari ham dastlab suv havzalarining nomi sifatida paydo bo'lgan. So'ng ular suv havzalari bo'yidagi qishloq, ovul, mahalla, shahar nomlariga aylangan. Yangidan bunyod etilgan aholi turar joylari tayyor shunday nomlar bilan atalgan.

Oqtog', Bobotog', Qoratog', Qorachatog', Oyqor, Chimqor, Olatog', Zarmas, Sarimas, Boysun, Nurota, Ko'hitang (Ko'ytan), G'o'bdin, Shertog', Bo'kantog' O'zbekistonning turli hududlaridagi tog'larning nomlaridir. Bu nomlar tarkibidagi **tog'**, **mas (mast)**, **sun (sin)**, **nura**, **ko'h**, **g'o'b (azalda kaufa)**, **sher/shir/jir** so'zlari o'zaro ma'nodosh. Barchasi **tog'** ma'nosidagi hozirgi va qadimiy so'zlardir. **Tog'**, **nura**, **sun** so'zlari sof o'zbekcha so'zlardir. **Ko'h**, **mas**, **g'o'b**, **sher** so'zlari esa qadimgi so'g'd va hozirgi fors-tojik tillariga mansub. **Tog'** nomlarining birinchi yo ikkinchi qismidagi so'z **tog'**ning hajm belgisini bildiruvchi ma'nolardir. "Ola" so'zining qadimiy shakli – **ulug'**. "Boy" so'zi **tog'** nomlari tarkibida muqaddas, **ulug'**, **katta** ma'nosiga ega. **Tog'**ga sig'inish, **tog'** kulti asosida ulkan **tog'lar** nomlangan. **Tog'larni** qadimda tabiatning buyuk mo'jizasi deb hisoblashgan. **Boldir**, **Bo'ynoq**, **Mo'ynoq**, **Tumshuq** nomlari shu shakidagi geografik termin asosida yuzaga kelgan. Bu uch nom bir xil ma'noga ega.

Xullas, toponimlar xalq ijodi va ma'naviyatining bir yo ikki so'zda yozilgan tarixi, eng qisqa tarixiy manbalardir.

Ushbu **lug'at**, o'z navbatida, xalq tarixining, madaniyatining o'ziga xos o'tmishi haqida qisqacha ma'lumot beruvchi amaliy qo'llanma maqomidagi risoladir. Toponimlarga izoh berishda O'zbekiston toponimikasi bo'yicha yaratilgan barcha manbalardan foydalanildi. Izohlar oddiy bayon etildi va tavsifiy, etimologik tarzda tuzildi.

Lug'atdagi kamchilik va nuqsonlar haqida fikr-mulohazalaringizni samimiy tarzda qabul qilib, ularga tashakkur bildirishni burchimiz deb bilamiz.

LUG'ATNING TUZILISHI

1. Toponimlar alifbo tartibida berildi.

2. Izohlash mumkin bo'lgan toponimlar tanlanib, lug'atga kiritildi, sharhlash imkoni bo'lmagan nomlar kiritilmadi. Asosan respublikamizning viloyat, shahar, tuman, qishloq, ovul, mavze, maballa; daryo, irmoq, ko'l, suvombori, ariq; tog', cho'qqi, qoya, balandlik, maydon nomlari izohlandi.

3. Bir toponim bir necha viloyat, tuman, shahar, qishloq hududida takrorlanganligi sababli ayrim toponimlarning tumani ko'rsatilmadi, etnonimdan yuzaga kelgan toponimlarning tarqalish hududini to'liq qayd qilish imkoni bo'lmaganligi bois ayrim tumanlar nomi ko'rsatildi. Barcha toponimlarning viloyati emas, tuman nomi keltirildi.

4. Lug'at maqolalari izohli va izohsiz (havola) tarzda tuzildi.

5. Izohli maqolalar quyidagi tarzda tuzildi:

a) toponim asosidagi so'z va qo'shimchalar aniqlanib, ularning qadimiy shaklini tiklashga harakat qilindi:

DENOV qishloq, tuman. Deh i nav yangi qishloq.

b) toponim asosidagi so'z, qo'shimcha va boshqa shakllarning qaysi tilga mansubligi ko'rsatildi:

NOVQAT qishloq. So'g'dcha nav kat. Yangi qo'rg'on.

KITOB tuman. So'g'dcha kat i ob daryo bo'yidagi qo'rg'on.

d) toponimga asos bo'lgan so'z va qo'shimchaning ma'nosi qavs ichida berildi:

XURSAND Sariosiyo t.qishloq. Xurd (kichik) sang [f-t] (tosh, tog') birikmasining o'zgargani, tog' bag'ridagi qishloq, kichik tog'.

e) toponim yuzaga kelishiga asos bo'lgan so'z va qo'shimchaning qaysi tilga mansubligi ba'zan to'liq (turkiy, mo'g'ul, tojikcha, so'g'dcha, qadimgi eroniy tilda), ba'zan qisqartma tarzida berildi: a – arabcha, f-t – fors-tojikcha, r - ruscha.

f) toponimning ma'noviy izohida geografik ob'ektning nima uchun shu nom bilan atalganligini bayon etishga harakat qilindi. Shu maqsadda suv havzalari, yer yuza shakllari va aholi maskanlari nomining har biriga mos izohlar berildi:

QASHQADARYO daryo, viloyat. Tog' daryosi, tog'dan bosblanuvchi daryo.

CHOVDI qishloq. So'g'dcha *shov* (qora, past), *tig'* (tog', cho'qqi) qora tog', past tog', cho'qqisi baland bo'lmagan tog'.

CHAQAR qishloq, mahalla. Tosh qo'rg'on, poydevori va devori (ba'zan) tosh (yo g'isht)dan qilingan qo'rg'on.

QORASUV buloq, qishloq. Yer osti, sizot suvlardan hosil bo'lgan buloq va shu buloq yonidagi qishloq.

UCHTEPA qishloq. Yonma-yon masofada joylashgan uchta tepa atrofidagi qishloq.

RAVOTAK qishloq. Rabot -ak [a+f-t] rabotcha, kichik rabot yonidagi qishloq.

g) xalq, qabila, urug' va ularning bo'limlari, tarmoqlari nomidan yaralgan toponimlarga – asosan aholi maskanlari nomiga turli xil izoh berildi:

SIRDARYO daryo, viloyat. Qadimiy sir turkiy xalq yashagan hududdan oqadigan suv havzasi, sirlarning daryosi. Daryo nomi viloyat nomiga o'tgan.

UYCHI tuman. Qadimgi turkiy *ud/uy* (qo'tos, ho'kiz, qoramol) -chi qabilasi jamoasining qishlog'i. Qoramolni totem deb bilgan, tug'ida tasviri tushirilgan qabila – uychi.

SARIQ Muborak, Mirishkor, Muzrabot t. qishloq. Umumturkiy *sariq* qabila, urug' vakillarining qishlog'i. Tatar tilida *sariq* - qo'y. totem.

BAXMAL Sho'rchi, G'uzor t. qishloq, Jizzax v. tuman. O'zbek urug'laridan biri *baqman/boqmon*larning qishlog'i. Qovchilarning *baxmal* urug'i bor

b) hozirgi shakli o'zgarib ketgan, xalq nutqida boshqacha izohlanadigan toponimlarning qadimiy shakli topilib, o'sha davrdagi ma'nosi asosida izoh berildi.

SAYROB Boysun t. qishloq. Ikki suv o'zani orasidagi toshloq (*sayram*) joyda bunyod bo'lgan qishloq. q. *Sayram*.

QIRQQIZ To'rko'l t. ovul. Termiz sh. xaroba, tog'li t. tog'. Qo'rg'on burjlari, saroy vayronasidan paydo bo'lgan kichik minorasimon ko'p balandlikdan iborat xaroba yonidagi ovul; qoyasimon balandliklari ko'p bo'lgan kichik tog'.

i) qadimiy nomlarga ba'zan ikki xil izoh tavsiya qilindi, nom asosidagi so'z (va qo'shimcha)ning avvalgi va hozirgi ma'nolari inobatga olindi.

MOYARIQ ko'p t. ariq. Qadimgi turkiy *umay* (yaratuvchilik, hosildorlik tangrisi) so'zining soddalashgan shakli – *moy*: *moy ariq* katta ariq, ulkan anhor; suv tarkibida neftsimon yog' belgilari bo'lgan ariq.

j) qabila, urug' nomlaridan yuzaga kelgan toponimlar respublikaning ko'pgina viloyat va tumanlarida, hatto bir tuman

hududida bir necha marta takrorlanishi inobatga olinib, ular tarqalgan hududdagi tuman nomlari ko'rsatilmadi:

MANG'IT qishloq. Turkiy, mo'g'ul *mangit/mang'it/mingat* qabilasining qishlog'i.

k) kam uchraydigan urug' nomlaridan yuzaga kelgan qishloqlarning tumani ko'rsatildi. Urug' qaysi qabila tarkibida bo'lganligi ta'kidlanib, etnonimning ma'nosi va so'z tarkibi ko'rsatildi, urug' ning shu nom bilan atalish sababi (ba'zan) izohlandi.

AVJIN Dehqonobod t. qishloq. Qo'ng'irotlarning *avjin* urug'i jamoasiga mansub qishloq. *Avjin* < *av/ev/uy* (sigir, qoramol), *jin/chin* (odam, kishi) – qoramolga topinuvchilar, (totem).

l) ayrim toponimlarga ikki xil izoh berildi, chunki toponim asosidagi so'z tilda ham etnonim hisoblanadi, ham tilning biron sohasiga oid kasb-hunar so'zi sanaladi:

BOVURCHI Qarshi t. qishloq. Xonning oziq-ovqati, ovqatlanishi, yeyish-ichishini nazorat qiladigan shaxs, dasturxonchi – *bovurchi*. Ish faoliyati va laqabidan qishloq nomi yaralgan. *Bovurchi* – urug' nomi, qipchoqlarning urug'i.

6. Shevaga xos so'zlardan yuzaga kelgan toponimlarga so'zning shu hududdagi ma'nosi asosida izoh tavsifiya qilindi:

GAZA Boysun t. qishloq. Tog' etaklari va notekis adirlarda qirsimon cho'ziq balandliklarning oshib o'tadigan yo'li bo'lgan qismi – *gaza*: ana shunday joydagi qishloq.

BO'ZATOV Chimboy t. ovul. *Bo'z atov* (daryo o'rtasidagi orolcha) tuprog'i oqish rangli orol yonidagi ovul.

BOBIRTEPA Qamashi t. balandlik. Xalq nutqida *bag'ir/bovir* usti yassi balandlik mavjud bo'lgan tepa.

7. O'zga tillarga mansub so'z va qo'shimchalar izoh jarayonida transliteratsiya (o'zbekcha harfiy ifoda shakli)da berildi.

8. Izoh uchun asos bo'lgan so'z va qo'shimchalar kichik, qalin harflar bilan yozildi.

9. Toponimlarga berilgan izohlar qisqa, tavsifiy yo'nalishda bo'ldi.

10. Turli darajadagi tovush va shakliy o'zgarishga uchragan toponimlarga havola maqola tuzildi, q (qarang) belgisi qo'yildi va izohi berilgan toponim yozildi.

YARTEPA q. *Jartepa*.

YORQO'RG'ON q. *Jarqo'rg'on*.

ADAY Tomdi t. qishloq. Qozoq xalqi tarkibidagi aday urug'ining qishlog'i.

AFROSIYOB Samarqand sh. arxeologik qo'riqxonasi. So'g'dcha par siyoh ob qora suv tepaligi, Qorasuv (Siyob) usti.

AKBAROBOD Quva t. qishloq. Qo'qon xoni Xudoyorxonning nevarasi Akbarning qishlog'i yoki Akbar homiyligida tashkil bo'lgan qishloq.

ALAKO'YLAK Yakkabog' t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan olaqo'yliq urug'i nomining o'zgargani – alako'yлак → Alako'yлак.

ALAMLI G'allaorol t. qishloq. Aziz-avliyolar mozori yoki shahid o'lgan kishining qabri belgisi sifatida daraxt shoxiga yoki cho'pga ilingan latta [a] (alam)li joy, ya'ni qabriston yaqinidagi qishloq.

ALAQARG'A Yakkabog' t. qishloq. O'zbek xalqiga mansub qarg'a urug'ining alaqarg'a/ulug'qarg'a tarmog'i jamoasining qishlog'i.

ALAQO'YLIQ Kitob t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi kenagaslarning olaqo'yliq urug'i jamoasining qishlog'i.

ALATO'N Chiroqchi t. qishloq. Sariqipchoqlarning elaton urug'i. "Elaton" so'zining o'zgargani – Alato'n. Elaton urug'ining qishlog'i.

ALACHABOF mahalla. qishloq. Olacha (paxta yoki jun tolasidan qo'lda to'qilgan yo'l-yo'l mato) to'quvchilar mahallasi, qishlog'i. Bof [f-t] – to'quvchi.

ALLOT Xatirchi t. qishloq. q. Arlot.

ANDIJON shahar, viloyat. Qadimgi eroniy andi (yaqin), -jon, -gon, -kon (suv, suvoqar soy) suv bo'yi, daryo yoqasi.

ANGOR Surxondaryo v. tuman. Angar – hosili yig'ishtirib olingan ekinzor. Arabcha anhor – katta ariq, qazilgan chuqur yo'lakdan oquvchi ariq. Anhor so'zining o'zgargani – Angor.

ANNABOZOR Koson t. qishloq. Odina [f-t] so'zining o'zgargani – anna (haftaning beshinchi kuni), bozor — juma kuni bozor bo'ladigan joy.

AQAY Konimex, Uchquduq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi aqay urug'i jamoasi bunyod qilgan qishloq.

ARABSAROY Karmana t. qishloq. Arablarning saroyi (qo'rg'oni).

ARABXONA Navbahor t. qishloq. O'zbeklashgan, ajdodlari arab bo'lgan toifadagi aholi yashaydigan qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi arab urug'i jamoasining qishlog'i.

ARALOVUL Qarshi t. qishloq. Daryo qirg'og'idagi balandlik atrofida o'rnashgan qishloq.

ARASHON Ohangaron t. ko'l. Sanskritcha *rashaini* so'zining o'zgartirishi – *arashan*: obihayot, ya'ni mineral suvli havza.

ARG'INCHI Yuqori Chirchiq t. qishloq. Turkiy *arg'un* qabilasi vakillarining yoki *Arg'un* qishlog'idan ko'chib kelgan aholi istiqomat qiladigan qishloq.

ARG'UNCHI Denov, Kasbi t. qishloq. O'zbek xalqining *arg'un* qabilasi jamoasiga mansub qishloq.

ARIQBO'YI Oxunboboyev t. qishloq. Ariq, anhor yoqasidagi qishloq.

ARLOT Ishtixon, Nurota t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qadimiy *arlot* qabilasining qishlog'i.

ARNASOY Sirdaryo v. ko'l, tuman. Katta ariq bo'lib suv oqadigan soylik. Xorazmiy, so'g'd tilida *arna* – suv, suv oqimi; suv oquvchi joy, suv o'yib ketgan joy.

ARPAPOYA mahalla, dala. Arpa o'simligi ekilgan maydon.

ARRATOSH Kattaqo'rg'on t. qishloq. *Arta* [f-t] tishlari singari o'simta tizma qoyalari ko'p bo'lgan tog'.

ARUS Buxoro t. qishloq. *Xaros/xarus* [f-t] eshak kuchi bilan aylanadigan tegirmon. Tegirmonli qishloq.

ARZIQTEPA Dang'ara t. qishloq. Ganchga o'xshash oq tuproqli tepa yonidagi qishloq.

ASAKA Andijon v. shahar. Saklarning shahri. *Assakana* nomining o'zgartirishi – *Asaka*.

AVJIN Dehqonobod t. qishloq. Qo'ng'irotlarning *avjin* urug'i jamoasiga mansub qishloq. *Avjin* <*av/ev/uy* (sigir, qoramol), *-jin*, */-chin* (odam, kishi) – qoramolga topinuvchilar, totem.

AVOQLI qishloq. Qora uy – o'tov uvug'iga o'xshash tamg'ali urug' jamoasi (*avoqli*) yashagan ovul.

AVG'ONBOG' G'uzor t. qishloq. Afg'onistondan ko'chib kelib o'rnashib qolganlarning *bog'i* atrofidagi qishloq.

AYDARKO'L Jizzax v ko'l. Katta ko'l, hajmi ulkan ko'l.

AYMOQ Chiroqchi t. qishloq. Mo'g'ul istilosidan so'ng yuzaga kelgan *aymoq* urug'ining qishlog'i.

AYOQCHI Kitob t. qishloq. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tilida *ayaq* – kosa, yog'och tovoq. Yog'ochni yo'nib kosa, tovoq kabi ro'zg'or buyumlarini yasovchi ustalar yashagan va ishlagan joydagi qishloq.

AYOQOSHUV Navoiy v. balandlik. Quyi tomondagi balandlik. *Ayoq/oyoq* – quyi.

AYRIBEL Samarqand v. dovon. O'rtasida chuqur, o'tadigan yo'l bo'lgan balandlik.

AYRITOSH Zomin t. cho'qqi. O'rtasida ayrisimon o'yiqlik, kemtik bo'lgan qo'sh cho'qqili tog'.

AYRONCHI qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan ayronchi urug'-qabilasiga mansub kishilar yashagan qishloq.

ASHURJILON Sariosiyo t. qishloq. Qo'ng'irotlarning vixtamg'ali bo'limidagi urug' – ilontamg'ali. Shu urug'ga mansub Ashur [a] ismli kishi bunyod qilgan qishloq.

ACHAMAYLI qishloq. O'zbek xalqining kenagas qabilasiga mansub achamayli urug'i jamoasining qishlog'i. Achamay (boy qushining bir turi) qushini totem deb qabul qilgan urug' jamoasi – achamayli.

B

BADALSOY Bo'stonliq t. jilg'a. Turkiy tillarda badal – chakalakzor, butazor.

BADAXSHON Qamashi t. qishloq. Eroniy tillarga oid bar (yuqori), -dak (oqar suv, jilg'a), -shon, /-jon (irmoq, jilg'a; daryo, suv) yuqoridan oqib keluvchi daryo (bo'yidagi qishloq).

BADAYOVUL Ishtixon t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan baday urug'ining ovuli.

BAHRIN Ishtixon, Navoiy, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Xatirchi t. qishloq. Turkiy, mo'g'ul xalqi tarkibidagi bahrin urug'i jamoasi qishlog'i. Bahrin – lochin turi, totem.

BAHRINCHA Vobkent t. qishloq. Kichik Bahrin q. qishlog'i.

BAHRONBAYOT Olot t. qishloq. Azaliy shakli Bahrinbayot. Bahrin va bayot urug'larining qishlog'i.

BAJANAK Gurlan t. qishloq. Qadimgi turkiy pecheneg qabila nomining o'zgargani – Bajanak, pecheneglarining qishlog'i.

BALANDCHAYLA Qamashi t. qishloq. Tepalik ustida yoki baland joyda shox-shabba, qamish va boshqa xashaklardan qilingan vaqtinchalik kapa yonidagi qishloq.

BALIQCCHI Andijon v. tuman, Koson t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda baliq/balq/balx shahar, qishloq, qo'rg'on. Baliqchi – shahar qo'riqchisi, qal'a himoyachisi, shaharlik. Shu kasb bilan shug'ullangan kishilar jamoasi – baliqchi (etnonim). Baliqchi qabilasiga mansub kishilarning qishlog'i.

BALQANQAYCHILI Kitob t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda balqan – tog', tog' tomon. Qaychili – kenagas, qo'ng'iroq va boshqa qabilalarning urug'i: tog' tomondagi qaychili urug'ining qishlog'i.

BALX Jizzax v. qishloq. Qadimgi turkiy tilda balq/balx – devor bilan qurshalgan turar joy; qo'rg'on.

BALXI Navoiy v., Qarshi, Shahrisabz t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda *balq/balg'/balx* – qo'rg'on, qal'a. *Balx* -l [f-t] balxlik, Balxdan kelganlar, shahardan kelganlar.

BALXIYON Pastdarg'om t. qishloq. *Balx* i -yon [f-t] Balx shahridan kelganlar.

BAND Karmana, Xatirchi t. qishloq. Yirik ariqdagi suvni kichik ariqlarga bo'lib berishga mo'ljallab qilingan to'siq – *band* [f-t] yonidagi qishloq.

BANDIXON Boysun, Denov t. qishloq. *Band* i xon [f-t] xon bandi, hukumat tomonidan qilingan suv to'g'oni atrofida tashkil bo'lgan qishloq.

BAQIRCHI Qarshi, Qamashi, Nishon t. q. *Baqirchi* misga ishlov beruvchi, undan buyum yasovchi, boshqa metallar bilan qorishtiruvchi hunarmandlar qishlog'i.

BARLOS Bulung'ur, Ishtixon, Sariosiyo t. qishloq. Qadimgi turkiy, mo'g'ul xalqlarining *barlos* qabilasi jamoasi bunyod qilgan qishloq. *Barslos* - yo'lbars, yo'lbarsni totem qilib olgan jamoa.

BATOSH qishloq. O'zbek halqining *batosh* qabila-urug'i vakillari bunyod qilgan qishloq.

BAXISHTOL Furqat t. qishloq. *Bag'ishlarning* yerida o'sgan tol daraxtlari yonidagi qishloq.

BAXMAL qishloq, tuman. O'zbek qabila-urug'laridan biri *baxmal/baxman/baqmanlar* yashovchi aholi turar joyi.

BAXMALKO'L Chimboy t. ovul. O'zbek, qoraqalpoq xalqining *baqman* urug'i jamoasiga mansub ovul.

BAXSHIJAR Xatirchi t. qishloq. *Bag'ishlarning* yeridagi jar yonida bunyod bo'lgan qishloq.

BAYDOQCHI Muborak, Kasbi t. qishloq. *Baydoq*-bayroq, tug'. *Baydoqchi* – uch qismidagi qo'ndoqqa ipak popuk taqilgan bayroq (tug'lar)ni ko'tarib yuruvchi harbiy kishi. Laqab asosida qishloq nomlangan.

BAYMOQLI qishloq. Qo'ng'irotlar voxtang'ali bo'limiga qarashli urug' – *baymoqli*. Shu urug' jamoasi yashagan qishloq. Urug' tang'asining uch qismi egik, qayrilma bo'lgan – *baymoqli*.

BAYOT Qorako'l t. qishloq. Qadimgi turkiy *bayot/boyot* qabilasi vakillarining qishlog'i. *Boy/moy* – boyqushsimon qush, shu qushni totem qilib olganlar – *boyot*.

BAYTALCHI Marg'ilon sh. mahalla. O'rish arqog'i juftlab eshilgan ipdan gazlama to'quvchi (*bayturchi*)lar qishlog'i.

BAG'ANALI Forish, G'allaorol, Narpay, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om t. qishloq. O'zbek xalqining *bag'anali* (*bag'ana* – qorako'l terining turi) urug'i tashkil qilgan qishloq.

BAG'ISH Farg'ona v. qishloq. O'zbek xalqining bag'ish qabilasi vakillarining qishlog'i. Qadimgi turkiy tilda bag'ish – bug'u, totem.

BAG'ISHLAR Shofirkon t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi bag'ish urug'i jamoasining qishlog'i. Qadimgi turkiy tilda bag'ish – bug'u (totem).

BACHQIR Uchko'prik t. qishloq. O'zbek qipchoqlarining bachqir/bochqir/bochqird/boshqir/boshqird urug'i jamoasining qishlog'i.

BEDAK qishloq. Bed [f-t] (tol) daraxti o'sgan joydagi qishloq.

BEGISH Yakkabog' t. qishloq. Qatag'onlarning begish/beglar urug'i jamoasi qishlog'i.

BEGJOP Kegeyli t. ovul. Bek laqabli kishi qazdirgan kanal (katta ariq) bo'yidagi ovul.

BEGLAMISH Chiroqchi t. qishloq. Mang'itlar tarkibidagi beglar/beglamish urug'i jamoasi qishlog'i.

BEKLAR Koson, G'uzor, Qarshi t. qishloq. Beglar, beкто'p, beкто'pi, beкто'por, beкто'ba, begavlod bir qancha (mang'it, qo'ng'iroq, mirishkor) urug'-qabilalarining tarmog'i.

BEKOBOD Urganch, Yangiqo'rg'on t. qishloq. Toshkent v. tuman. Beklar qishlog'i (qo'rg'oni). Bekavlod urug' nomining o'zgargan shakli – Bekobod.

BEKTEMIR Kitob t. qishloq. Mang'itlarning urug'i – bekteмир.

BELTOV Navoiy v. tog'. Yonidagi boshqa tog'larga nisbatan ko'ndalang cho'zilgan tog'.

BESHARIQ qishloq. Katta anhor yo ariqning beshta (ba'zan beshdan ozyoki ko'p) kichik ariqqa bo'lingan joyi atrofidagi qishloq.

BESHBOLA Farg'ona, Sherobod t. qishloq. Qo'ng'irotlarning oyinni bo'limiga oid beshbola urug'i bunyod qilgan qishloq (azalda beshbo'luk).

BESHBULOQ tog'li t. qishloq. Besh va undan ko'p buloqli joy (u yerda joylashgan qishloq).

BESHDARAK qishloq. Darak – anhordagi suvni bir necha ariqlarga bo'ladigan to'g'on, band. Ana shunday band yonidagi qishloq.

BESHGUMBAZ qishloq, mahalla. Besh va undan ortiq qubbali gumbazi bo'lgan machit yonidagi qishloq.

BESHKALTAK Kitob t. qishloq. Qo'ng'iroq, kenagas, qatag'on, qipchoqlarning urug'i – beshkaltak. Urug' nomi qishloq nomiga o'tgan.

BESHKAPA Rishton t. qishloq. Beshta chaylasimon vaqtinchalik turarjoyli yoki shu taxlit maskan o'rnida (yonida) bunyod bo'lgan qishloq.

BESHKENT Qarshi t. markazi. Qadimgi eroniy tilda *tij/bij/vij/pesh/pish/besh* (quyi, adiq, etak), *kent* (qo'rg'on, qishloq, shahar) – quyi qishloq, adiq shahar.

BESHKUBI Zomin t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi xitoyyuzi urug'ining *beshkubi* tarmog'i ajdodlari qishlog'i.

BESHNOV Surxondaryo v. tog'. Beshta suvtushar nov (sharshara) mavjud bo'lgan tog'.

BESHOLISH Qo'qon t. soylik. *Olish* – band, to'g'on. Suv beshta ariqqa bo'linadigan band (to'g'on).

BESHQIZ Surxondaryo v. tog', Kitob t. tepa. Minorasimon baland cho'qqilari beshta bo'lgan joydagi tog'. Bir-biriga yaqin masofada beshta tepasi bo'lgan joy.

BESHQOZOQ Kitob t. qishloq. Beshta ariqqa bo'lingan band atrofidagi qishloq. Qadimgi turkiy tilda *qazaq/qazuq/qazug'/qazag'* – qazilgan ariq.

BESHQO'TON Bulung'ur, Muzrabot t. qishloq. Qo'y yoki mol qamaladigan qo'ra yoki molxonalar soni beshta (yo undan oz, yoki ko'p) bo'lgan joydagi qishloq.

BESHTAXTA Boysun t. qishloq. *Taxt/taxta* [f-t] tekis joy tog' yo balandlik ustida kichik hajmli maydon. Ana shunday bir necha maydonchalar bo'lgan adir – Beshtaxta.

BESHTERAK Kitob t. qishloq. Suv yo'li – anhorning besh shoxobchaga ayriladigan joyi, band bo'yidagi qishloq. *Terak* – darak so'zining o'zgargani. q. Beshdarak.

BESHYOG'OCH mahalla. Qadimgi turkiy tilda *yug'och/yog'och* – suv taqsimlanadigan ayirg'ich, band. Anhor suvi beshta kichik ariqqa bo'linadigan joy yonidagi mahalla.

BESHO'G'IL Jomboy t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi *besho'g'il* (urug' bo'limi) urug'ining qishlog'i.

BESHCHASHMA Qumqo'rg'on t. qishloq. Besh yo undan oz-ko'p chashma [f-t] mavjud bo'lgan joy (qishloq).

BICHOQCHI Vobkent t. qishloq. *Bichoq/pichoq* yasovchi ustalarning qishlog'i.

BOBIRTEPA Qamashi t. balandlik. Xalq nutqida *bag'ir/bovir* – usti yassi balandlik mavjud bo'lgan tepa.

BOBOQUM Navoiy v. cho'l. Odamlar sig'inadigan qumtepalari bo'lgan cho'l.

BOBOTOG' Surxondaryo v. tog', qishloq. Xalq nutqida bobo katta, ulkan, ulug', buyuk, muqaddas. *Tog'* kulti asosida nomlangan: *ulug' tog'*, *katta tog'*, *muqaddas tog'*; eng baland cho'qqili *tog'*.

BODIHAVO Denov t. qishloq. Eroniy *pot/pat/bod/bot+qof<kaufa+ho* birikmasining o'zgargani: *tog' ichi*, *tog' yuqorisi* (shu erda joylashgan qishloq).

BODOQSOY Bo'stonliq t. soy. O'zani keng yoyilgan jilg'a. O'zbek tilida *bodoq/badoq/baydoq/baytoq* – keng, yoyilgan.

BOLDIR Pastdarg'om, Muzrabot t. qishloq. Burunga o'xshash turib chiqqan balandlik atrofidagi qishloq. Qadimgi turkiy tilda *boldir* – do'nglik.

BOLORUD Shofirkon t. qishloq. Yuqori tomondagi ariq. *Bolorud* [f-t] yuqori ariq.

BOLOTOSH Nurobod t. qishloq. Baland [f-t] tosh birikmasining o'zgargani – katta hajmdagi baland tosh.

BOLTA Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Payariq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi *bolta* – *boltali* (tamg'asi *bolta* shaklida bo'lgan) urug'ining qishlog'i.

BOLG'ALI qishloq. Turkiy qabilalar tarkibidagi, tamg'asi *bolg'a* shaklida bo'lgan urug' vakillarining qishlog'i.

BORSAKELMAS Orol dengizidagi orol. Qaytish yo'lagi bo'lmagan, suv yuvib (o'yib) ketadigan yo'lakli joy.

BOVURCHI Qarshi t. qishloq. Xonning oziq-ovqati, ovqatlanishi, yeyish-ichishini nazorat qiladigan shaxs, dasturxonchi – *bovurchi*. Ish faoliyati va laqabidan qishloq nomi yaralgan. *Bovurchi* – urug' nomi, qipchoqlarning urug'i.

BOYBOG'ISH Jomboy t. qishloq. Bag'ishlarning boybag'ish urug'i jamoasi tashkil qilgan qishloq.

BOYISTON Quva t. qishloq. q. Bog'iston.

BOYLI Chiroqchi, Qamashi t. qishloq. Turkiy qipchoq urug'laridan biri – *boyli/moyli*.

BOYMOQ Chust t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi *baymoq/boymoq* urug'ining qishlog'i. *Boymoq/baymoq* – sug'ur, totem.

BOYMOQLI G'allaorol, Zomin t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qo'ng'iroq, yuz, saroy qabilalarining *baymoqli* urug'i vakillarining qishlog'i. Sug'urning bir turi *bayboq/boyboq*, urug'ning totemi va tug'idagi tasvir.

BOYOVUT Sirdaryo v. tuman. Qadimgi turkiy, mo'g'ul xalqlaridagi *boyovut* qabilasi jamoasining qishlog'i.

BOYQO'RG'ON qishloq. Turkiy boy (katta, ulkan) qo'rg'on katta qal'a, yirikligi va boshqa belgilari bilan boshqa aholi maskanlaridan ajralib turgan qo'rg'onli qishloq.

BOYQOZOQ Kasbi t. qishloq. *Boy/moylumay+qazag'* – katta ariq, ulkan anhor.

BOYSUN tog', tuman. Qadimgi turkiy boy/bay/poy, pay; moy/may/umay (ulug', buyuk; muqaddas, katta) *sin/sin/shin, shn/chin/chin* (tog') ulkan tog', katta tog'. Tog' nomi tuman nomiga o'tgan.

BOYTERAK Koson t. qishloq. Xalq nutqida *boy-* badavlat; katta, ulkan; yoshi ulug'; davlati ko'p. Turkiy tillarda *terak/terek/*

darak ariq suvi bir necha tarmoqlarga bo'linadigan joy, band. Katta band yonidagi qishloq.

BOYG'UNDI Koson t. qishloq. Mang'itlarning boyg'undi urug'i jamoasining qishlog'i.

BOZORTEPA Dehqonobod t. qishloq. Bozor bo'lgan joy, savdosotiq qilinadigan tepa yonidagi qishloq.

BOG'DON Forish t. qishloq. Temir kabi metallar qoldig'i bo'lgan joydagi qishloq. Ishlov berilgan temir qoldig'i - bog'/boq/bo'q. O'rin ma'nosidagi qo'shimcha -don (f-t).

BOG'IBALAND Samarqand t. qishloq. Bog' i baland [f-t] yonidagiga nisbatan balandroq joydagi bog'.

BOG'IBOLO Boysun t. qishloq. Bog' i bolo [f-t] yuqoridagi bog'.

BOG'IKALON Buxoro t. qishloq. Bog' i kalon [f-t] katta bog'.

BOG'ISTON Qarshi, Yuqori Chirchiq t. qishloq. Bog' -iston [f-t] bog'-rog'ga aylangan joy, bog'-bo'ston.

BOG'ITURKON Romitan t. qishloq. Bog' i turk -on [f-t] turklarning bog'i yonidagi qishloq.

BOG'IZOG'ON Samarqand t. qishloq. Bog' i zax -in [f-t] qaynab yo sizib chiqadigan suv manbai (buloq, ariq) bo'lgan bog', ana shunday bog' atrofidagi qishloq.

BOG'ISHAMOL Bag'dod t. qishloq, Samarqand sh. mavze. Bog' i shamol [f-t] shamol esib turadigan joydagi qishloq.

BOG'ICHORBOG' Qiziriq t. qishloq. Bog' i chorbog'/Chorbog' [f-t] chorbog'li ya'ni o'rtasida yozlik qo'rg'oni bo'lgan katta bog'.

BOG'OLON Gurlan t. qishloq. Eroniy tillarda bog' i olon [f-t] qadimgi eroniy alan xalqining bog'i. Bag'alan/bog'olon - ming qabilasining urug'i.

BOG'OT qishloq, tuman. Bog' -ot [f-t] bog'lar, bog'-rog'li joy, daraxtlar ko'p o'sgan joydagi qishloq. Yozda ko'chib chiqiladigan bog'zor - bog'ot.

BOG'ZAG'ON Dehqonobod t. qishloq. q. Bog'izog'on.

BOG'CHAKALON Xatirchi t. qishloq. Bog'cha i kalon [f-t] katta bog'cha.

BOSHCHORBOG' Dehqonobod t. qishloq. Bosh (yuqori, ust, baland), chorbog' [f-t] - o'rtasida yozlik uy-bino bo'lgan va tevaragi devor bilan o'ralgan bog'; yuqori tomonda ichida turarjoy binosi bo'lgan qo'rg'onli bog' yonidagi qishloq.

BULOQBOSHI Andijon v. tuman, Xo'jaobod t. qishloq. Buloqning yuqori tomonida bunyod bo'lgan qishloq.

BULUNG'UR Samarqand v. tuman. Qadimgi turkiy va mo'g'ul tilida bulung'ur - loyqa suv, bo'tana bo'lib oqadigan anhor.

BURAMATUT To'raqo'rg'on t. qishloq. Tut daraxti novdasi buralib o'sgan joydagi qishloq.

BURBALIQ Oltiariq t. qishloq. **Bur/bo'r/bo'z** (o'zlashmagan) **balliq** (qishloq) – uzoq vaqt ekin ekilmagan yerdagi qishloq.

BURGUT G'ijduvon t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi **burqut** qabilasining qishlog'i. **Burqut** – hozir **burgut**, **totem**.

BURCHMULLA Bo'stonliq t. qishloq. **Burj** [a] qal'a devorining burchagi, burchakdagi yo burchaklar oralig'idagi minora, minorasimon qoldiq. **Mo'la** [f-t] minorasimon dumaloq qurilma.

BUXORO v., shahar. Sanskrit tilidagi **vixara/vaqara/bihara** (budda ibodatxonasi) so'zining turkiy, eroniy tillardagi o'zgargan shakli – **buxoro** – katta ibodatxona.

BUZRAVOT Qarshi sh. mahalla. **Buzurg rabot** [f-t] katta rabot.

BO'GAJILI Boysun, Sho'rchi t. qishloq. Qo'ng'iro't qabilasining voxtang'ali bo'limiga qarashli **bo'gajili** (**bo'ka/bo'ga -ji/-chi**→**bo'kachilli /bo'gachilli/ bo'gajili**), ya'ni bo'kani **totem** qilib unga sig'inuvchilar va tug'iga tasvirini tushirib olganlar jamoasi vakillarining qishlog'i.

BO'KA Toshkent v. tuman, qishloq. Qadimgi turkiy **bo'ka** – qabila, urug' jamoasining qishlog'i. Kiyikning bir turi – **bo'ka**. **totem** sanalgan.

BO'KANTOV tog'. Qadimgi turkiy tilda **bo'kan** - to'g'on, to'siq, bukri, past, ya'ni **pasttog'**.

BO'LMAS Koson t. qishloq. q. O'lmas.

BO'RIBATOSH Qarshi t. qishloq. **Batosh** urug'iga mansub **Bo'ri** ismli kishi tashkil qilgan qishloq.

BO'RIJAR Denov t. qishloq. Katta jar. Xalq nutqida **bo'ri/bo'ra/bo'ru** (o' tovushi cho'ziq) ulkan, katta.

BO'RJAR Toshkent sh. anhor. Oqish tuproqli jardan oqadigan suv, ariq.

BO'RONJUZ Chiroqchi t. qishloq. **Juz/yuz/uz** qabilasiga mansub **Bo'ron** ismli kishi bunyod qilgan qishloq.

BO'STON qishloq. **Bo'ston** [f-t] bog'-rog'li joy, daraxt ekib obod qilingan manzil, gulistonga aylangan joy. O'zbek (qirg'izlarning ham) **bo'ston** urug'i vakillarining qishlog'i.

BO'TAQORA Andijon, Izboskan t. qishloq. Turkiy qipchoqsaroylarning kichik urug'i – **bo'taqora** (totemdan urug' nomlangan).

BO'YNOQ qishloq. Tog' tizmalarining tor, siqiq joyi, ikki balandlikni birlashtirgan oraliq – **bo'ynoq** atrofidagi qishloq.

BO'YRABOP mahalla, qishloq. Aynan **Bo'yra**chi.

BO'YRAPO'SH qishloq. **Buryo** [f-t] so'zining o'zbek tilidagi shakli **bo'yra** (qamish, nay, luq, g'arov poyalarini ma'lum uzunlikda

zich qilib terib ko'ndalangiga ip, tasma yoki qamish poyasini o'tkazib bog'lab qilingan to'shama), po'sh (to'quvchi)lar yashaydigan qishlog'i.

BO'YRACHI qishloq. Buryo [f-t] -chi qamish, chiy kabi botqoq o'simliklari poyasidan bordon kabi to'shamchi to'qiydigan hunarmandlar qishlog'i.

BO'Z Andijon v. tuman. Ilgari ekilmagan, yangidan o'zlashtirilgan joy.

BO'ZARIQ qishloq, anhor. Uzoq yillar ishlov berilmagan qo'riq yerni sug'orish uchun o'tkazilgan ariq bo'yidagi qishloq.

BO'ZATOV Chimboy t. ovul. Bo'z atov (daryo o'rtasidagi orolcha) tuprog'i oqish rangli orol yonidagi ovul.

BO'ZSUV Toshkent sh. ariq. Yangi ariq, yangi qazilgan anhor. Oqish, bo'z, oqish ko'k rangli suv.

BO'ZO'LMAS Norin t. qishloq. Bo'z yerdagi O'lmas q. qishlog'i.

D

DAHANA Oltinsoy t. qishloq. Daraning boshlanish joyi, suv oqadigan daralarning tor, siqiq joyi, tog' tizmalarining tagidagi tang o'tarjoy, anhorlarning ariqlarga bo'linadigan joyi – dahana [f-t]. Ana shunday joyda joylashgan qishloq.

DAHANASOY O'zbekiston t. qishloq. Daraning tor, siqiq joyidagi qishloq.

DAHABET Samarqand sh. mahalla, Oqdaryo t. qishloq. Deh l bed [f-t] tol daraxti o'sgan joydagi qishloq.

DALVARZIN Qo'rg'ontepa t. qishloq. Eroniy tal/dal/tall/dall (balandlik, tepalik) var (qo'rg'on) zoy/zay (joy) -n/-in/-un – baland joydagi qo'rg'on.

DAM Chiroqchi, Jarqo'rg'on t. qishloq. Oqim yo'nalishi qiyalik bo'lmagani uchun sekin, to'lib oqadigan ariq bo'yidagi qishloq.

DAMARIQ qishloq. Oqim yo'nalishining egri, notekisligi tufayli suvning dimiqib, sekin oqish holati – dam [f-t] bo'lib oqadigan ariq bo'yidagi qishloq. Aynan Damjo'y.

DAMJO'Y qishloq. Aynan Damariq.

DAMKO'L Farg'ona v. ko'l. Ko'p suvli chuqur ko'l.

DARBAND Boysun t. qishloq. Tog' darasining tor, siqiq joyi – darband [f-t] da joylashgan qishloq.

DARXAN Dehqonobod, Yakkabog' t. qishloq. Turkiy, mo'g'ul tillarida xonning aziz kishisi, soliقدan ozod, imtiyozga ega bo'lgan (temirchi, qurolsoz, hunarmand) kishi, tabaqa (tarxan) yashagan va ular bunyod qilgan qishloq.

DARYOLIQ Amudaryo o'zani. Daryoning uzoq o'tmishda oqqan oqim yo'li o'rnida paydo bo'lgan uzun suv yo'li.

DARYOSOY Qizilqumda o'zan. Daryo oqib chuqur o'zan hosil qilgan uzun yo'lakli joy.

DARG'OM Samarqand v. anhor (kanal). Qadimgi eroniy tilda darg' (to'g'on, damba), ob (suv) – to'g'onli anhor.

DARCHA Koson t. qishloq. Ariq, anhorning bir necha shoxobchalarga bo'linadigan joyi (darakcha)da joylashgan qishloq.

DAVTOSH Chiroqchi t. qishloq. Turkiy dav/tov tosh – katta toshli, tog' ichidagi, tog' bag'ridagi qishloq.

DAVURCHI Kitob t. qishloq. Saroy qabilasining minjir bo'limiga tegishli davur/tovur/tavur -chi urug'i vakillarining qishlog'i.

DAYAK Shahrizabz t. qishloq. Dah yak [f-t] o'ndan bir, vaqf uchun o'ndan bir hissa olinadigan soliq. Vaqf yerlarida bunyod bo'lgan qishloq.

DASHNOVOT Sariosiyo t. qishloq. Dasht (ekin ekilmagan, yaylov) rabot [f-t] dashtda qurilgan rabot.

DASHT Qarshi t. qishloq. Ekilmay yotgan suvsiz yer, keng ochiq maydon – dasht [f-t].

DASHTAK Samarqand t. qishloq. Dasht -ak [f-t] dashtcha, dashtda bunyod bo'lgan qishloq.

DASHTAKIBOLO Samarqand t. qishloq. Dasht -ak i bolo [f-t] yuqori tomondagi dasht.

DASHTIG'OZ Boysun t. qishloq. Dasht i g'oz [f-t] (qamish, g'arov) qamish o'sgan dasht.

DASHTOBOD Jizzax v. shaharcha. Dasht obod [f-t] cho'lda bunyod bo'lgan kent, dashtdagi kent.

DEBODOM Sariosiyo t. qishloq. Deh i bodom [f-t] bodom daraxti o'sgan joydagi qishloq.

DEBOLO qishloq. q. Dehibolo.

DEGOSIYO Karmana t. qishloq. Deh i osiyo [f-t] tegirmon atrofidagi qishloq.

DEGREZ mahalla. Deg rez [f-t] qozon quyuvchi. Degrez qozon, tovoq kabi uy-ro'zg'or buyumlarini quyuvchi temirchi. Degrezlik bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar mahallasi.

DEHIBOLO qishloq. Deh i bolo [f-t] baland joydagi qishloq, yuqori tomondagi ovul. Zidi Quyiqishloq.

DEHOJI Buxoro t. qishloq. Deh i hoji (f-t+a) (haj ziyoratiga borib kelgan kishi)ning yoki Hoji ismli kishining qishlog'i.

DEHQALANDAR Samarqand t. qishloq. Deh i qalandar (f-t+a) Qalandar ismli kishining yoki qalandarlarning qishlog'i.

DEHQONOBOD qishloq, tuman. **Dehqon** [f-t] lar o'zlashtirib, obod qilgan, **dehqonlar** bunyod qilgan qishloq. **Obod** [f-t] qishloq.

DEKMORON Qamashi, Kitob t. qishloq. **Deh**>**dek** **l moron**<**margin** -on o'tloqdagi qishloq.

DENOV qishloq, tuman. **Deh i nav** [f-t] yangi qishloq.

DENOVBOLO Kitob t. qishloq. **Denov i bolo** [f-t] yuqoridagi **Denov** q. qishlog'i.

DENOVSAYYOT Kitob t. qishloq. **Denov i sayyod** [f-t] sayyod urug'i jamoasi yashaydigan **Denov** q. qishlog'i.

DENGIZKO'L Buxoro v. ko'l. Maydon hajmi katta suv havzasi.

DEYBALAND Nurota t. qishloq. **Deh i baland** [f-t] baland joydagi qishloq.

DUBULG'A Shahrizabz t. qishloq. **Tog'da** o'sadigan qattiq yog'ochli daraxt – **dubulg'a**.

DUKCHILIK Samarqand t. qishloq. Ip yigiriladigan **dukchi** (f-t. **duk**) hunarmandlar qishlog'i.

DUKENT Ohangaron t. qishloq. **Deh** (qishloq) **kent** [f-t] (qo'rg'on) katta qo'rg'on, ko'p qo'rg'on.

DUMAR Norin, Uchqo'rg'on t. qishloq. q. **To'qmor**.

DUOB qishloq. **Du** [f-t] (ikki, qo'sh), **ob** (suv, daryo) ikki daryo tutashgan joy oralig'idagi yoki yonidagi qishloq.

DUPULI Samarqand v. joy. **Du** (ikki) **pul** (ko'prik), -l [f-t] – qo'sh ko'prikli joy.

DUQCHI Shahrizabz t. qishloq. Qadimgi turkiy **tuxsi** qabilasi nomining o'zgargani – **tuxchi/tuqchi/duqchi**. Shu qabila nomi qishloq nomiga aylangan.

DURAZA Kasbi t. qishloq. **Du reza** [f-t] ariqning ikkiga bo'lingan joyi yonidagi qishloq.

DUVLAT Baxmal t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan – **dug'lat/duvlat** qabila-urug'i jamoasining qishlog'i.

DUYUL Yakkabog' t. qishloq. Temur va temuriylar davrida martabali, obro'li kishilarga hadya etilgan yer – **tuyul**. Bu so'zning o'zgargan shakli – **duyul**. Ana shunday yerda bunyod bo'lgan qishloq.

DUG'OB qishloq. q. **Duob**.

DUG'OBA Kitob t. qishloq. q. **Duob**.

DO'RMAN qishloq. Turkiy, mo'g'ul xalqlari tarkibidagi **do'rman/durman/durban/durben** qabilasi ajdodlarining qishlog'i. Tarkibi **do'r/dur+mann/ban/ben** (odam, kishi).

DO'RMANCHA Bag'dod. t. qishloq. **Do'rman** qabilasi ajdodlarining kichik qishlog'i, **Kichik Do'rman** qishlog'i. q. **Do'rman**.

E

EGARCHI Boysun t. qishloq. Ot-arava kabi ulov hayvonlari ustiga qo'yiladigan yog'och abzal yasovchi ustalar qishlog'i.

EGIZAK Chiroqchi t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda *edizlegiz* (balandlik, baland joy), *-ak* (mavjudlik qo'sh.) balandligi, tepalari ko'p joy (qishloq).

EGRISUV Qamashi t. qishloq. Oqim yo'nalishi yonidagi jilg'alarga nisbatan qiyshiq, egri bo'lgan jilg'a bo'yidagi qishloq.

ELATON Jomboy t. qishloq. q. Alato'n.

ELLIKQAL'A To'rtko'lt. ovul. Beshta (*al/alik*) qal'adan iborat bo'lgan qadimiy qo'rg'on atrofidagi ovul.

ELTAMG'ALI Oqqo'rg'on t. qishloq. *Eltamg'ali* urug'i jamoasining qishlog'i. Urug'ning tamg'asi besh chiziq tarzida bo'lgan.

ERMAN Sariosiyo t. qishloq. Qadimgi eroniy o'rul/*var/er* (qal'a, devor bilan qurshalgan) *-mayn/man* (qishloq, ovul) tevaragi devor bilan o'ralgan qo'rg'on.

ESAT Yakkabog' t. qishloq. Mang'itlarning *esavoy/lesatvoy/* *esat* (sher totem bo'lgan) urug'i vakillari tashkil qilgan qishloq.

ESAVOY Koson, Kasbi t. qishloq. Mang'itlarning *esavoy* urug'i vakillari bunyod qilgan qishloq.

ESKI ANHOR Qashqadaryo v. kanal. Qadimiy anhor o'rnida qazilgan suv yo'li – kanal. q. Anhor.

ESKIBOG' G'uzor t. qishloq. X-XII asrdagi *Eskifag'n* nomining o'zgartirani – *eskibog'*. Baland, katta ibodatxona. So'g'dcha *fag'n* – ibodatxona.

ESKIJO'VA Toshkent sh. mahalla, bozor. *Eski Jo'ybor* q. nomining o'zgartirani.

ETAK Koson, Sherobod t. qishloq. Quyi qishloq.

ETAKOVUL Koson, Chiroqchi t. qishloq. Quyi tomondagi qishloq. Zidi Yuqoriovul.

ETIKCHI Kitob t. qishloq. *Etik* va boshqa oyoq kiyimlari tikuvchi hunarmandlar qishlog'i.

ESHAKMAYDON Qashqadaryo v. tog'. Ust qismida *ushoq* (o'zgartirani – *eshak*) – kichik tekis maydoni bo'lgan tog'.

F

FARG'ONA viloyat. Qadimgi eroniy tillardagi *parkana* (atrofi berk vodiy) so'zining o'zgartirani – *Farg'ona*.

GALA Koson t. qishloq. Mang'itlarning oqmang'it bo'limiga qarashli tarmoq – galalarning qishlog'i.

GALABAYTAL Yakkabog' t. qishloq. O'rish, arqog'i juft qilib chiyratilgan ipdan qo'lda to'qilgan gazlama (baytur) to'quvchilarning qishlog'i.

GALABEK qishloq. Bek avlodi, beklar to'pi, oqsoqoli ko'p (gala bek) ovul.

GALAKAPA Jomboy t. qishloq. Gala kapa [f-t] ko'p kapa tikilgan joydagi qishloq.

GALAOSIYO Buxoro t. qishloq. Gala (ko'p, bir nechta) osiyo [f-t] (tegirmon) bir-biriga yaqin masofada bir necha tegirmoni bo'lgan qishloq.

GANDIMIYON Xiva t. qishloq. Qadimgi eroniy gand/kand (qo'rg'on, qal'a) i miyon (o'rta) o'rta qo'rg'on, o'rtaliqdagi qishloq.

GARMOB Sariosiyo t. buloq. Garm (issiq) ob [f-t] issiq suvli, ko'p suvli buloq.

GAZA Boysun t. qishloq. Tog' etaklari va notekis adirlarda qirsimon cho'ziq balandliklarning oshib o'tadigan yo'li bo'lgan qismi – gaza va ana shunday joydagi qishloq.

GAZARAK Sariosiyo t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi hazora (hazara/gazara) urug'i vakillarining qishlog'i. Hazorak (-k mavjudlik, kichiklik qo'shimchasi) kichik Hazora qishlog'i.

GAZLI Buxoro v. qishloq. Gaz (r) yoqilg'isi chiqqan joydagi qishloq.

GILAMCHI Qarshi t. qishloq. Gilam [f-t] to'qish bilan shug'ullanuvchi hunarmandlarning qishlog'i.

GIRDIQO'RG'ON Kattaqo'rg'on t. qishloq. Gird i qo'rg'on [f-t] qo'rg'on atrofi.

GOVXONA qishloq. Chuqur joy [f-t] (gavd) dagi qishloq [f-t] (xona).

GOYISTON Yangiqo'rg'on t. qishloq. Ko'h -iston [f-t] so'zining o'zgargani: tog'li joy, tog' tagidagi qishloq.

GULBULOQ Baxmal t. qishloq. Chuqur joydagi buloq yonida bunyod bo'lgan qishloq.

GULDARA Yakkabog' t. qishloq. G'ul dara [f-t] chuqur dara (qishloq).

GUMBAZ qishloq. Gumbaz [f-t] tomi qubba shaklida yopilib, usti koshinlar bilan bezatilgan qo'rg'on yonidagi qishloq.

GUMBULOQ Dehqonobod t. qishloq. Gum [f-t] (chuqur) buloq –chuqur joydagi buloq atrofidagi qishloq.

GUVALAK Koson t. qishloq. Mang'itlarning oqmang'it bo'limiga mansub go'balak urug'i vakillarining qishlog'i. Go'balak/ko'balak – hashorat, hayvon turi. Urug' jamoasining tug'i, tug'rosida shu mavjudot tasviri bo'lgan, totem sanalgan.

H

HARAMJO'Y Qarshi sh. mahalla. Haram jo'y [a+f-t] qo'rg'on ariq, qo'rg'on ichkarisiga(dan) oqadigan ariq.

HAVZAK Tayloq t. qishloq. Havz -ak [a+f-t] hovuzcha, kichik hovuz yonidagi qishloq.

HAZORASP Xorazm v. tuman. Eroniy tillarda hazor (ming; ko'p), osiyo (tegirmon), yop (anhor, ariq) ko'p tegirmonni yuritadigan katta ariq.

HAZORBOG' Denov t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi hazora qabilasining bog'i yonidagi qishloq.

HEZALAK Chiroqchi t. qishloq. Hazora -k hazora qabilasi vakillarining kichik qo'rg'oni.

HILOL Qarshi t. qishloq. Burgutsimon yirtqich, burnidan nay ovozi singari tovush chiqaradigan yovvoyi yirtqich qush – hulol. Shu qushga topingan, tug'iga tasvirini tushirgan kishilar jamoasi – hilol. Urug'-qabila nomidan qishloq nomi kelib chiqqan.

HISOR tizma tog'. Hisor [a] qal'a, qo'rg'on, o'ralgan joy. Tog' tizmalarining shakli o'ralgan qal'ani eslatadi.

HOJIOBKO'L Buxoro v. ko'l. Hoji ob [a+f-t] Hoji ismli kishi yeridagi ko'l.

I

IBRAT Jalolquduq t. qishloq. Shoir, tilshunos, ma'rifatparvar Is'hoqxon Junaydulxo'ja o'g'li Ibrat (1862-1937) nomi bilan atalgan qishloq.

IBROHIMOTA Nurobod t. qishloq. Ibrohim [a] ismli kishi ziyoratgohi yonidagi qishloq.

ILAMJI Yakkabog' t. qishloq. q. Ilonchi, Ilonli.

ILONCHI qishloq, soy. q. Ilonli.

ILONLI Urgut t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi bir necha qabilalarning ilonli urug'i bo'lgan. Ilon - urug'ning totemi.

INGICHKA qishloq. Suv o'zani (jilg'a, soy, dara, kichik daryo)ning tor va oqim tezligi kuchli bo'lganligi uchun o'tish qiyin bo'lgan o'zani yonidagi aholi maskani.

IPOQ Oltinsoy t. qishloq. *Ip/lf/fuf/lup<xuf/xup/xaf/xap/qaf/qap/ qop<kaufa+-ak* [f-t] tog'cha, kichik tog', kichik cho'qqi, tog'li joy (qishloq).

IRG'AQLI Qorao'zak t. ovul. O'zbek, qoraqalpoq xalqining *irg'aqli* urug'i jamoasiga mansub ovul. Irg'aq - tamg'a shakli.

ISKANA Kitob t. qishloq. Turkiy *iskana/eskana/eskina* urug'i jamoasining qishlog'i.

ISSIQKO'L ko'l. Qadimgi turkiy tilda *iziq/isiq/iziq* (muqaddas, buyuk, aziz) ko'l (suv to'plangan joy) muqaddas ko'l, katta ko'l. Suv va tog' kulti (sajdasi) bilan bog'liq.

IYRISUV Qamashi t. jilg'a, qishloq. Oqim yo'nalishi egri-bugri bo'lgan jilg'a.

IYRIG'UL Nurobod t. qishloq. Egri qo'l (suv oqar jilg'a) nomining o'zgargani. Egri-bugri o'zanli jilg'a bo'yidagi qishloq.

ISHKENT Yakkabog' t. qishloq. Arab istilosiga qarshi kurashgan so'g'd, Kesh lashkarboshisi *Ashkend/Ishkend* nomi bilan atalgan qishloq. So'g'd tilida kent qishloq, qatta qo'rg'on.

ISHTIXON Samarqand v. tuman. So'g'dcha *isht/xasht* (sakkiz) *xon/kom* (ariq, anhor) sakkiz, ya'ni ko'p ariq. *Ixshid* (hukmdor) -on hukmdorning qishlog'i.

J

JALOLQUDUQ Andijon v. tuman. *Jalol* (buyuk, yuksak martabali; go'zal, ko'rkam) ismli kishi qazdirgan quduq yonidagi qishloq.

JALOYIR qishloq. Turkiy *jaloylr* qabilasi jamoasining qishlog'i.

JAMAYI Chiroqchi t. qishloq. *Yuz/juz/uzlarning* urug' tarmog'i - jamoyi. Aslida *jabag'il/javag'i* tarzida bo'lgan. q. *Javog'i*.

JARQOQ Buxoro v. suvombori. *Jar* yonidagi chuqur joyga to'plangan yog'in suvlaridan hosil bo'lgan suv havzasi (ko'lmak).

JARQO'RG'ON qishloq, tuman. Daryo, suv yuvishi natijasida hosil bo'lgan katta o'yiqlik yonida qurilgan qo'rg'onli qishloq.

JARQO'TON Sherobod t. balandlik. Qo'ton q. sifatida foydalanilgan jar bo'yidagi do'nglik.

JARTEPA qishloq. Suv o'yib ketgan chuqur o'yilgan tepa (jar) yonidagi qishloq. Aynan *Yartepa*, *Yortepa*.

JAVHARARIQ Qarshi t. ariq. Jo'ybor q. nomining o'zgargani

JAVOG'I Yakkabog' t. qishloq. Qatag'onlarning *javog'i* urug'i jamoasi qishlog'i.

JAYRAXONA Termiz t. qishloq. *Jayra* yashagan to'qay atrofidagi ovul.

JENOV Kasbi t. qishloq. **Jo'y i nav** [f-t] yangi ariq, yangi suv o'zani o'tgan joyda bunyod bo'lgan qishloq. Aynan Yangiariq.

JIG'ACHI Andijon t. qishloq. Jig'a yasovchi ustalarning qishlog'i.

JILISUV Qashqadaryoning o'ng irmog'i. Qadimgi turkiy yul/jul (buloq, kichik daryo) li suv – yer osti, buloq va yog'in-sochin suvlari bilan to'yinadigan jilg'a.

JINNIDARYO Qashqadaryoning o'ng, Surxon-daryoning chap irmog'i. Suvining miqdori yog'inga bog'liq bo'lganligi uchun o'zanini o'zgartirib turadigan, qirg'oqlarini yuvib zarar keltiradigan, yozda qurib qoladigan daryo.

JIYDAKAPA Uychi t. qishloq. Jiyda [f-t] daraxti o'sgan joydagi kapa atrofida tashkil qilingan qishloq.

JIZZA Qarshi, Kasbi t. qishloq. So'g'dcha **diz/jiz** (qo'rg'on, qal'a) so'zining o'zgargani **jizza** – qo'rg'onli, qo'rg'oncha.

JIZZAX viloyat, shahar. Qadimgi eroniy tilda **diz** -ak qo'rg'oncha, kichik qal'a. O'zbekcha talaffuzda **Jizza** -k kichik qo'rg'oncha.

JOBU Oltinsoy t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda oliy hukmdorlik unvoni, qarluq xoni – **yobg'u**. **Yabg'u/yobg'u/jabg'u/jobg'u/jobu** – qarluqlarning urug'i.

JOM qishloq. Qadimgi turkiy, mo'g'ulcha **jom/yom** – aloqa, savdo yo'llaridagi bekat, ot-ulov boqiladigan joy, xabarlarni bekatdan bekatga yetkazish xizmati kishilari yashaydigan qarorgoh yonidagi qishloq.

JOMBOY Samarqand v. tuman. Turkiy, mo'g'ul **yom/jom** (yo'l, bekat, aloqa qarorgobi) **boyli** (urug' nomi) **boy** (-li) urug'i vakillari xizmat qilgan bekat atrofidagi aholi turar joyi.

JOMBO'Z Qamashi t. qishloq. Bo'z yerda bunyod qilingan **Jom** q. qishlog'i.

JOVIZ Kitob t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda **yog'iz** - (o'zgargani **joviz**) o'zlashtirilmagan bo'z tuproqli yerda bunyod etilgan ovul.

JUMA Pastdarg'om t. markazi. Qadimiy hafta hisobida beshinchi kun [a.] (**jum'a**) va ommaviy namoz o'qiladigan joydagi bozor va uning atrofidagi qishloq.

JUMABOZOR qishloq. Haftaning beshinchi [a.] **jum'a**) va haftaning oxirgi kuni bo'lganligi uchun dam olish kuni va ommaviy namoz o'qiladigan kun bo'ladigan bozorjoy atrofidagi qishloq.

JUMAMACHIT Yangiariq t. qishloq. **Jum'a masjid/machit** [a] haftaning beshinchi kuni musulmonlar jam bo'lib namoz o'qiydigan ibodatxona (atrofidagi qishloq).

JUMURTOV Qizilqumda tog'. Yumaloq tog'. Govmard (ho'kiz odam – S.P.Tolstov) nomining o'zgargani – **Jumur**.

JO'YBOR Buxoro sh. mahalla, mavze. Anhor, katta ariq [f-t] (jo'y), bo'yi [f-t] (bor) dagi mahalla.

JO'YRABOT Shofirkon t. qishloq. Jo'y i rabot [f-t] rabotning arig'i, Rabot qishlog'ining arig'i.

JO'YLANGAR Sirdaryo t. qishloq. Jo'y i langar [f-t] – Langarning arig'i.

JO'YNAV Shofirkon t. qishloq. Jo'y i nav [f-t] – yangi ariq bo'yidagi qishloq.

JO'YOSIYO Xatirchi t. qishloq. Jo'y i osiyo (f-t) – tegirmon ariq yonidagi qishloq.

JO'YRABOT Shofirkon t. qishloq. Jo'y (ariq) rabot [f-t] – rabot yonidagi ariq.

JO'YRAK Oltiariq t. qishloq. Jo'y (ariq) rak/roh [f-t] (yo'l) – yo'l yoqasidagi ariq bo'yidagi qishloq.

JO'YSAFED Jondor t. qishloq. Jo'y i safed [f-t] – oq ariq, suvi ko'p ariq, suvi qurimaydigan ariq.

JO'YSHAHAR Kattaqo'rg'on t. qishloq. Jo'y i shahar [f-t] – shaharning arig'i.

JO'YSHARA Shofirkon t. qishloq. Jo'y i sharshara [f-t] sharsharali ariq, tegirmon yonidagi qishloq.

K

KAHLAK Qarshi t. qishloq. Mirishkor qabilasining bir urug'i –kahlak. Arabcha qal'a -ak (f-t -cha) – qal'ak, ya'ni qal'acha, kichik qal'a (qo'rg'on).

KAKAYDI Sho'rchi t. qishloq. Eroniy tilda ko'h (tog') kad/kat (qo'rg'on) diz (qal'a, tevaragi devor bilan o'ralgan istehkom) – tog' bag'ridagi qo'rg'on.

KALTATOY Zomin, Baxmal t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan kaltatoy urug'i bunyod etgan qishloq.

KALVAK To'raqo'rg'on t. qishloq. Kal ob -ak [f-t] kam suvli jilg'a. So'g'd tilida kal – suv, daryo, jilg'a.

KAMANDI Qarshi, Koson t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda kom/kam (anhor) -in (-li) diz (qo'rg'on) anhor bo'yidagi qo'rg'onli qishloq.

KAMAR qishloq. Tog' etaklari va adirlar quyisida tevaragi balandlik bilan o'ralgan pastqam joy.

KAMARCHILJUVUT Chiroqchi t. qishloq. Kamar joyda joylashgan Chiljuvut yoki chiljuvut urug'i jamoasining qishlog'i.

KAMONGARON Urgut t. qishloq. Kamon (nayza solib otiladigan qurol) -gar -on [f-t] – kamon yasovchi ustalarning qishlog'i.

KAMPIRKO'L Boysun t. ko'l. Eroniy **kand i pir** ko'hna qishloq (qo'rg'on atrofidagi ko'l).

KAMPIRAVOT Andijon v. suvombori. Kampir qadimgi eroniy tildagi **kand i pir** (ko'hna qishloq) birikmasining o'zgargani. Qadimiy qo'rg'on atrofidagi rabot.

KAMPIRTEPA qishloq. Burj yoki darvoza o'rni, qo'rg'on xarobasi bo'lgan joydagi qishloq. So'g'dcha **kand i pir -ak** qadimiy devor, burj.

KANDABULOQ Quva t. qishloq. **Kanda** [f-t] – o'yilgan chuqur, ya'ni qazib chuqur joydan suv chiqarilgan buloq atrofidagi qishloq.

KAPRIN G'uzor, Boysun t. qishloq. So'g'dcha **koh i pir in** – ko'hna saroy, qadimgi qo'rg'on, qo'rg'on xarobasi.

KAPTARXONA qishloq. Kaptar (qush turi) xona [f-t] – kaptarlar yashaydigan joy. Kaptarlar yashaydigan katta, baland jar yonidagi qishloq.

KARMANA Navoiy v. tuman. Qadimgi eroniy tilda **kard/kird/ gird** (qo'rg'on, shahar) -mann/ -mayn (qishloq) – qo'rg'onli qishloq, qo'rg'on atrofidagi qishloq.

KARSAGON Oltinsoy t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **qar/ g'ar** (tog'), **sak/saq** (xalq nomi) -on (-lar qo'shimchasi, jamlik ma'nosi) – tog' saklarining qishlog'i.

KARVON Qamashi t. qishloq. O'zbek qipchoqlarining urug'i – karvon. Shu urug' jamoasining qishlog'i.

KARVOZBOP Kogon t. qishloq. **Karbos bof** [f-t] – bo'z to'quvchi ustalarning qishlog'i.

KASBI Qashqadaryo v. qishloq, tuman. Arabcha **qasaba** (kichik shahar, katta qishloq) so'zining o'zgargani.

KAT Qarshi sh. mahalla, Bekobod t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **kat** – qo'rg'on, qal'a.

KATAR Oltinsoy t. qishloq. So'g'dcha **kat** (qo'rg'on, qal'a) -ar (-li) - qo'rg'onli, qo'rg'on atrofidagi qishloq.

KATMAN Qumqo'rg'on t. qishloq. So'g'dcha **kat mayn** – qo'rg'onli qishloq, qo'rg'on atrofidagi qishloq. Tojik tilida **kandmand** – xaroba, vayrona.

KATMANCHI Sho'rchi t. qishloq. **Katman** q. qishlog'idan ko'chib kelganlar yashaydigan qishloq.

KATQAL'A Shovot t. qishloq. O'rtasida mustahkam qo'rg'oni bo'lgan qal'a (tevaragi devor bilan qurshalgan turar joy). Eroniy **kat** – qo'rg'on.

KATTAMING Kattaqo'rg'on t. qishloq. Katta Ming q. qishlog'i, ming urug'ining katta qishlog'i.

KATTAMO'G'UL Uchqo'rg'on t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan mo'g'ul/mo'g'ol urug'ining katta qishlog'i.

KATTAQUM Surxondaryo v. cho'l. Katta qumtepalari bo'lgan va ulkan maydoni qum bilan qoplangan cho'l.

KATTAQO'RG'ON Samarqand v. tuman. So'g'dcha kat (qo'rg'on) qo'rg'on – ulkan qo'rg'on.

KATTASOY Jizzax v. suvombori. En ko'lami keng bo'lgan soydagi suv havzasi.

KATTAYOBI Muborak t. qishloq. Katta Yobi qishlog'i. Yobu - o'zbek xalqi tarkibidagi urug'.

KATTAO'LMAS Norin t. qishloq. Katta O'lmas q. qishlog'i; o'lmas urug'i jamoasining katta qishlog'i.

KATTAO'RA Dehqonobod t. daryo. O'ra – ikki tomoni baland tizma yo qir bilan o'ralib, o'rtasi chuqur soyluk bo'lgan vodiy. Ana shunday soyluk uzun bo'lgan joydan oquvchi daryo.

KAVKAZOVUL Piskent t. ovul. 1941-45 yillardagi jahon urushi vaqtida Kavkaz o'lklaridan ko'chirib keltirilgan turkiy xalqlar vakillarining qishlog'i.

KAYFANGTOG' Qashqadaryo v. tog'. Qadimgi eroniy tilda *kaufa* -n – katta tog'.

KEGEYLI Qoraqalpog'istonda tuman. Qoraqalpoqlarning kegeyli urug'i jamoasi bunyod qilgan ovul.

KELES Sirdaryoning o'ng irmog'i. Turkiy os qabilasining daryosi, uzun o'zanli suv.

KENAGAS Urgut t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qadimiy kenagas qabilasi jamoasining qishlog'i.

KENES Chimboy t. ovul. q. Keles.

KENESYOP Xo'jayli t. ovul. Uzun o'zanli anhor bo'yidagi ovul.

KERAYIT qishloq. Turkiy, mo'g'ul xalqlari tarkibidagi qabila kerayit/kerelt/kerey/kirey vakillarining qishlog'i. Etnonim kerey/kirey (qarg'a) va -t (-lar) – qarg'aga topinuvchilar va tug' (bayroq)igga qarg'a tasvirini tushirganlar jamoasi.

KERIZ Nurota, Tomdi t. qishloq. q. Koriz.

KESKAK G'uzor t. qishloq. G'uzor qovchinlarining tarmog'i – kskak. Keskaklarning qishlog'i.

KENGQO'L Yakkabog', Ohangaron t. qishloq. Eni katta bo'lgan jilg'a bo'yidagi qishloq. Qo'l – kattaroq daryoga kelib qo'shiladigan suv.

KILKON Sherobod t. qishloq. Kilik -on [f-t] – qamishzor, qamish ko'p o'sgan joy.

KIRPICH Jarqo'rg'on t. qishloq. Qadimgi turkiy va eski o'zbek tilida kirpich/kirbich – g'isht ya'ni, g'ishtli tepa yonidagi qishloq.

KITOB tuman. Eroniy tilda **kat ob/kat i ob** daryo bo'yidagi qo'rg'on.

KIYIKCHI qishloq. O'zbek qabila, urug'i – kiyikchi. Qurama, kesamir, mang'it qabilalari tarkibidagi urug' – kiyikchi. Shu qabila, urug' vakillari yashagan, tashkil etgan qishloq. **Kiyik** – sajda qilingan hayvon, **-chi** qo'shimchasi jamoa, guruh, to'da ma'nosini anglatgan.

KISHTUT Sariosiyo t. qishloq. **Kish/kesh/kush/qush** (balandlik, tog'), **tut** [f-t] – balandlik atrofida o'sgan tut daraxti yonidagi qishloq.

KICHIKO'RA Dehqonobod t. daryo. O'ra – uzunligi yonidagi o'radan kichik, qisqa bo'lgan joydan oquvchi daryo. qiyos. **Kattao'ra**.

KOGON Buxoro v. tuman, shahar. **Koh-on** [f-t] – qasrli joy.

KOHAKOTA Toshkent t. mavze. **Koh-ak** [f-t] – kichik qasr. **Ota** – do'nglik. **Kohak** – tepalik.

KOJAR Qarshi t. qishloq. Qadimgi turkiy **kochar/kojar** qabilasi jamoasining qishlog'i. **Qochur/qachir** – burgutning bir turi, qabila totem asosida nomlangan, qabilaning tug'ida burgutning tasviri bo'lgan.

KONIMEX Navoiy v. tuman. Eroniy kom (ariq) **i, marg'** (o'tloq) – o'tloqdagi ariq, bo'z suv.

KOSAGARON mahalla, qishloq. **Kosa gar on** [f-t] – kosa yasovchilar, ya'ni yog'ochdan kosa va shunga o'xshash ro'zg'or asboblari (tovoq, qoshiq, cho'mich) yasovchi hunar egalatining qishlog'i, mahallasi.

KOSARI Vobkent t. qishloq. **Kosa-gar-i** – kosagarlik, kosa va shunga o'xshash ro'zg'or asboblari tayyorlovchi hunarmandlar qishlog'i.

KOSATAROSH qishloq. Aynan Kosagar.

KOSON Qashqadaryo v. tuman. Turkiy yuechji qabilasi ittifoqiga kirgan **kushan** qabilasiga mansub shaharcha.

KOSONSOY Namangan v. tuman. **Koson/kushan**larning soyi (daryosi). q. **Koson**.

KOTIB Sariosiyo t. qishloq. So'g'dcha **kat** (qo'rg'on, qal'a), **-if** (-lar ko'plik qo'shimchasi) – bir necha qo'rg'onli qishloq.

KOYNI Kitob t. qishloq. **Qangli** q. nomining o'zgargan shakli.

KULBAPOYON Samarqand t. qishloq. **Kulba yi poyon** [f-t] quyidagi uy, adiq hovli.

KULTEPA Zomin t. qishloq. **Kul** tashlanadigan joy, **kul uyumi** – **kultepa**.

KUNCHIQAR Angor, Shahrisabz t. qishloq. Sharq tomondagi qishloq.

KUNJI Andijon t. qishloq. **Kunj** -i [f-t] - qal'a burchagi, qal'a qoldig'i yonidagi qishloq.

KUNJIQAL'A Buxoro t. qishloq. **Kunji** [f-t] qal'a [a] qal'a burji, qal'aning minorasimon burji yonidagi qishloq.

KUYIKKO'PIR Amudaryo t. ovul. Yong'in tufayli kuyib qayta tiklangan ko'prik yonidagi ovul.

KUYOVSVU Sariosiyo t. jilg'a. **Ko'h ob** [f-t] - tog' daryosi, tog' ichidan oqadigan suv.

KO'HNADARYO Amudaryo o'zani. Daryoning qadimda **ko'hna** [f-t] oqqan o'rnida hosil bo'lgan uzun suv yo'li.

KO'HNASHANBI Vobkent t. qishloq. Shanbi – haftaning oltinchi kuni, shu kuni bozor bo'lgan, Shanbi qishlog'i ikkiga bo'lingan biri – Yangi Shanbi yoki Shanbi, ikkinchisi **Ko'hna Shanbi**, avval bunyod bo'lgan Shanbi qishlog'i.

KO'KCHA G'ijduvon t. qishloq, Toshkent sh. mavze. Yigirilgan ip, kalava, mato va boshqa narsalarni bo'yash ishi bilan shug'ullanuvchi hunarmand (**ko'kehi**, o'zgargani – **Ko'kcha**) lar yashaydigan qishloq.

KO'KDALA Chiroqchi t. qishloq. **Ko'k o'tli tekis dala** joyda bunyod bo'lgan qishloq.

KO'KDUMALOQ Muborak t. balandlik. **Ko'kish tuproqli choshtepa** singari do'nglik.

KO'KMO'YIN O'rta Chirchiq t. qishloq.

KO'KOROL Orol dengizida orol. **Ko'kish**, kulrang tuproqli chuqurlik.

KO'KOTA Nurobod t. qishloq. **Ko'k rangdagi marmar toshli balandlik** yonidagi qishloq.

KO'KSAROY Toshkent t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi saroy qabilasining **ko'ksaroy** urug'i ajdodlariga mansub qishloq.

KO'KSUV Chirchiq, Zarafshonning irmog'i. **Ko'p** suvli daryo.

KO'KTO'NNI Chiroqchi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan **ko'ktug'li** urug'ining qishlog'i.

KO'L qishloq. **Yog'in-sochin** va oqar suvlar to'plangan chuqur joy – **ko'l** yonidagi qishloq.

KO'LIYON Jondor t. qishloq. **Ko'l i -yon** - ko'llar, **ko'l ko'p** bo'lgan joydagi qishloq.

KO'LOB Xo'jayli, Sariosiyo t. qishloq. **Ko'l i ob** [f-t] **yog'in** yoki oqova suvlar yig'ilib qolgan chuqurlik atrofidagi qishloq.

KO'LSAG'A Chimboy t. ovul. Anhor boshlanadigan joydagi **ko'l bo'yidagi** ovul.

KO'LTEPA qishloq. Tevaragida **ko'l bo'lgan balandlik**.

KO'MIRTEPA Kitob t. qishloq. **Ko'bir/ko'bur/ko'mur/ko'mir** – ko'prik. Katta ariq ko'prigi yonidagi tepa.

KO'NARO'T Shofirkon t. kanal. **Ko'hna** (eski, avvalgi) rud [f-t] (ariq, anhor, daryo) yonidagi anhorga nisbatan qadimda qazilgan suv yo'li, ariq.

KO'NCHI Andijon, Nurota t. qishloq. Teriga ishlov berib ko'n tayyorlovchi hunarmandlar qishlog'i.

KO'PRIKBOSHI Xo'jaobod t. qishloq. Katta ariq ustidagi ko'prikning yuqorisi.

KO'RPASOY Jizzax t. joy. O'zbek xalqi tarkibidagi turkman urug'i ko'rpasboxobchasining qishlog'i. **Ko'rpas** – totem, ma'nosi – qo'zichoq.

KO'RTO'G'AY Jarqo'rg'on t. qishloq. Qo'ng'irotlarning qanjig'ali urug'idagi tarmoq – ko'рто'g'ay, shu urug' jamoasining qishlog'i.

KO'SAM Kitob t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi kesamir urug'i nomining o'zgargani – ko'sam → **Ko'sam**.

KO'TAL Chiroqchi t. qishloq. Turkiy ko'tal, mo'g'ulcha xutul/xo'to'l – kichik dovon, oshib o'tish qulay cho'ziq balandlik.

KO'YTAN Surxondaryo v. tog'. **Ko'h i tang** [f-t] tog' tizmalarining orasida tor yo'lak daralari bo'lgan tog'.

KO'CHABOG' qishloq, mahalla. **Ko'cha yi bog'** [f-t] – bog' ko'cha, yo'lning ikki tomonidagi ariq qirg'og'iga daraxt ekilgan xiyobon.

L

LABIHOVUZ Samarqand, Buxoro, Qo'qon sh. mahalla. **Lab i hovuz** [f-t] hovuzning atrofi. Hovuzning atrofidagi qishloq.

LABIKO'L Shofirkon t. qishloq. **Lab i ko'l** [f-t] – ko'l bo'yi.

LABIOB Sariosiyo t. qishloq. **Lab i ob** [f-t] – daryo bo'yi.

LABIRUT G'ijduvon t. qishloq. q. Labiro'd.

LABIRO'D Shofirkon t. qishloq. **Lab i rud** [f-t] ariq bo'yi.

LABZAK Toshkent sh. mahalla. **Lab i zax** [f-t] Zax arig'ining bo'yi. q. Zaxariq.

LAGANDI Qarshi t. qishloq. So'g'dcha lakka (maydon, daladagi yer) –n (mavjudlik) –diz (qal'a, qo'rg'on) – dasht joydagi qal'a.

LANGAR qishloq. Hindu-evropa tillarida langar – ibodatxona, karvonsaroy, g'aribxona, xonaqoh, bekat, yomxona, to'xtash joyi atrofidagi qishloq.

LAXCHAYARIQ Qarshi t. ariq. Naxshab arig'i. Naxshab nomining o'zgargani – **Laxchay**.

LAG'MAN Qarshi t. qishloq. So'g'dcha laq/lag' (chet). mayn – chet qishloq.

LIPA Sariosiyo t. qishloq. **Lab i ob** [f-t] birikmasining o'zgargani: daryo bo'yi.

LOYQA qishloq. Yog'in-sochin suvlari oqishi natijasida hosil bo'lgan xalqob, chuqur joydagi qishloq.

LUQLIKO'L Qamashi, Buxoro v. ko'l. Qo'g'a (shevada luq) o'simligi o'sgan suv havzasi.

M

MAKRIT Kitob t. qishloq. Turkiy qabila **makrit/markit**larning qishlog'i.

MALAN Oltinsoy t. qishloq. Qadimiy eroniy tilda **malan/balan/palan/maran/baran/paran/varan**; **vara+** -n - qo'rg'onli.

MALIK Navoiy v. cho'l. Qadimgi turkiy **balq/balg'/balx** (qo'rg'on, qal'a, istehkom) so'zining o'zgargan shakli - **Malik**.

MALLAVOSH Qarshi, Kitob, Shahrisabz t. qishloq. Minjirsaroy, mang'itlarning urug' tarmog'i - **mallavosh**, shu qavm jamoasining qishlog'i.

MANAK Ho'jaobod t. qishloq. So'g'dcha **mayn** (qishloq), **-ak** (kichraytish qo'sh.) - qo'rg'oncha, kichik qishloq.

MANAQ Shovot t. qishloq. q. **Manak**.

MANGUZAR Termiz t. qishloq. So'g'dcha **mayn i guzar** - suv (daryo) guzari yonidagi qishloq.

MANJULI Chimboy t. ovul. Qoraqalpoq xalqining qatay qabilasiga mansub **manjuli** urug'ining ovuli.

MANG'IT qishloq. Turkiy, mo'g'ul **mangit/mang'it/mingat** qabilasining qishlog'i.

MANG'ITARNA Gurlan t. ariq. Mang'it qabilasi va qishlog'ining arig'i (kanali).

MARHAMAT Andijon v. tuman. 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonida qatnashgan aholi turarjoyini buzib tashlab ularga yangi hovli-joy qurish uchun ajratilgan yerni in'om sifatida Marhamat deb atashgan.

MARJONBULOQ G'allaorol t. qishloq. **Marj -on** [f-t] - yaylov. Yaylovdagi buloq yonida bunyod bo'lgan qishloq.

MARMIN Oltinsoy t. qishloq. So'g'dcha **marg'** (o't-o'lan, ko'klam). **mayn/miyn/min** (qishloq, qo'rg'on) - o'tloqdagi qo'rg'on.

MARTEPA G'uzor t. qishloq. **Marg'** (sog'dcha) **tapa** - tepalari ko'p yaylov(qishloq).

MARG'ZOR Pop t. qishloq. So'g'dcha **marg'** -**zor** - o'tloq, o't ko'p o'sadigan joy. qiyos. **Mag'zon**.

MAYDAYOBI Muborak t. qishloq. **Kichik yobi** (o'zbek urug'i) qishlog'i.

MAYDONAK Qamashi t. balandlik. **Maydon -ak** [f-t] – ustida tekis maydon bo'lgan tog' tizmasi.

MAYMANAQ Kasbi t. qishloq. Qadimiy eroniy tillarga mansub **Maymurg'**/**Maynimarg'** nomining o'zgartirani: **mayn i marg'** – o'tloqdagi qishloq.

MAG'ZON Qarshi sh. mahalla. So'g'dcha **marg'** (o't) -zor – o'tzor o'tloqda bunyod bo'lgan qishloq.

MACHAY Boysun t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **mass/mos** (tog'liq, tog') **jo** (joy, yer) tog' ichidagi qishloq.

MACHITBALAND Buxoro t. qishloq. **Machiti** baland [a+f-t] – tik ko'lami yuksak bo'lgan baland machit yonidagi qishloq.

MERGAN qishloq. Turkiy **mergan**, mo'g'ulcha **mergen** - o'q otish ustomoni, ovchi; dono, ziyrak. Turkiy **mergan** urug'i jamoasi vakillarining qishlog'i.

MERGANCHA Urgut t. qishloq. Kenagaslarning **mergan**cha urug'i vakillari bunyod etgan qishloq. Kichik **Mergan** q. qishlog'i.

MESIT Kasbi, Paxtachi, Koson t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan **mesit** qabilasi vakillarining qishlog'i.

MINDON Farg'ona v. qishloq. Qadimgi eroniy tillarda **min/ mayn** (qishloq) **i -don** (suv, daryo) – daryo bo'yidagi qishloq.

MINJIR Kitob t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi **minjir** urug'-qabila vakillarining qishlog'i.

MINOR Jarqo'rg'on t. qishloq. Saraxslik me'mor **Ali ibn Muhammad** loyihasi asosida 1108-1109 yillarda qurilgan, balandligi 21,6m, diametri 5,4 m o'lchamdagi minora [a] mavjudligi uchun shu nom bilan atalgan.

MING G'allaorol t. qishloq. O'zbeklarning **ming** urug'i bunyod qilgan qishloq.

MINGBULOQ Namangan v. qishloq, tuman. **Ko'p** (**ming**) buloqli joydagi qishloq; qadimgi turkiy **mingar** – yer osti suvlari buloq singari oqib chiqqan joydagi qishloq. Tuman qishloq nomi bilan atalgan.

MINGLAR Vobkent, G'ijduvon t. qishloq. **Ming** qabilasi jamoasining qishlog'i.

MINGON Shofirkon t. qishloq. **Ming** q. qabilasiga mansub kishilar qishlog'i.

MINGTUT O'zbekiston t. qishloq. Behad ko'p tut daraxti o'sgan joydagi qishloq. Qadimgi turkiy tilda **mingar** – suv chiqar joy, buloqlar ko'p bo'lgan joy.

MINGCHINOR Paxtakor t. qishloq. Qadimgi turkiy **mingar** (buloq, yer osti suvi chiqadigan joy) **chinor** [f-t] – buloqlar ko'p joydagi qishloq.

MINGCHUQUR tog'li t. balandlik. O'ydim-chuqur handaqlari ko'p bo'lgan maydonli do'nglik.

MIRAKI Shahrizabz t. qishloq. Marg' -ak -i [f-t] - marg'aklik, marg' -ak yaylovcha, o'tloqli.

MIRISHKOR qishloq. [a]mir i shikor (a+f-t) (ov ishlari bilan shug'ullanuvchi, ov begi) urug'i vakillari bunyod etgan aholi maskani.

MIRKENT Paxtachi t. qishloq. Amir [a] laqab yo ismli kishining qo'rg'oni yonidagi qishloq.

MIRMIRON Qarshi t. qishloq. Mir i miron – xo'jalar avlodiga mansub bek (bukmdor, hokim). Mir – amir [a] so'zining shakli, tojik tili o'tmishida mira – xo'ja, buzurg, miron – xo'jalar.

MIROBOD Qorako'l, Paxtachi t. qishloq. Amir [a] ismli yoki mansabli kishi qurdirgan qo'rg'on.

MIRZATO'P Chiroqchi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi saroy qabilasi qipchoqsaroylar bo'limining mirzato'p urug'i vakillari qishlog'i.

MIRSHODI Oltinsoy t. qishloq. Dastlab hovli joy qurib, qishloq tashkil bo'lishiga asos solgan kishining ismi Mir [a.] (amir) shodi [a+f-t].

MIYONKAL Samarqand v. orol. Miyon i kal [f-t] ikki daryo oralig'i, ya'ni Oqdaryo bilan Qoradaryo orasi.

MOJAR qishloq. Saroy qabilasining mojar urug'i vakillari bunyod qilgan ovul.

MOLGUZAR Jizzax v. tog'. Mor (ilon) guzar [f-t] (o'tar joy, yo'lak) – ilon yo'li, ilon izi singari yo'lakli tog'.

MOYARIQ ko'p t. ariq. Qadimgi turkiy umay (yaratuvchilik, hosildorlik tangrisi) so'zining soddalashgani, boy/moy (katta, ulkan) ariq – katta ariq, ulkan anhor.

MOYLIBOLTA Kegeyli, Qorao'zak t. ovul. Qoraqalpoq, o'zbek xalqi tarkibidagi qipchoq qabilalar ittifoqining moylibolta urug'i jamoasiga mansub ovul. Moylibolta – qush turi, totem.

MOYLISOY Farg'ona v. jilg'a. Neft, kerosin singari yer osti yonilg'isi chiqib turadigan joydan oqadigan suv.

MOYLIXONA Sho'rchi t. qishloq. Mang'it va saroylarning urug'i – moyli/boyli. Shu urug'lar yashaydigan qishloq. Moyli/boyli – totem. Moy/boy – qush turi.

MUBORAK Qashqadaryo v. tuman, shahar. Qishloq tashkil bo'lishiga asos solgan boy-badavlat kishining ismi Muborak [a]. Tuman, shahar qishloq nomidan yaralgan.

MULLABULOQ G'allaorol t. qishloq. Mo'laga o'xshash toshlari ko'p bo'lgan joydagi buloq yonida bunyod bo'lgan qishloq.

MULLASHIX Qorako'l t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi shix/shiq urug'i yashaydigan joydagi mo'la atrofida bunyod bo'lgan qishloq.

MUNCHOQ Boysun t. qishloq. Burj -ak [f-t] so'zining o'zgargani – munchoq, ya'ni qal'a minorasi bor bo'lgan qishloq. Burj – qal'a, qo'rg'on, minora, mezana, -ak qo'shimchasi kichik ma'nosini anglatadi.

MURUNTOV Navoiy v. tog'. Burun singari uzun va baland cho'qqilari bo'lgan tog'.

MUZRABOT Surxondaryo v. tuman. Aynan Buzravot.

MUG'LON Kasbi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan mo'g'ul/mug'ul -on – mo'g'ullar qishlog'i.

MUG'UL Kitob t. qishloq. Qadimgi turkiy qabila mug'ul/mo'g'ullarning qishlog'i.

MO'DIN Koson t. qishloq. Qadimgi turkiy. mo'g'ul tilida mo'din – daraxt, yog'och; o'rmon. Daraxt ko'p o'sgan joydagi qishloq.

MO'LATOSH Dehqonobod t. balandlik. Mo'lasimon, usti yassi yirik toshli do'nglik.

MO'YNOQ qishloq, tuman. Aynan Bo'ynoq.

MO'G'ULTOG' Buxoro, Toshkent v. tog'. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan mo'g'ul/mug'ul urug'i yashagan joydagi tog'. Mag'ora [a.] (g'or, tog' ichidagi chuqur o'yi) so'zining o'zgargani mo'g'ul ya'ni, g'orli tog'.

MO'CHIN Yakkabog', Shahrizabz t. qishloq. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tillaridagi mo'din so'zining o'zgargani – Mo'chin. q. Mo'din.

N

NAGAHAN Qamashi t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda lakka (maydon, joy), -on (lakkaon-lakkagon-lakagon! nagogon!nagahon) mayda-mayda bo'laklarga ajratilgan joydagi qishloq.

NAJI Muborak t. qishloq. Turkman xalqining urug'i – naji, shu urug' jamoasining qishlog'i.

NAMANGAN viloyat, shahar. Qadimgi eroniy tilda nav (yangi), mayn/man (qishloq, qo'rg'on) kom>kon/gon (suv, daryo) – yangi qo'rg'on yonidan oquvchi daryo.

NAMATON Shahrizabz t. qishloq. So'g'dcha nav mitan – yangi qishloq.

NANAY Yangiqo'rg'on t. qishloq. So'g'dcha nav mayn yangi qishloq.

NAQI Nurota t. qishloq. q. Noqi.

NARAZIM Muborak t. qishloq. Turkmanistonning Forob shahri yonidagi Narazim qishlog'idan ko'chib kelgan aholi istiqomat qiladigan qishloq.

NARPAY Samarqand v. tuman. Nahr [a] (ariq, anhor), pay/poy/poin (quyi, adoq) – quyi kanal, adoqdagi anhor.

NAVBOG' Sherobod t. qishloq. Nov bog' [f-t] – nov singari ariq oqib keladigan bog' yonidagi qishloq.

NAVJON Sherobod t. qishloq. Nov jon [f-t] – suvli jilg'a; suvi ko'p huloq.

NAVKENT Yangi qo'rg'on t. qishloq. Nav (yangi), kent [f-t] – yangi qishloq, yangi qo'rg'on.

NAVMETAN Buxoro t. qishloq. Yangi qo'rg'on, yangi qishloq.

NAVOIY shahar, viloyat. Buyuk o'zbek shoiri, davlat va jamoat arbobi, mutafakkir alloma Alisher Navoiy (1441-1501) nomi bilan atalgan.

NAVRO'Z qishloq. O'zbek xalqining quyosh yili hisobida yangi yilning birinchi kuni (21 mart)da o'tkaziladigan navro'z [f-t] yangi kun bayrami sharafiga atalgan.

NAVXAS Buxoro t. qishloq. q. Navxos.

NAVXOS Xonqa t. qishloq. Eroniy nav (yangi), xos/xas/qas (buloq, kanal) – yangi kanal (bo'yidagi qishloq). Qiyos. Tangqas.

NAYISTON Muborak t. qishloq. Nayiston [f-t] – qamish o'sgan joy.

NAYMAN qishloq. Turkiy, mo'g'ul xalqlarining tarkibidagi nayman qabilasi vakillarining qishlog'i.

NAYMANKO'L Xo'jayli t. ovul. Ko'l bo'yidagi nayman qabilasi ajdodlari tashkil qilgan ovul.

NAYMANYAP Beruniy t. ovul. Nayman urug'ining anhuri bo'yidagi ovul.

NAYMANCHA qishloq. Kichik Nayman qishlog'i. Yonidagi Nayman degan katta qishloq bilan qiyoslanib nomlangan. q. Nayman.

NAYNOVA Shahrixon t. qishloq. Nay nova [f-t] – naysimon uzun yo'lakdan oqadigan jilg'a bo'yidagi qishloq.

NEKO'Z Koson t. qishloq. Mang'itlarning nekuz/neko'z/nekus/neko's/nukus urug'ining qishlog'i. Mo'g'ul xalqining ham nuguz/no'guz urug'i bo'lgan. Tang'a shakli nekuz/neko'z shaklida bo'lgan.

NELU Sariosiyo t. qishloq. Nil/nel/nilu/nili [f-t] tiniq suv, daryo bo'yidagi qishloq.

NISHON Qashqadaryo v. shahar, tuman. Nishon – atay qo'yilgan yoki tabiiy belgi, narsa izi. XX asrning 30-yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirishda namuna sifatida qo'yilgan rasmiy nom.

NOQI Shabrisabz t. qishloq. Navkat>Novqat q. nomining o'zgartirib, yangi qo'rg'on.

NORIN Namangan v. daryo, tuman. Tor, tang o'zanli, tez oqar suvli daryo. Mo'g'ulcha, turkiy **norin** – tor, tang. Daryo nomi tuman nomiga o'tgan.

NORINKAPA Norin t. qishloq. Norin daryosi bo'yidagi kapa yonida bunyod bo'lgan qishloq.

NOVABOSHI Shofirkon t. qishloq. **Nov/nova** [f-t] – ariq, ya'ni ariq boshi

NOVABULOQ Dehqonobod t. qishloq. Suv tarnov singari yog'och yo metaldan qilingan **nov/novadan** oqadigan buloq atrofidagi qishloq.

NOVBUR Boysun t. qishloq. **Navbur/navpur/novibur** [f-t] - ko'p suvli ariq, katta ariq bo'yidagi qishloq.

NOVKAT Quva t. qishloq. q. Novqat.

NOVKENT Farg'ona t. qishloq. Q. Navkat.

NOVOBOD Sariosiyo t. qishloq. **Nav obod** [f-t] yangi qishloq.

NOVQA Baxmal t. qishloq. q. Novqat.

NOVQAT qishloq. So'g'dcha **nav kat** yangi qo'rg'on, yangi qishloq.

NOVXOS Yangiariq t. qishloq. q. Navxos.

NOVSHAHAR Angor t. qishloq. **Nov shahar** [f-t] yangi shahar.

NURALI Kitob t. qishloq. Qadimgi turkiy va mo'g'ul tilida **nura/nuraa** – tog', tog' tizmasi, tosh uyumi, tosh uyumi yonidagi qishloq.

NUKUS shahar. Qoraqalpoq xalqi tarkibidagi **nukus/no'kus** qabilasi jamoasining shahri.

NUROTA Navoiy v. tuman, tog'. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tillarida **nuru** – tizma, tog' tizmasi, cho'qqi, tog' cho'qqisi; **ota** – balandlik. baland tog', yuksak cho'qqi.

NURQAY Dehqonobod t. tog'. Turkiy, mo'g'ul tilida **nur/nura/nuru/nuruu** (tog' tizmasi, tosh to'dasi; tog'dan o'pirilib tushgan toshlar to'dasi) **gay** (-li) – yirik toshli joy, tog'.

NURSUQ O'zbekiston t. qishloq. Turkiy **nur/nura** (tog') **sug'** so'q (o'zan, soy) - tog' daryosi bo'yidagi qishloq.

NO'G'AY Jarqo'rg'on, Yakkabog' t. qishloq. Turkiy **no'g'ay/nug'oy** qabilasi jamoasining qishlog'i. Qabilasining tug'ida **nug'ay** (mo'g'ulcha **no'xo'y/nug'uy** – it) tasviri bo'lgan, ularning totemi bo'lgan.

NO'KISOVUL Amudaryo, Chimboy t. ovul. Qoraqalpoqlarning **no'kis** urug'i jamoasiga mansub ovul.

NO'SHKENT Shabrisabz, Baxmal t. qishloq. So'g'dcha **nuz/nuzh/nav** (yangi) **kent** (qo'rg'on) – yangi qo'rg'on, yangi qishloq.

OBDIDA Koson t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda *obduzd/obduz* (yer ostidagi yashirin suv manbasi, yerquduq) *deh* (qishloq) – yer osti qudug'i, yopiq suv yo'li bo'lgan qishloq.

OBDON Piskent t. qishloq. *Ob -don* [f-t] – suv to'planadigan joy (ko'l, suvombori).

OBIGARM Kitob t. qishloq. Yer tagidan qaynab chiqadigan suv atrofidagi qishloq. *Ob i garm* [f-t] – iliq suv, issiq suv.

OBINARGAZ Sariosiyo t. qishloq. *Ob i nard/nart* (band), *gazl kaz/kas/xas* (buloq, ariq) [f-t] – bandli ariq bo'yidagi qishloq.

OBIQASHQA Bo'stonliq t. jilg'a. Aynan Qashqasoy.

OBIRAVON Qamashi t. qishloq. *Ob i ravon* [f-t] doimo bir maromda oqadigan suv (jilg'a) bo'yidagi qishloq.

OBISIYO Toshloq t. qishloq. *Ob i siyoh* [f-t] – qora suv, yer osti suvlaridan hosil bo'lgan jilg'a bo'yidagi qishloq

OBIYAX Oqdaryoning irmog'i. *Ob i yax* [f-t] – muz suvlaridan hosil bo'lgan jilg'a.

OBIZARANG Surxondaryoning o'ng irmog'i. *Ob* (suv, daryo) *i zarog'an* [f-t] (qattiq qumli yer) qattiq toshloq yerdan oquvchi daryo.

OBICHASHMA Kitob t. jilg'a. *Ob i chashma* [f-t] – buloq suvlaridan hosil bo'lgan irmoq.

OBKASH Qamashi t. qishloq. Mesh, sanoch, tulum, ko'za, chelak kabi idishlarda suv tashuvchi kishi va shunday idishlarni yasovchilar ovuli [f-t] – *obkash*.

OBLIQ Bo'stonliq t. qishloq. *Ob* [f-t] suv ko'p chiqqan, buloqlari ko'p joydagi qishloq.

OBODON Sho'rchi, Denov t. qishloq. *Obdon* [f-t] so'zining o'zgargani: ko'l, to'plangan suv, hovuz (qishloq).

OBOT Dehqonobod t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan *obot/ovot/avat* urug'i jamoasining qishlog'i.

OBSHIR Oltinsoy t. qishloq. *Obshor* [f-t] sharshara yonidagi qishloq.

ODAMTOSH Dehqonobod, Parkent t. qoya. Odam shaklidagi ko'rinishga ega bo'lgan toshli balandlik.

OFTOBRO'Y Kitob t. qishloq. *Oftob ro'y* [f-t] qirning quyosh nuri tushadigan yonbosh tomoni, kungaydagi (qishloq).

OHAKCHI Narpay t. qishloq. Toshni xumdonga pishirib ohak [f-t] tayyorlovchi hunar sohiblarining qishlog'i.

OHANGARON Toshkent v. tuman. *Ohan* (temir) -*gar -on* [f-t] – temirchilar, temirga ishlov beruvchilar va temirdan asbob, jihoz va boshqa narsa yasovchilar.

OLAQARG'A Yakkabog' t. qishloq. Ola (ulug', yuksak, baland) qarg'uy (qadimgi turkiy tilda qorovul turadigan baland joy; tog' cho'qqisida yoki baland yerlarda minoraga o'xshatib yasab qo'yilgan moslama, mo'la) – baland cho'qqi, yuksak balandlik.

OLATOG' Toshkent v. tog'. Ulug' tog'. Tog' kulti asosida nomlangan.

OLISH Farg'ona v. qishloq. Anhor, ariqning suvini bir necha ariq (quloqlarga) bo'ladigan, bo'lish uchun to'siq qilingan joy yonidagi qishloq.

OLISHBOSHI Buvayda t. qishloq. Suv bir necha ariqlarga bo'linadigan bandning yuqorisida joylashgan qishloq.

OLMALIQ Toshkent v. shahar. Olma daraxti ko'p o'sgan joydagi shahar.

OLMAZOR qishloq. Olma daraxti ko'p o'sgan joy.

OLMOS Chust t. qishloq. q. O'lmas.

OLOT Buxoro v. tuman. Turkiy arlot qabilasi jamoasining qishlog'i.

OLOY Farg'ona vodiysida tog'. Ulug' tog', ulkan tog'.

OLTIARIQ Farg'ona v. shaharcha. Anhorning oltita ariqqa tarmoqlanadigan joyi (band, to'g'on) yonidagi qishloq.

OLTIO'G'IL Narpay t. qishloq. O'zbek qipchoqlarining oltio'g'il urug'i jamoasining qishlog'i.

OLCHIN qishloq. Turkiy olchin qabila. urug' jamoasining qishlog'i. Olchin/alshin (ala - ko'p, ulug', buyuk, katta; chin/shin/sin – odam, kishi; xalq, qabila) qabilasi aholisining miqdoriga ko'ra nomlangan.

OLCHINOBOD Xatirchi t. qishloq. Olchin q. ismli kishi bunyod qilgan ovul.

OMBORJAR Chiroqchi t. qishloq. Suv (daryo) yuvib o'yi (jar) hosil qilgan joydagi qishloq.

OMBORTEPA Muborak t. tepa. Suv (daryo) yuvib jar hosil qilgan joydagi do'nglik.

OMONXONA Boysun t. qishloq. Omon (sog'-salomat) xona (ovul, qishloq) [a+f-t]. Omon ismli kishi tashkil qilgan ovul.

OQARBULOQ Denov, Oltinsoy t. qishloq. Doimo oqib turadigan suvining miqdori ko'p bo'lgan buloq yonidagi qishloq.

OQBOSH Qashqadaryo v. tog'. Yilning ko'p fasllarida qor bilan qoplanib turadigan, oq bo'lib ko'rinadigan yuksak tog'.

OQBEL Farg'ona v. tog', Toshkent v. dovon. Balandlik ko'lami katta bo'lgan, yuksak dovon.

OQBO'YRA Oqdaryo, Asaka t. qishloq. O'zbek xalqining qipchoq qavmlari tarkibidagi oqbo'yra/oqbug'ra urug'i vakillarining qishlog'i. Totem vazifasini bug'ra/oqbug'ra (tuya turi) bajargan.

OQDAHNA Qamashi, Dehqonobod t. qishloq. Tog' bag'ridan boshlanib qor suvlari erib oqadigan jilg'a bo'yidagi qishloq. **Dabna** [f-t] – tor dara, daraning tang joyi.

OQDARYO daryo, Samarqand v. tuman. Tog' qorlari, muzliklari, suvlari bilan to'yinadigan, yozda suvi ko'payadigan bo'tana suvi o'zani, shu daryo bo'yidagi tuman.

OQJANGAL Koson t. qishloq. Oq tepa, baland tepa. **Jangal/changal** [f-t] – poya va shoxlari bir-biriga chatishib o'sadigan, oqish tanali, mayda gulli, tikanli buta. Turkiy tillarda **chungul/cho'ngo'l** – tog' usti, balandlik, do'nglik. Ana shu so'z va ma'no nomga asos bo'lgan. q. Oqtepa.

OQKO'L Qoraqalpog'istonda ko'l. Suvi oqib chiqadigan ko'l; ko'p suvli katta ko'l.

OQMANOVUL Pastdarg'om t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan oqman urug'i jamoasining qishlog'i.

OQMANG'IT Pastdarg'om, G'uzor, Kegeyli, Qarshi t. qishloq. **Mang'it** qabilasining oqman'it bo'limi jamoasining qishlog'i. q. Mang'it.

OQMACHIT qishloq. XV-XIX asrlarda davlat mablag'i bilan qurilgan, boshqalardan katta, hashamatli machit oqmachit deb atalgan.

OQMO'YIN G'uzor t. qishloq. Mang'it qabilasidagi oqmo'yin/oqbo'yin urug'i jamoasining qishlog'i. Zidi Qoramo'yin.

OQOLTIN qishloq. Paxta yetishtiradigan kishilar, paxtakorlar makoni.

OQPAYKAL G'uzor t. qishloq. Bir necha yil ekin ekilmay qolishi natijasida bo'z yerga aylangan maydondagi qishloq.

OQQAMISH Kasbi t. qishloq. Qalin, bo'liq, uzun bo'lib o'sgan oqish rangli qamish (oq qamish) o'sgan joy atrofidagi qishloq.

OQQAPCHIG'AY Dehqonobod, Oltinsoy t. qishloq. Turkiy, mo'g'ul tillarida **qapchig'ay/qapchag'ay** – qoya, cho'qqi, balandlik; dara, tog' tizmalari yo qirlar orasidagi chuqur soylik, suv oqadigan tangi. Yer yuza shakllari nomida oq – baland, yuksak. Tog'ning qorli cho'qqilari bilan tutashgan tizmasi oralig'idagi soylik va shunday joydagi aholi maskani.

OQQISHLOQ Dehqonobod, Qamashi t. qishloq. Tog' bag'ridagi va daryo bo'yidagi qishloq.

OQQUDUQ Koson, Tomdi t. qishloq. Suvi og'zidan yer yuzasiga oqib chiqadigan quduq atrofidagi qishloq.

OQQUM Navoiy v. cho'l. Qumtepalari baland va ko'p bo'lgan dasht.

OQQO'L Dehqonobod, Qamashi t. qishloq. Yer yuza shakllari majmuida qo'l – tog'dan quyi tomon ajralib chiqqan tizma, cho'ziq

qiya balandlik. Suv havzalari majmuida qo'l – kichik jilg'a, tog' bag'ridan oqadigan suv o'zani. Har ikki ma'no ham nomga daxldor.

OQQO'RG'ON Sherobod, Sho'rchi, Jarqo'rg'on t., Toshkent v. qishloq, tuman. Poydevori oqtoshdan, ba'zan yassi qadimiy, xumdonda pishgan g'ishtdan. devori g'isht yo'loydan qilingan, katta, hashamatli qo'rg'on va uning yonidagi qishloq. Qishloq nomidan tumanga nom berilgan. Zidi Qoraqo'rg'on.

OQSOY jilg'a, qishloq. Ikki tomoni cho'ziq yassi balandlik o'rtasidagi soylikdan oqadigan, suvi qurimaydigan, tog' boshidan boshlanadigan kichik suv o'zani va shu soylikda bunyod bo'lgan qishloq.

OQSUV daryo, qishloq. Tog' qorlari suvlaridan hosil bo'lgan, yozda ko'payadigan oqar suv (daryo, jilg'a) va shu suv bo'yida tashkil bo'lgan qishloq.

OQTO'NNI Chiroqchi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan oqto'nni (<oq to'nli<oq tug'li) urug'i jamoasining qishlog'i. Oqto'nni - oqtug'li nomining o'zgartirani, ma'nosi oq rangli, hajmi katta tug'.

OQTOG' Samarqand v. tog'. Oppoq qori uzoq vaqt saqlanib turadigan yuksak cho'qqili tog'.

OQTOSH balandlik, qishloq, shaharcha. Kvars va tarkibida qimmatbaho tog' rudalari bo'lgan oq rangdagi toshli balandlik va uning yonidagi qishloq.

OQTOSHOBOD Muzrabot t. qishloq. Dehqonobod tumanining Oqtosh q. qishlog'idan ko'chib kelganlarning qishlog'i.

OQTOV Narpay t. tog'. q. Oqtog'.

OQTUMOR Oltinko'l t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi tumor/ tumorchi urug'ining tarmog'i – oqtumor. q. Tumor.

OQTEPA qishloq. Balandlik joyda qurilgan qadimiy qo'rg'on o'rni; balandlik ko'lami yonidagi boshqa tepaliklardan kattaroq va yuksakroq bo'lgan balandlik; ana shunday balandlik tevaragidagi qishloq.

OQYOR Rishton t. qishloq. Oq tuproqli jar/yor/yar atrofidagi qishloq.

OQSHIX Jondor t. qishloq. O'zbek xalqining shix qabilasi tarkibidagi oqshix urug'i qishlog'i.

OQSHOQ Toshloq t. qishloq. Shoq/shox — katta ariqdan chiqarilgan kichik ariq, doimo suv oqib turadigan ariq – oqshox/ oqshoq.

OQSHOX Toshloq t. qishloq. q. Oqshix.

OROL Qoraqalpog'istonda dengiz. Suv o'rtasidagi quruqlik – orol → **OROL**.

OQCHA Ohangaron t. tog'. Tog' bag'ridagi tik zov, o'yiqlik jar – oqcha.

OQCHADARYO Amudaryo o'zani. Jarlik yonidan oqadigan suv yo'li.

OQCHAVA Chiroqchi t. qishloq. Yer yuzasidagi jarlik, tik o'yiqlik – oqcha. O'ba/uba ovul, qishloq. Oqcha/aqcha uba — jarlik yonidagi qishloq.

OQCHELAK Poyariq t. qishloq. O'zbeklarning chelak urug'i tarmog'i – oqchelak.

OQCHOP Qo'qon sh. yonida qishloq. Oq – yuksak, baland. Chop tepalari ko'p joy. Baland tepa yonidagi qishloq.

OSMONTAROSH Qashqadaryo v. tog'. Taroshlab yo'nilgan goya singari yuksak cho'qqisi bo'lgan tog'.

OSMONTOSH Surxondaryo v. tog'. Tiklik ko'lami baland bo'lib, boshqa qoyalardan ajralib turgan cho'qqili tog'.

OTAUBA To'rtko'l t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda ota/ata (balandlik, do'nglik) o'ba/uba (qishloq) balandlikdagi qishloq.

OTCHOPAR Mahalla. Ot o'yinlari, poygalari, musobaqalar o'tkazishga mo'ljallangan joy va shunday joy atrofidagi aholi maskani.

OTQAMAR Denov, Dehqonobod t. qishloq. Tevaragi tik balandlik bo'lib, bir qismida tor yo'lakli joy yonidagi qishloq.

OTQUDUQ qishloq. Suvi yer ostining past qatlamida bo'lganligi uchun ot bilan tortib olinadigan quduq tevaragidagi qishloq.

OVCHI Xatirchi, Oltinsoy, O'zbekiston t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi ovchi urug'i jamoasining yashash maskani.

OVGA Boysun t. tog'. q. Ovg'a.

OVUL qishloq. Chorvadorlarning bahor va yozda turar joyi; qora uylar tikilgan manzil; kichik qishloq – ovul.

OVG'A Kitob t. tog'. Ag'ba [f-t] dovon, oshib o'tish uchun yo'l bo'lgan tog'.

OVSHAR Bog'ot, Hazorasp t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan avshar/ovshar qabilasi jamoasining qishlog'i.

OYDINBULOQ O'zbekiston t. buloq. Chuqur, zangori, ko'p suvli buloq.

OYDINKO'L Buvayda t. ko'l. Chuqur va tiniq zangori suvli ko'l.

OYDINOBOD Nishon t. qishloq. Oydin nomli massivda tashkil bo'lgan qishloq. O'y (chuqur) do'ng (kichik balandlik) o'ydung → o'yding → oydin → Oydin.

OYIM Qo'rg'ontepa t. qishloq. Qipchoqlarning og'im/o'g'im/o'g'in urug'i jamoasi bunyod etgan qishloq.

OYIMCHA Farg'ona t. qishloq. Kichik Oyim qishlog'i. q. Oyim.

OYINNI Sherobod, Termiz t. qishloq. Qashqa-Surxon vohasi qo'ng'irotlarining to'rtinchi bo'limi oyinnilarning qishlog'i. Oyinni→oyinli→oyli (yarim oyga o'xshash, o'roq shaklidagi) tamg'ali urug' jamoasi tamg'aning shakli asosida nomlangan.

OYNATOSH Toshkent v. tog'. Quyosh nuri tushganda yaltirab turadigan toshi bo'lgan qoya.

OYOQBOG' Urganch t. qishloq. Quyi tomondagi bog'. Oyoq - quyi, etak.

OYOQDO'RMAN Urganch t. qishloq. Quyi Do'rman q. qishlog'i.

OYOQQISHLOQ Qo'shko'pir t. qishloq. Quyi tomondagi qishloq.

OYOQQUDUQ Tomdi t. qishloq. Oyoq/adoq - etak tomondagi quduq yonida bunyod bo'lgan qishloq.

OYOQCHI Amudaryo t. ovul. q. Ayoqchi.

OYQOR Jizzax v. tog'. So'g'dcha oy g'ar - baland tog', katta tog'.

OYTAMG'ALI Poyariq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan oytamg'all (tamg'asi oy shaklida bo'lgan) urug'ining qishlog'i.

OG'ZIKENG Koson, Qumqo'rg'on t. qishloq. Tashlandiq holda bo'lgan uchun og'zi nurab qolgan, ichida suvi bo'lgan quduq yonidagi qishloq.

P

PAKANDI Koson, Chiroqchi t. qishloq. Eroniy tilda poy/pay (quyi, adoq) kan/kom (ariq, anhor) di/diz (qo'rg'on) quyi ariq bo'yidagi qo'rg'on.

PANGAT Oltinsoy t. qishloq. Eroniy tilda pan/par/bar (yuqori, baland) kat (qo'rg'on) — yuqori qo'rg'on yonidagi qishloq.

PANJI Kitob t. qishloq. Pan/par (yuqori, baland) ji/jo [f-t] (joy, yer) yuqori joydagi qishloq.

PANJOB Boysun t. qishloq. Panj ob [f-t] besh jilg'a (suv). Parj/barj/panj/banj (yuqori, yuqoridagi) ob (suv) yuqoridagi daryo (jilg'a) bo'yidagi qishloq.

PARKENT Toshkent v. qishloq, tuman. Yuqori qishloq.

PARMETAN Qarshi t. qishloq. Eroniy tillarda par/bar (yuqori) metan/mitan (qo'rg'on, qishloq) yuqoridagi qishloq. Aynan Yuqoriqishloq. Zidi Quyiqishloq.

PARG'UZA Qarshi t. qishloq. So'g'dcha par (yuqori) g'ar (tog') diza (qo'rg'on) baland tog'dagi qo'rg'on.

PARCHAKENT Kitob t. qishloq. So'g'd tilida **parcha** (orqa, orqa tomon) **kent** (qishloq, shahar) orqa tomondagi qishloq, shimoliy qo'rg'on.

PARCHAQORA Pstdarg'om, Qarshi t. qishloq. **Parcha** (bo'lak, ajralgan) **qoramang'it** (mang'it qabilasining bo'limi)larning qishlog'i. Tejamlilik tamoyiliga ko'ra, **mang'it** so'zi tushib qolgan: **parcha qoramang'it** – Parchaqora.

PARCHAYUZ Zomin t. qishloq. O'zbek xalqi yuz qabilasining ayrim urug' va tarmoqlaridan tashkil topgan **parchayuz** urug'ining qishlog'i.

PASTDARG'OM Samarqand v. tuman. **Past** (quyi, adoq) **i Darg'om** (q) anhorining quyisi.

PAXTAKOR qishloq, tuman. **Paxta** -kor [f-t] paxta hosili yetishtiruvchi dehqonlarning yashash maskani.

PAXTAOROL qishloq. Sherobod. Mirzacho'l, Yozyovon kabi cho'llarning o'zlashtirilishi munosabati bilan qo'yilgan rasmiy nom: **paxtakorlarning qishlog'i**.

PAXTACHI qishloq, tuman. Paxtachilik bilan shug'ullanadigan dehqonlarning qishlog'i, tuman nomiga qishloq nomi asos bo'lgan. Aynan **Paxtakor**.

PAYNOB Paxtaobod t. qishloq. **Poin/poyon i ob** suv (ariq, jilg'a) ning quyisidagi qishloq.

PAYSHANBA Kattaqo'rg'on t. qishloq. **Panj** (besh) **shanba** [f-t] (kun) haftaning beshinchi (hozir to'rtinchi) kuni bozor bo'lgan joydagi qishloq.

PACHKAMAR G'uzor t. qishloq, suvombori. **Panj** (besh; ko'p) **kamar** [f-t] — ko'p kamarli joydagi qishloq.

PESHAG'AR Jizzax t. qishloq. So'g'dcha **pehsh i g'ar** tog' oldi, tog' bag'ridagi (qishloq).

PESHKO' Buxoro v. tuman. **Pesh** (old, yuqori, baland) **ko'y** (ko'cha, guzar, qishloq) yoki **ko'h** [f-t] yuqori qishloq yoki baland tog' bag'ridagi qishloq.

PIRNAXOS Xiva t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **pir** (qadimgi, ko'hna) nav (yangi) **xos** (ariq) qadimgi **Navxos** (yangi ariq) qishlog'i.

PISKOM Toshkent v. daryo. Qadimgi eroniy tilda **pis/pish/pehsh** (quyi) **kom** daryo: quyi daryo.

PISTAKENT Qarshi t. qishloq. **Pista** daraxti o'sgan joydagi qishloq.

PISTALI Koson t. qishloq. **Pista** daraxti ko'p o'sgan joydagi ovul.

PIYOZAK Toshkent v. cho'qqi. **Tog' piyozi** ko'p o'sadigan qoya [f-t] (**piyoz -ak**).

POJUR Denov t. qishloq. Eroniy **po i jur/jir** tog' etagidagi qishloq.

POLMON Shahrizabz t. qishloq. **Par** (yuqori, baland) mayn (qishloq) birikmasining soddalashgan, o'zgargan shakli: yuqori qishloq.

POLOSON Oltiariq, Asaka, Andijon t. qishloq. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tilida **balgasun/balg'asun** qishloq, shahar. O'zgargani – **Poloson**.

POLVONTOSH Andijon v. qishloq. Hajmi juda katta tosh yonidagi aholi maskani.

POMUQ Muborak t. qishloq. Turkman xalqining **pomuq** urug'-qabilasi jamoasining qishlog'i. Eroniy **po i marg'** o'tloqning adog'i (quyisi) izohi ham bor.

PONOB Buxoro t. qishloq. **Poyon/poin i ob** suv (ariq, anhor) quyisidagi qishloq.

PONSOT Marhamat t. qishloq. **Panj sad** (besh yuz) > **ponsot** [f-t] besh yuz kishilik qo'shin boshlig'i bo'lgan kishi tashkil qilgan qishloq.

POP Namangan v. tuman. Qadimgi eroniy tilda **pop** – darvoza. Daraning quyisi, tog'ga kiriladigan yo'l.

PORSONKO'L Buxoro v. kanal. **Par sang** [f-t] baland tog' yonidagi ko'l.

POZAGARI G'ijduvon t. qishloq. **Pozagar** (omoch tishi quyuvchi usta) i (-lik qo'sh.) [f-t] omoch tishi quyuvchi ustalarning qishlog'i.

POSHXURT Sherobod t. qishloq. Qadimgi eroniy **pehsh/pish/ besh/bish** (quyi, adoq), **kirt/girt/kird/gird** (qo'rg'on) quyi qo'rg'on.

POYARIQ Samarqand v. ariq, tuman. Qadimgi turkiy tilda **boy/bay/poy/pay/moy/umay** ariq — bosh ariq, ulkan anhor. Ariq nomi tuman nomiga o'tgan. Qadimiy shakli – **Boyariq/Moyariq**.

PURSANG Yangiariq t. qishloq. **Pur** (ko'p, katta, baland) **sang** [f-t] ulkan tosh quyisidagi qishloq.

PO'LATI Koson t. qishloq. Arabcha **balad** (shahar) -i (-lik) – **baladi** (shaharlik) so'zining o'zgargani – **Po'lati**. Shahardan yoki shahar singari yirik kentdan ko'chib kelganlar qishlog'i.

PO'LATCHI Paxtachi t. qishloq. Shaharlik, shahardan ko'chib kelgan kishilar qishlog'i. q. **Po'lati**.

Q

QAHAT Shofirkon, Qamashi t. qishloq. Mang'itlarning qahat urug'i vakillari bunyod qilgan qishloq.

QAHRAMON Termiz, Sherobod, Sariosiyo, Jarqo'rg'on t. qishloq. q. **Qaraman**.

QALANDARXONA Beruniy t. ovul. Darveshlar tunab ketadigan xonaqoh yonidagi ovul.

QALAYIMIRISHKOR Romitan t. qishloq. Qal'a yi mirishkor [a+f-t] mirishkor qabilasining qal'asi.

QALMOQON Shofirkon t. qishloq. Qalmoqlarning qishlog'i.

QAMAY Qamashi t. qishloq. Qadimgi turkiy qabay/qamay qabilasi jamoasining qishlog'i. Qabay/qamay – lochinsimon ulkan ov qushi, totem. Humoy so'zining turkiy shakli – qabay/qamay.

QAMASHI Qashqadaryo v. tuman, Kasbi t. qishloq. Qadimgi turkiy qamaychi qabilasining qishlog'i. q. Qamay.

QAMCHIQ tog'. Qar (so'g'dcha) so'zining o'zgargani qam. Shix/shax [f-t] tog'. Katta tog'.

QANGLI G'allaorol, Zomin, Xatirchi, Jomboy, Kegeyli, Chimboy, Qo'ng'iro't t. ovul, qishloq. O'zbek, qoraqalpoq xalqi tarkibidagi qadimgi turkiy qangli qabilasi ajdodlarining ovuli, qishlog'i.

QANGNI Kitob t. qishloq. q. Qangli.

QANJIG'ALI Kitob, Jarqo'rg'on t. qishloq. Qo'ng'iro't, qipchoqsaroy, qiyat va boshqa qabilalarning qanjig'ali urug'i jamoasi bunyod qilgan qishloq. Qanjig'a (egarning oldidagi to'qmorli qism): qan (xon, hukmdor) jig'a (bayroq, tug'; bosh kiyimga taqiladigan ziynatli bezak) – tamg'a shakli.

QANOTLI Koson t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan qanotli urug'i jamoasining ovuli. Qanot (koriz, yer osti suv yo'li) II – yer osti suv quvuri bo'lgan joydagi qishloq.

QAPCHIG'AY Boysun t. qishloq. Turkiy, mo'g'ulcha qapchig'ay/xabsag'ay – ikki tomoni tik tizma tog' bo'lib, uzunasiga cho'ziq soylikda suv oqadigan o'zani bo'lgan dara.

QAQIR qishloq. Qadimgi turkiy tilda qaqir - sug'orilmasligi natijasida qaqrab yotgan yer. Ana shunday joyda paydo bo'lgan qishloq.

QARAMAN Urganch t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qaraman urug'ining qishlog'i. Qora - ko'p; katta, mann/mon – odam, kichik jamoa, qiyos: Oqman, Nayman, Do'rman.

QARAYLI G'uzor t. qishloq. Qoraayri/qorayli - o'rkachsimon o'yiqli joylari bo'lgan balandlik.

QARLUQ Oltinsoy, Kasbi t. qishloq. Turkiy xalqlarning qarluq tarmog'i, o'zbek xalqining asosiy qismini tashkil qilgan tarmoq nomi bilan atalgan qishloq.

QARNOB Paxtachi t. qishloq. So'g'dcha g'ar (tog') -on/-in/-un (-li mavjudlik qo'sh.) ob (suv, daryo) tog' daryosi, tog'dan boshlanib oquvchi suv.

QARG'ALI Narpay, Sariosiyo t. qishloq. Qo'ng'irotlarning qanjig'ali bo'limiga mansub **qarg'alli** urug'i vakillarining qishlog'i. **Qarg'a** – totem.

QARG'AYOQ Chiroqchi t. qishloq. Qipchoqlarning **qarg'ayoq** (tamg'asi **qarg'a** oyoq-**qarg'a** panjasi shaklida) urug'i jamoasining qishlog'i.

QARSHI Qashqadaryo v. shahar. Qadimgi turkiy tilda qarshi – shoh qasri, ark. Mo'g'ul hukmdori Kebekxon (1318-1326) qurdirgan shoh qasri yonida qurilgan shahar.

QAYIRMA Andijon t. qishloq. Turkiy, mo'g'ulcha **qaylr/qayr/xayr/qayran/qayrang** – daryo qirg'og'idagi suv oqmaydigan, usti mayda qum bilan qoplangan, suv toshqinida suv oqadigan o'zan, mayda qum, mayda qumli joy. **Qayirma** – daryo o'zani yo qirg'og'i bo'ylab qazilgan ariq va shunday ariq bo'yidagi qishloq.

QAYNARBULOQ Kitob t. qishloq. Yer ostidan toshib, qaynab chiqadigan suvli buloq yonidagi qishloq.

QAYQI Uchqo'rg'on, Yakkabog' t. qishloq. Qo'ng'irotlarning oyinni bo'limidagi beshbola urug'ining bir tarmog'i - **qayqi/qayg'i**. Tamg'asining uch qismi egik, qayrilm bo'lgan.

QAYRAG'OCH Quva, Yakkabog' t. qishloq. Katta qayrag'och daraxti o'sgan joydagi qishloq.

QAYROQQUM Toshkent v. suvombori. Qayroqsimon silliq toshlari ko'p bo'lgan joydagi suv havzasi.

QAYCHILI Kitob t. qishloq. Qo'ng'irot, kenagaslarning **qaychili** (tamg'asi qaychiga o'xshash) urug'i jamoasining qishlog'i.

QASHQADARYO daryo, viloyat. Qadimgi turkiy **qoshqi/qoshqa/qashqa** (tog', tog'liq) daryo [f-t] tog' daryosi, tog'dan boshlangan daryo. Daryo nomi viloyat nomiga o'tgan.

QASHQASOY Ohangaron t. jilg'a. Tog' ichidagi chuqur soylikdan oqadigan zilol tiniq suv.

QIBRAY shaharcha. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan dug'lat qabilasi **qibiray** urug'i vakillarining qishlog'i.

QILICHBOG' Boysun t. qishloq. **Qilich** ismli kishi bunyod etgan bog' atrofidagi qishloq. **Qilich** urug'ining bog'i yonidagi ovul.

QIPCHOQ Qarshi, Koson t. qishloq. Turkiy xalqlarning eng yirik tarmog'i **qipchoqlarning** qishlog'i.

QIPCHOQDARYO Amudaryo tarmog'i. Qipchoqlarning yeridan oqqan daryo.

QIPCHOQRABOT Kattaqo'rg'on t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi **qipchoqlarning** raboti yonidagi qishloq. q. Rabot.

QIRGULI Farg'ona v. shaharcha. O'zbek xalqining **qirg'ill** urug'i jamoasining qishlog'i. Urug' tamg'asi **qirg'i** (taroq) shaklida bo'lgan.

QIRQ Bulung'ur t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan qirq urug'ining qishlog'i.

QIRQOYOQ Chiroqchi t. qishloq. Qipchoqlarning qirqoyoq (hashorot, totem) urug'i jamoasi tashkil etgan ovul.

QIRQQIZ To'rtko'l t. ovul, Termiz sh. xaroba, tog'li tumanlarda tog'. Qo'rg'on burjlari, saroy vayronasidan paydo bo'lgan kichik minorasimon ko'p balandlikdan iborat xaroba yonidagi ovul; qoyasimon balandliklari ko'p bo'lgan tog'.

QIRG'IZ Chiroqchi, Sariosiyo t. qishloq. Saroylarning qirg'izsaroy bo'limi jamoasining qishlog'i.

QIRG'IZOVUL Piskent, Qamashi t. qishloq. q. Qirg'iz.

QIRQCHEK Mingbuloq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qirq urug'i (shu urug'ga mansub kishi)ga ajratib berilgan yerdagi qishloq.

QIYOQI Shahrisabz t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qiyaqi/qiyoqi urug'i jamoasining qishlog'i.

QIYOT Bekobod t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qiyot qabilasi jamoasining qishlog'i.

QIYG'OCHLI Sherobod, Qumqo'rg'on t. qishloq. Qo'ng'irotlarning voxtang'ali bo'limiga qarashli qiyg'ochli urug'ining ovuli. Qiyg'och - qaldirg'ochning bir turi, totem.

QIZILNURA Toshkent v. tog'. Qizil tuproqli yer mavjud bo'lgan tog'.

QIZILQUM cho'l. Rangi qizg'ish qumli, ko'chmas, butali yo boshqa tur o'simliklar o'sadigan sahro.

QIZILSOY Sangardak d. irmog'i. Qizil tuproqli suv (jilg'a).

QIZILSUV Qashqadaryoning chap, Chirchiq d. irmog'i. Suvi tarkibida qizil tuproq unsurlari bo'lgan daryo.

QIZILTEPA Navoiy v. tuman. qishloq. Qizil rangli, qizg'ish tuproq (qum) li tepalik yonidagi qishloq.

QIZILCHA tog'li t. qishloq. Qizil tuproqli tepalik yonidagi qishloq.

QIZIRIQ Surxondaryo v. tuman. Qizil tuproqli yerdan oqqan ariq: qizil ariq→qizariq→Qiziriq.

QIZKETGAN Amudaryo quyi oqimidagi joy. Qadimiy shakli o'kuz(daryo) ketgan daryo yuvib ketgan, o'zani o'zgargan joy.

QIZMOZOR G'uzor t. balandlik. Baland burjli xonaqohi bo'lgan qabriston atrofidagi joy.

QIZQO'RG'ON Nurota t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda quz (balandlik, tepalik). Balandlikdagi qo'rg'on; minorasimon burjli qal'a.

QISHLIQ Kitob, Yakkabog', Shahrisabz, Qamashi t. qishloq. Qipchoq va kenagaslarning qishliq urug'i jamoasining qishlog'i.

QOLGANDARYO Norin t. ko'l. Qoradaryoning eski o'zani o'rnida hosil bo'lgan suv havzasi.

QORAARIQ Oltinsoy t. qishloq. Buloq, sizot, yer osti suvlari oqadigan ariq bo'yidagi qishloq.

QORABALIQ Ohangaron t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda qora baliq/balq/balx/balg' (qo'rg'on, qal'a, istehkom) kichik, hashamatsiz, oddiy qo'rg'on yonidagi qishloq.

QORABAYIR Koson, Shahrizabz t. qishloq. Tiklik ko'lami past va kichik tepa. Qadimgi turkiy tilda bayir/boyir – kichik tepa, hajmi katta bo'lmagan balandlik.

QORABAYLI Kegeyli t. ovul. Qoraqalpoq, o'zbeklarning qoraboyli urug'i jamoasining ovuli.

QORABAG'ANALI Forish, Nurota t. qishloq. Bag'anali urug'ining qorabag'anali tarmog'i jamoasiga mansub qishloq. q. Bag'anali.

QORABAG'ISH qishloq. Bag'ish q. qabilasining bir tarmog'i – qorabag'ishlarning qishlog'i.

QORABOG' Sherobod, Qamashi t. qishloq. Saroylarning qorabog' urug'i bunyod etgan qishloq.

QORABOTIR Dehqonobod t. qishloq. Qo'ng'irotlarning qo'shtang'ali bo'limiga mansub qorabotir urug'ining ovuli.

QORABOVUR Ustyurtda joylashgan qir. Balandlik ko'lami katta bo'lmagan qirsimon do'ngliklardan iborat qir.

QORABULOQ Kitob, Dehqonobod t. qishloq. Tog' etaklarida yer osti suvlarining sizilib chiqishidan hosil bo'lgan, kuchli oqim bilan chiqqan suv bo'yidagi qishloq.

QORABUG'A Taxtako'pir t. ovul. Bo'ka/buqa urug'ining qorabug'a tarmog'i jamoasiga mansub qishloq. Bo'ka/buqa – totem.

QORABO'RIQ Chiroqchi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi bo'riq qabilasining bir urug'i – qorabo'riq.

QORABO'YIN Chiroqchi, Koson, Boysun, Kasbi, Muborak t. qishloq. Qipchoq, qo'ng'iroq, qarluqlarning qorabo'yin/qoramo'yin urug'i jamoasining ovuli.

QORACHA Xatirchi, Narpay, Ishtixon, G'uzor t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qatag'anlarning burka urug'i tarmog'i – qorachalarning qishlog'i.

QORADARYO daryo. Yer osti va sizot suvlaridan to'yinadigan, tiniq, ko'm-ko'k suvi daryo.

QORADO'NG Chiroqchi t. balandlik. Tog' etagidagi tekis joyda tiklik ko'lami katta bo'lmagan do'nglik.

QORAGUZAR Nurobod t. dovon. Balandlik ko'lami past, oshib o'tish qulay bo'lgan dovon.

QORAKALTAK Oxunboboyev, Dehqonobod t. qishloq. Qo'ng'irotlar qo'shtamg'ali bo'limining qorakaltak urug'i jamoasining qishlog'i.

QORAKAMAR tog'li t. qishloq. Tevaragi tepasimon balandliklar bilan o'ralgan kamar yonidagi qishloq.

QORAKO'Z Hazorasp, Denov t. qishloq. Qatag'an, saroylarning qorako'z urug'i vakillari bunyod qilgan qishloq. Tamg'asi qo'sh xalqacha shaklida bo'lgan urug' – qorako'z.

QORAMAN Urganch t. qishloq.q. Qaraman.

QORAMANAS Bo'stonliq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan manas qabilasi qoramanas urug'ining qishlog'i.

QORAMANG'IT G'uzor t. qishloq. Mang'itlarning qoramang'it urug'i vakillari qishlog'i.

QORAMOYLI Hazorasp t. qishloq. Boyli/moyli urug'ining qoramoyli bo'limi jamoasi bunyod qilgan qishloq.

QORAMURCHA Yakkabog' t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan saroy qabilasining qoramurcha urug'i jamoasi bunyod qilgan ovul.

QORAQALPOG'ISTON avtonom respublika. Qoraqalpoq xalqi yashaydigan o'lka.

QORAQAMISH daha, qishloq. Zich, kengroq maydonda o'sgan ko'kish (yashil) rangdagi qamish (qoraqamish) o'sgan joy atrofidagi qishloq.

QORAQASMOQ Nurota t. qishloq. Qo'ng'irotlarning qo'shtamg'ali urug'i tarkibidagi kichik bo'lim – qoraqasmoq.

QORAQIPCHOQ Amudaryo t. ovul. Qipchoqlarning qoraqipchoq urug'i ajdodlari bunyod qilgan ovul.

QORAQIR Muborak t. balandlik. Kichik tepalari ko'p bo'lgan cho'ziq qir.

QORAQISHLOQ Baxmal t. qishloq. Tapa qo'rg'on, tepalik yonidagi qishloq: qora urug'ining qishlog'i.

QORAQIYA Chiroqchi t. qishloq. Tog' bag'riga tutash nishabli balandlik atrofidagi aholi yashash maskani.

QORAQO'NG'IROT Kasbi t. qishloq. Qo'ng'irotlarning voxtamg'ali bo'limi tarkibidagi qoraqo'ng'irot urug'ining qishlog'i.

QORAQUCHCHI Qarshi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi quchchi/qushchi/qutchi qabilasining qoraquchchi urug'i jamoasining qishlog'i.

QORAQUM cho'l. Qum ko'chishi natijasida qum tepalar bosil bo'ladigan cho'l, kichik balandliklari, qum uyumlari bo'lgan, o'simlik o'smaydigan sahro.

QORAQUNAS Toshloq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qunas urug'ining qoraqunas bo'limi vakillari bunyod qilgan qishloq.

QORASIYROQ Bo'ka, Oqqo'rg'on t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi siyroq urug'ining qorasiyroq tarmog'i jamoasining qishlog'i.

QORASOY Sirdaryo, Norin d. irmog'i. Yer osti, sizot, buloq suvlaridan hosil bo'lgan suv.

QORASUV daryo, qishloq. Yer osti, sizot suvlari bilan to'yinadigan jilg'a va shu jilg'a bo'yida paydo bo'lgan qishloq.

QORATIKAN G'uzor t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi tikan urug'ining qoratikan/qaritikan tarmog'i jamoasining qishlog'i.

QORATUT qishloq. Mevasi qora, qizg'ish rangda bo'lgan tut daraxti o'sgan joydagi qishloq.

QORATELPAK Chiroqchi t. qishloq. Saroylarning naymansaroy bo'limiga qarashli urug'lardan biri – qoratelpak.

QORATERI Oqdaryo, Uchqo'rg'on t. qishloq. Qatag'an qabilasining qora (ko'p) tira (urug' tarmog'i) urug'i jamoasining qishlog'i.

QORAXITOIY Narpay, Muborak t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi xitoy (qadimda kidan) qabilasining qoraxitoy urug'i jamoasi yashagan qishloq.

QORAXONI Narpay, Denov, Sherobod, Kitob t. qishloq. Xo'ja, eshon va arab, qarluq qavmlari avlod-ajdodlari qoraxoni(y) larning qishlog'i.

QORAO'Y Buxoro v. balandlik. Qora tik ko'lami uncha baland bo'lmagan balandlik, o'y – chuqur joy: kichik balandlik yonidagi chuqur joy.

QORAO'ZAK Qoraqalpog'istonda ovul, tuman. Suv miqdori ko'p, jildirab oqadigan jilg'a bo'yidagi qishloq.

QORLIQ Oltinsoy t. qishloq. q. Qarluq.

QOROVULBOZOR Buxoro v. qishloq, tuman. Katta choshtepa ustida xavf-xatardan xabar beruvchi qorovul yuradigan joydagi qishloq.

QOVCHIN Qarshi, Qamashi t. qishloq. O'zbek xalqining qovchin/qavchin qabilasi jamoasining qishlog'i. Qovchin – totem: quv chin – quv qushiga topinuvchilar. Chin odam, kishi (lar).

QOZOQDARYO Mo'ynoq t. ovul. Qazilgan chuqur yo'lak (qadimgi turkiy tilda qazaq)dan oqadigan daryo bo'yidagi ovul; qozoq xalqi yoki o'zbeklarning qozoq urug'i ajdodlarining yeridan oqadigan daryo bo'yidagi ovul.

QOZOQLI Koson t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda qazuq/qazaq – qazilgan, kovlangan; qazib suv yo'li ochilgan, qazib suv yo'li – ariq hosil qilingan joy yonidagi qishloq, qazma chuqur ariqli.

QOZOQSOY Narpay t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda qazaq – ariq. Ariqli soylikdagi qishloq.

QULLUQSHO Sherobod t. qishloq. Qarluqlarning arig'i. **Qulluq** – qarluq, sho – shox (ariq, ariqcha).

QULONCHI Qorako'l, Jondor t. qishloq. **Qulon** – xachirga o'xshash yovvoyi hayvon. **Qulonchi** – qulonni totem deb bilgan, unga sig'ingan, tug'iga tasvirini tushirgan kishilar jamoasi, o'zbek qabilasi. Shu qabila-urug'ga mansub bo'lgan kishilarning qishlog'i.

QUMBOSTI Shofirkon t. qishloq. Shamol natijasida qum uyumi paydo bo'ladigan joy yonidagi qishloq.

QUMBEL Toshkent v. tog', Dehqonobod, Chiroqchi t. balandlik. Qumloqdagi ko'ndalang balandlik.

QUMDARYO Qashqadaryoning o'ng irmog'i. O'zani mayda qum bilan qoplangani uchun suvi qumga singib ketadigan daryo.

QUMGAZA Samarqand v. cho'qqi. Qumli kichik tog' qirrası.

QUMOTA Qarshi t. qishloq. Qum uyumi (ota), qum tepa yonidagi qishloq.

QUMQISHLOQ qishloq. Xum pishirilgan joydagi qishloq, xumdon atrofıdagi qishloq.

QUMQO'RG'ON Surxondaryo v. tuman. Xum pishirilgan joydagi qo'rg'on, xumdonli qal'a.

QUMTEPA Shahrixon t. qishloq. Qumli tepa yoki yonida qumloq bo'lgan tepa yonidagi qishloq.

QURAMA Oltinsoy, Kasbi, Kitob, Xatirchi, Jalolquduq va boshqa t. qishloq. Turkiy, eroniy, mo'g'ul, ko'chmanchi o'zbeklar va qozoqlarning qo'shilishidan tarkib topgan xalq hisoblangan **quramalarning** qishlog'i.

QUYIMOZOR Buxoro v. suvombori. Qishloqning quyi tomonidagi qabriston yonida bunyod etilgan suv havzasi.

QUYONQULOQ Zomin t. qishloq. O'zbek xalqining yuz qabilasiga mansub **quyonquloqli** urug'ining qishlog'i.

QO'NG'IROBOD Koson t. qishloq. Qo'ng'irtog' q. quyisidagi qishloq.

QO'NG'IROT Bulung'ur, Oqqo'rg'on, Urganch, Xatirchi, Kattaqo'rg'on va boshqa t. qishloq. Turkiy, mo'g'ulcha xun kerayt (qora qarg'alar – qoraqarg'ani totem qilib olganlar) birikmasining soddalashgani: **qo'ng'irot** qabilasining qishlog'i. q. Kerayit.

QO'NG'IRTOG' Qarshi sh. shimolida tog'. Usti katta tosh bilan qoplanmagan, uncha baland va tik bo'lmagan, qoramtir qizg'ish qum, tuproq va mayda toshli tog'.

QO'QON Farg'ona v. shahar. Eroniy ko'h (tog'), **kant** (qo'rg'on, shahar) tog' bag'ridagi shahar, balandlikdagi qo'rg'on.

QO'QONI Pastdarg'om t. qishloq. Qo'qondan ko'chib (ko'chirtirilib) kelganlar, qo'qonliklar qishlog'i. **Qo'qon -l (-lik)** — qo'qonlik.

QO'RG'ONCHA Xatirchi, Qarshi, Kitob va boshqa t. qishloq. Yonidagi boshqa qal'alardan hajman kichik va undan keyin qurilgan qo'rg'on.

QO'RG'ONDARA Boysun t. jilg'a. Dara ichidagi qo'rg'on yonidan oquvchi irmoq.

QO'RG'ONDIKTIR Shahrizabz t. qishloq Turkiy bo'ktir – tog'da past-baland joy; qo'rg'onli tepa, ustida qo'rg'on bo'lgan tepa; tog' etagidagi qo'rg'on.

QO'RG'ONSOBOLOQ Bulung'ur t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qipchoqlarning soboloq urug'ining qo'rg'oni yonidagi qishloq.

QO'RG'ONTOSH Dehqonobod t. qishloq. Tevaragi yirik toshlar, tog' tizmasi yo toshli balandlik bilan tabiiy qurshalgan joydagi qishloq.

QO'RG'ONTEPA Andijon v. tuman. qishloq. Qadimiy qo'rg'on xarobasining o'rnidagi balandlik - qo'rg'ontepa.

QO'RIBADAY Ishtixon t. qishloq. Qo'riqdagi Baday q. qishlog'i.

QO'TIRTOSH tog'li t. balandlik. O'ydim-chuqur balandlik.

QO'TONBOY Yakkabog' t. qishloq. Mol, qo'y-echkilar qamaladigan maxsus bino – qo'ton yonidagi qishloq.

QO'TONKO'L Nukus t. qishloq. Qoramol. qo'y, echki kabi hayvonlar qamaladigan joy, qo'ra yonidagi ko'l atrofida bunyod qilingan qishloq.

QO'YIN Chimboy t. ovul. Qoraqalpoq xalqining qo'yin urug'i vakillari ovuli. Qo'y(in) – totem.

QO'YLIQ Toshkent sh. mavze. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan qo'yli(q) urug'i jamoasining qishlog'i. Tug'ida qo'y (qo'chqor) tasviri bo'lgan va qo'chqor (qo'y)ga topingan jamoa – qo'yli.

QO'YTOSH Jizzax v. tog'. Qo'sh tog', past tog'; qo'y shaklidagi ko'rinishga ega bo'lgan toshli tog'.

QO'ZIQQO'CHQOR Qarshi t. qishloq. Mang'itlarning oqmang'it bo'limiga qarashli qo'ziqqo'chqor urug'ining qishlog'i. Qo'ziqqo'chqor – urug'ning totemi.

QO'G'A Dehqonobod t. qishloq. Poyasidan bo'yincha, tuya jihozi, to'qim, xurjunsimon buyumlar, arqon va boshqa buyumlar yasash mumkin bo'lgan qo'g'a o'simligi o'sgan joydagi qishloq.

QO'SHKO'L Qamashi t. qishloq. Yonma-yon ikkita oqmas, turg'un suv – ko'l atrofidagi qishloq.

QO'SHKO'PIR Xorazm v. qishloq. Yonma-yon ikkita ko'prik qurilgan qishloq.

QO'SHKECHIK Quva t. qishloq. Daryoning yonma-yon ikkita o'tish guzari bo'lgan joydagi qishloq.

QO'SHQUDUQ qishloq. Yonma-yon yoki yaqin masofada ikkita quduq bo'lgan joydagi ovul.

QO'SHTAMG'ALI Oqqo'rg'on, Samarqand, Qamashi t. qishloq. Qo'ng'iroq, marqa, jetiurug' va boshqa qabilalarning urug'i - qo'shtamg'ali. Tamg'asi ikki to'g'ri chiziq shaklida bo'lgan.

QO'SHTEPASAROY Baliqchi t. qishloq. Qo'sh tepa balandligi yonidagi saroy qabilasi jamoasining qishlog'i.

QO'SHCHINOR Shahrisabz t. qishloq. Bir-biriga yaqin masofada, tutash ikki chinor daraxti o'sgan joy yaqinidagi aholi maskani.

QO'CHQORBULOQ Chiroqchi, Boysun t. qishloq. Qo'chqor bo'luk urug'ining qishlog'i. Qashqadaryo qipchoqsaroylarining urug'i - qo'chqorbo'luk.

R

RABOT qishloq. Karvonsaroy, musofirxona, o'zga yurtdan kelgan kishilar vaqtincha turadigan maskan, qo'rg'on, saroy yonidagi qishloq.

RAVONAK Samarqand v. qishloq. Roh i poyon -ak [f-t] izofasining soddalashgani: quyi tomondagi yo'l bo'yida bunyod qilingan qishloq.

RAVOT qishloq. q. Rabot.

RAVOTOLCHIN Narpay t. qishloq. Olchln qabila-urug'i jamoasining raboti.

RAVOTXO'JA Samarqand v. qishloq. Rabot i xo'ja [f-t] xo'janing raboti.

REGISTON maydon. Reg (qum) -iston [f-t] qum to'shalgan, qum bilan qoplangan joy.

REGISTONAK Buxoro t. qishloq. Reg-iston -ak [f-t] (-cha) registoncha, kichik Registon q.

REGIYON Shofirkon t. qishloq. Reg i -yon [f-t] qum ko'p joy, qumloq.

REGRIZ Karmana t. qishloq. Reg rez [f-t] qum bilan qoplangan joy, qum ko'chkisi bo'lgan joydagi qishloq.

REGZOR Buxoro t. qishloq. Reg (qum) -zor [f-t] qumloq, qum ko'p joy.

ROBOTIPOYON G'ijduvon t. qishloq. Rabot i poyon [f-t] quyi rabot.

ROHKENT Vobkent t. qishloq. Roh kent [f-t] yo'l bo'yidagi qishloq.

ROMITAN Buxoro v. tuman. Qadimgi eroniy tilda roh (yo'l) mitan/metan (qishloq) yo'l bo'yidagi qishloq.

RO'DAK qishloq. **Rud** (daryo, jilg'a, anhor) -ak [f-t] kichik daryocha, anhorcha bo'yidagi qishloq.

RO'DASOY Koson t. soy. Qadimgi suv oqqan o'zan [f-t] (**rud-ak**).

RO'YIBOZOR Kogon t. qishloq. **Ro'y i bozor** [f-t] bozor joy, bozor yoni.

S

SALOR Toshkent sh. anhor. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan **salor** urug'i ajdodlarining arig'i.

SAMARQAND shahar, viloyat. Turkiy **semiz** (boy, ulug', katta) **kent** (so'g'dcha) katta shahar, ulug' qo'rg'on.

SARAPOYON Xonqa t. qishloq. **Sahro** [a] **yi poyon** [f-t] quyi sabro, chetdagi cho'lda bunyod bo'lgan qishloq.

SARBOG' Sariosiyo t. qishloq. **Sar i bog'** [f-t] bog'ning yuqori tomoni.

SARBOZOR Qamashi, G'allaorol t. qishloq. **Sar i bozor** [f-t] bozor usti, bozorning yuqori tomonidagi qishloq.

SARDOBA Muborak, Paxtachi, Guliston t. qishloq. Usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagi va devori tosh, g'ishtdan terilgan, suv kiradigan maxsus joyi bo'lgan suv inshooti. **Sard** (sovuq, salqin) **ob** (suv) -a [f-t] sovuq suv, salqin suvli.

SARG'AMISH Chiroqchi, Boysun t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda **sarg'an qamish** – suvi kamligi tufayli qurib, **sarg'ayib** qoladigan qamishzor.

SARIBAG'ISH qishloq. **Bag'ish** q. qabilasiga mansub urug' – **sari(q)bag'ishlarning** yashash manzili.

SARIBOZOR Qorako'l t. balandlik. **Sar i bozor** [f-t] bozor usti, bozorning boshi.

SARIJO'Y Sariosiyo t. qishloq. **Sar** (ust, yuqori) **i jo'y** [f-t] (ariq, anhor) ariq usti, anhorning yuqorisidagi qishloq.

SARIKANDA Rishton sh. qishloq. **Sar i kanda** [f-t] kandaning yuqorisi, xandaqning usti.

SARILAR Jomboy t. qishloq. **Sariq** q. qabila-urug'i jamoasining qishlog'i.

SARIO'YMOVUT Kegeyli t. ovul. O'zbek, qoraqalpoq xalqi tarkibidagi mang'itlarning o'ymovut qabilasining **sario'ymovut** urug'i bunyod etgan ovul.

SARIPOYON Xonqa t. qishloq. **Hisor** (qo'rg'on, qal'a) **i poyon** [f-t] (quyi, adoq) quyi qo'rg'on, adoq qishloq.

SARIQ Muborak, Muzrabot t. qishloq. Turkiy **sariq** qabila-urug' jamoasining ovuli. Turkiy tilda **sariq** - qo'y, qo'yni totem deb tanlagan kishilar guruhi.

SARIQAMISH Qoraqalpog‘istonda ko‘l. Yoz va kuzda suvi kamayib qamishlari qurib qoladigan ko‘l.

SARICHASHMA Jomboy, Shahrisabz t. qishloq. **Sar** (bosh, yuqori, ust) i chashma [f-t] buloqning boshi, buloqning ustki tomonidagi qishloq.

SARICHILAR Urganch t. qishloq. **Sariq** q. urug‘iga mansub kishilar qishlog‘i.

SARMOS Boysun t. tog‘. **Sar mos/mas/mast** – katta cho‘qqi, qoyaning boshi.

SAROY Andijon, Qarshi t. qishloq. O‘zbek xalqining tarkibidagi **saroy** qabilasining qishlog‘i.

SAROYKO‘L Xo‘jayli t. ovul. Ko‘l atrofidagi qo‘rg‘on yoki ko‘l yonida **saroy** qabilasi ajdodlari tomonidan bunyod qilingan ovul.

SARTULLI Qamashi t. qishloq. Mo‘g‘ul qabilalaridan biri – **sartul**. Mo‘g‘ul tilida **sartul** – o‘zbek, o‘zbekcha. **Sartulli** – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan urug‘lardan biri.

SARTEPA qishloq. Arabcha **hisor/isor/sor/sar** (qo‘rg‘on) **tepa** qo‘rg‘on atrofidagi tepa yonida bunyod bo‘lgan qishloq.

SARTYUZ Bekobod t. qishloq. O‘zbek xalqining yuz qabilasiga mansub urug‘ – **sartyuz**.

SARCHASHMA Shahrisabz t. qishloq. q. **Sarichashma**.

SAVAY Qo‘rg‘ontepa t. qishloq. Mang‘itlarning **esavoy** urug‘i jamoasi tomonidan bunyod etilgan qishloq. **Esavoy**→**Savay**.

SAYOT qishloq. O‘zbek qabila-urug‘laridan biri – **sayot** (**sayot** – saylar jamoasi, **say** – qush yo hayvon nomi) lar qishlog‘i.

SAYRAM To‘raqo‘rg‘on t. qishloq. Ikki suv oqar joy (o‘zan) orasidagi toshloq joy – **sayram**. Ana shunday joy atrofidagi, ikki suv oralig‘idagi qishloq.

SAYROB Boysun t. qishloq. Ikki suv o‘zani orasidagi toshloq (**sayram**) joyda bunyod bo‘lgan qishloq. q. **Sayram**.

SAYXON qishloq. Hamma tomoni tekislikdan iborat bo‘lgan ochiq, keng maydondagi qishloq.

SAYXUNOBOD Sirdaryo v. tuman. Sirdaryoning arabcha nomi **Sayxun obod** [f-t] **Sayxun daryosi** bo‘yidagi tuman.

SAYYOT qishloq. q. **Sayot**.

SAZOG‘ON Nurobod t. qishloq. **Sazoq -on** [f-t] (ko‘plik qo‘sh.) saksovul butasi ko‘p o‘sgan joydagi qishloq.

SAG‘BON Toshkent sh. mahalla. **Suq -bon** [a+f-t] bozor qorovuli.

SAG‘IROVUL Chimboy, Shumanay t. ovul. Qo‘ng‘irotlarning **sag‘ir** urug‘i vakillari bunyod qilgan ovu l.

SANG Pop t. qishloq. Katta tosh (f-t sang) yonidagi qishloq.

SANGAR Mirishkor t. qishloq. Turkiy tilda zangar/sangar – g'ov, ko'tarma to'siq, qo'rg'on.

SANGARDAK daryo, suvombor. Sangard qishlog'i yonidan oquvchi daryo. Sang (tosh) gard/gird/kird (qo'rg'on) – tosh qo'rg'on, tevaragi tog' - tosh uyumi bilan qurshalgan bitov joy.

SANGBUR Karmana t. qishloq. Sang bur [f-t] tosh kesuvchi, toshni kesib tegirmon toshi tayyorlovchi.

SANGDIZA Samarqand sh. mahalla. So'g'dcha sang diz -a – tosh qo'rg'on.

SANGIJUMAN Nurota t. qishloq. Sang (tosh) i Juman (f-t+a) Juman ismli kishining toshqo'rg'oni.

SANGISAFED Nurota t. adir. Sang i safed [f-t] oq tosh, ohak toshli dala.

SANGZOR Jizzax v. daryo. Toshloq, yuza qismi toshlar bilan qoplangan joyda oquvchi suv.

SEBISTON Xatirchi t. qishloq. Seb -iston [f-t] olmazor, olma daraxti ko'p o'sgan joy.

SEBZOR daha, qishloq. Ayn. Olmazor. Seb (olma), -zor [f-t] (o'rin-joy qo'shimchasi) olma daraxti ko'p o'sgan joy.

SELSOY Nurota t. qishloq. Qiyalik bo'lgani uchun yog'in-sochin suvlari sel tarzida oqadigan soy bo'yidagi qishloq.

SEPATTA Jondor t. qishloq. Se (uch) patta [f-t] (buta) uch (yoki ko'p) buta o'sgan joydagi qishloq.

SEPLAN Sherobod t. qishloq. Se (uch), pul (ko'prik), -on [f-t] uch ko'prik qurilgan anhor bo'yidagi qishloq.

SESANGA Boysun t. qishloq. Se (uch), sang (tosh) -a [f-t] uch toshli, ya'ni yonma-yon uch tegirmonli qishloq.

SEVAZ Urgut, Kitob t. qishloq. Qadimgi turkiy, mo'g'ul qabilalaridan biri sevaz/sivazlarning qishlog'i.

SINNON Yakkabog' t. qishloq. Zindon [f-t] (yer ostidagi zax va qorong'i qamoq joy) so'zining o'zgargan shakli. Yer ostida g'orsimon o'yi, chuqur joydagi qishloq.

SIRDARYO daryo, tuman, viloyat. Sir (qadimgi turk) xalqining daryosi. Daryo nomi tuman, viloyat nomiga o'tgan.

SIRMOQ Baliqchi, Uchqo'rg'on, Norin t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qipchoqlarning sirmoq (tamg'a shakli – sirtmoq) urug'i ajdodlari qishlog'i.

SIRG'ALI Toshkent sh. tuman. O'zbek xalqi tarkibidagi sirg'ali (tamg'asi sirg'a shaklida bo'lgan) urug'ining qishlog'i.

SIYOB Samarqand, Kitob t. qishloq. Siyoh ob [f-t] qora suv, ya'ni yer osti, sizot suvlardan hosil bo'lgan ariq bo'yidagi qishloq. Aynan Qorasuv.

SIYROQ G'uzor t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan siyroq (odam, hayvonlar oyog'ining tizzasidan to'piqqacha bo'lgan qismi) urug'i jamoasining ovuli. Urug'ning tamg'asi siyroq shaklida bo'lgan, tamg'asiga nisbatlanib urug' nomlangan.

SOCHAK Samarqand t. qishloq. Sang i choh [f-t] chuqur joydagi tosh.

SOCHAKIBOLO Samarqand t. qishloq. Sochak i bolo yuqori Sochak q. qishlog'i.

SOLIN Zomin t. qishloq. O'zbek xalqining yuz qabilasi tarkibidagi solin urug'i jamoasining qishlog'i.

SOYBO'YI Oxunboboyev, Yozyovon t. qishloq. Dara, qir, kichik tog' tizmasi orasidagi cho'ziq vodiy, oqar suv – soy. Ana shunday joydagi qishloq.

SOYGUZAR Quva t. Qishloq. Soy – dara, qir, kichik tizma oralig'idagi cho'ziq yassi vodiy; oqar suv. Ariq suvidan o'tish uchun qulay joy bo'lgan yer yonidagi qishloq.

SOYLIQ Bo'stonliq t. qishloq. Ikki adir, qir, tog' tizmasi orasidagi pastlik, vodiydagi qishloq.

SOYOVUL Kosonsoy t. qishloq. Oqar suvi bo'lgan soylikda bunyod bo'lgan ovul.

SULDUZ Andijon t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan sulduz urug'-qabilasi jamoasining qishlog'i.

SUPATOG' Farg'ona v. tog'. Ust qismida supa singari sal ko'tarinki tekis maydonchasi bo'lgan tog'.

SURXON Amudaryoning o'ng irmog'i, Jarqo'rg'on t. qishloq. Surx (qizil) ob [f-t] oqish yo'lida qizil tuproqli yerni yuvib, tarkibida qizil rangdagi loyni olib oqadigan daryo, shu daryo bo'yidagi qishloq.

SURXONDARYO viloyat. Surxon q. daryosi bo'yidagi voha.

SUVLISOY Chiroqchi, Zomin t. soy. Yer osti, buloq suvlari ko'p bo'lgan soylik.

SO'FIYON Urgut, Sariosiyo t. qishloq. So'fi [a] (masjidda azon aytuvchi) -yon (f-t jamlik qo'sh.) — so'fiylar. So'fiylarning qishlog'i.

SO'LOQLI Zomin, Jizzax, Baxmal t. qishloq. O'zbek xalqining so'loqli (tamg'a shakli – so'loq – ikki ayri cho'p) urug'i kishilarning qishlog'i.

SO'X Farg'ona v. daryo, qishloq. Qadimgi turkiy sux-su-suv so'zining o'zgartirani – suv, daryo. So'g'd (xalq nomi) so'zining soddalashgani – So'x.

SO'XTA Sherobod, Muzrabot t. qishloq. O'zbek xalqining chig'atoy qabilasi tarkibidagi so'qta urug' tarmog'i jamoasining ovuli.

SO'ZANGARON Samarqand, Buxoro sh. mahalla. So'zan - gar -on [f-t] — igna, juvoldiz kabi tikish asboblari tayyorlovchi ustalar.

T

TABOR Boyovut t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi *tabar/tabor/tavar* urug'ining qishlog'i.

TAGIOSIYO Rishton t. qishloq. *Tag i osiyo* [f-t] — tegirmon joylashgan joyning quyi tomoni.

TAGISSAROY G'uzor t. qishloq. Saroy qabilasining *tagissaroy* urug'i vakillarining ovuli.

TALIJA Shofirkon t. qishloq. *Tali ja* <joy [f-t] — tepacha, kichik tepa.

TALISAFET Shofirkon t. qishloq. *Tal/tall* (tepa) *safed* [f-t] — oqtepa, qo'rg'on xarobasidan paydo bo'lgan baland tepa. qiyos. Oqtepa.

TALISHVI Kasbi t. qishloq. Qadimgi turkiy talish qabilasi jamoasining qishlog'i.

TALLAK Sherobod, Ishtixon t. qishloq. *Tal/tall* (tepa do'nglik) -ak [f-t] (kichraytirish qo'sh.) — tepacha, kichik tepa yonidagi qishloq.

TALLASHQON Sherobod t. qishloq. *Shix/shiq* urug'i jamoasi yeridagi tepa atrofida bunyod bo'lgan qishloq (*tall i shiq -on*).

TALLIKURON Qarshi t. qishloq. *Tall* (tepa) *i kuran* [f-t] (tepa, tepaqo'rg'on) qo'rg'on vayronasi o'rnida hosil bo'lgan tepa yonidagi qishloq.

TALLIMARJON kent, suvombori. O'tloqli tepa, o'tli tepa; qo'rg'on tepa. *Tall* (tepa), *i marjon* (o'tloq, yaylov).

TALLIMARON Angor t. qishloq. *Tall i maron* [f-t] o't o'sgan mayda tepalari ko'p notekis joy; qo'rg'on o'rinlari ko'p bo'lgan past-baland joy atrofidagi qishloq.

TALLIYULG'UN Qarshi t. qishloq. *Yulg'un* butasi o'sgan joydagi tepa atrofida bunyod bo'lgan qishloq.

TAMAGUZAR Jizzax t. qishloq. O'zbek xalqining *tama/toma/ tuma* urug'ining guzari.

TAQIRKO'L Nukus t. ovul. Qattiq qatqaloq bilan qoplangani uchun o'simlik o'smaydigan joydagi ko'l bo'yida bunyod bo'lgan qishloq.

TARAG'AY Chiroqchi t. qishloq. Turkiy, mo'g'ul tillarida *tarag'ay/talag'ay* — cho'qqi, katta balandlik.

TAROQLI Urgut, Denov, Shabrisabz t. qishloq. O'zbek xalqining tarkibiga kirgan taroqli (tamg'asi taroq shaklida bo'lgan) urug'i jamoasining qishlog'i.

TASMACHI mahalla, qishloq. Terilarni iylab, oshlab, ishlov berib, undan tasma, arqon, qora uy ko'klagichlari tayyorlovchi hunarmandlar bunyod etgan mahalla, qishloq.

TAVOSH qishloq. O'zbek xalqining mang'it qabilasiga mansub tavosh urug'i jamoasining qishlog'i.

TAXIATOSH Qoraqalpog'istonda shahar. **Takiya/takya/taqya/taxya/taxia** [f-t] (xonaqoh, darveshlarning yashaydigan joyi) tosh – tosh devorli xonaqoh.

TAXTAKO'PRIK Quva, Yakkabog' t. qishloq. **Texta** [f-t] yog'ochdan qilingan ko'prik yonidagi qishloq. qiyos. **Textapul**.

TAXTAPUL Qarshi t. qishloq. **Texta** (yog'och) **pul** [f-t] (ko'prik) yog'och ko'prikli anhor bo'yidagi qishloq.

TAXTAQORACHA dovon. Ustida tekis maydoni bo'lgan dovon.

TAYLOQ Samarqand t. qishloq. O'zbek xalqi **toyloq** urug'i vakillarining qishlog'i. Urug'ning totemi **toyloq** (tuyaning bolasi) bo'lgan.

TAYOQLI Qamashi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi **tuyoqli** (o'zgargani **tayoqli**) urug'i jamoasining ovuli. Tamg'asi **tuyoq** shaklida bo'lgan.

TAYZAN Koson t. qishloq. Qadimgi turkiy tildagi **tayiz** (baland yer) so'zidan, baland joyda bunyod bo'lgan ovul.

TASHRAVOT Qiziltepa, Navoiy t. qishloq. Devori toshdan qilingan rabot yonidagi qishloq.

TANGI Ohangaronda qishloq. **Tangi** (f-t tang-i) tor dara.

TANGQAS Qashqadaryoning chap irmog'i. **Tang** (tor, o'zani kichik) **xas/xos/xosh** (buloq, anhor, kichik oqar suv) tang o'zanli daryo.

TEGIRMONTOSH Denov t. qishloq. Tegirmon uchun qattiq jinsli tosh bo'lgan, taroshlanadigan joy va uning atrofidagi qishloq.

TEM Narpay t. qishloq. q. Chem.

TEMIRXO'JA Pastdarg'om, Koson t. qishloq. Mang'itlar oqmang'it bo'limining **temirxo'ja** urug' tarmog'i jamoasining qishlog'i.

TENTAKSOY jilg'a. O'zani tez – tez o'zgarib turadigan, oshib-toshib oqadigan suv, soy.

TERMIZ shahar. Baqtriy tilida **taramastha** – narigi sobildagi manzil: Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi aholi maskani. Boshqacha talqin: **tabor** (turkiy xalq) -iz (jamlilik) taborlar yashaydigan qo'rg'on.

TERSAK Urgut t. qishloq. Terskay soʻzining oʻzgargani: balandlikning quyosh nuri tushmaydigan tomonidagi qishloq.

TERSOQAR Qamashi t. qishloq. Yonidagi jilgʻa, oqarsuvlarga nisbatan teskari yoʻnalishda oqadigan jilgʻa yonidagi qishloq.

TEZGUZAR Shofirkon, Shahrisabz t. qishloq. Soʻgʻdcha **diz** (qoʻrgʻon) **guzar** – qoʻrgʻon yonidagi guzar atrofida bunyod boʻlgan qishloq.

TEZOB Yakkabogʻ t. qishloq. **Tez ob** [f-t] tez oqar suv boʻyidagi qishloq.

TESHIKTOSH Boysun t. togʻ. Ulkan gʻori boʻlgan togʻ.

TIKOʻZAK Moʻynoq t. ovul. Toʻgʻri yoʻlak boʻylab oqadigan jilgʻa boʻyidagi ovul.

TILLAKAMAR Boysun t. qishloq. **Tall i kamar** [f-t] kamar joydagi tepa.

TIRGARON Sariosiyo t. qishloq. **Tir -gar -on** [f-t] kamon, miltiq va boshqa qurollar yasovchi hunarmandlar qishlogʻi.

TOGʻTOSH Qashqadaryo v. togʻ. Yuksak qoyalari, ulkan hajmli yirik toshlari koʻp boʻlgan togʻ.

TOLDIQDARYO Amudaryo tarmogʻi. Qirgʻogʻida tol daraxti oʻsgan daryo.

TOLQONSAYYOT Olot t. qishloq. **Tall -ak -on** [f-t] (tallakon – tepalar) sayyot (urugʻ nomi) sayyot urugʻi yashayotgan joydagi tepalar yonida bunyod boʻlgan qishloq.

TOMDI Navoiy v. tuman. **Tom -di** tomli, uyli, qoʻrgʻonli.

TOQCHILIK Jizzax t. qishloq. **Toqchi** q. qishlogʻidan koʻchib kelib yangi qishloq bunyod qilgan kishilarning qishlogʻi.

TOQCHIYON Sariosiyo t. qishloq. **Toqchi** urugʻiga mansub kishilarning qishlogʻi [f-t] (-yon koʻplik, jamlikni bildiruvchi qoʻshimcha).

TOROB Jondor t. qishloq. **Tor ob** [f-t] daryo boʻyi, suv qirgʻogʻidagi qishloq.

TORQAPCHIGʻAY Dehqonobod t. qishloq. Turkiy, moʻgʻul tillarida **qapchigʻay** – qoya, choʻqqi; togʻ tizmasi orasida suv oqadigan chuqur joy.

TORTULI Qoʻngʻirot t. Ovul. q. Tortuvli.

TORTUVLI qishloq. Oʻzbek xalqi tarkibiga kirgan tortuvli (toʻrt tugʻ, toʻrt nayzali, shoxasimon tamgʻali) urugʻi jamoasining qishlogʻi.

TOVOQBULOQ Nurobod t. qishloq. Oqar suv oʻyib tovoq singari oʻyiq hosil qilingan joydagi buloq yonida tashkil boʻlgan qishloq.

TOVOQSOY Toshkent v. shaharcha. Tovoq singari oʻrtasi keng yassi soylikdagi qishloq.

TOVOQCHI O'zbekiston t. qishloq. Yog'ochdan kosa, tovoq qoshiq yasovchi ustalarning qishlog'i.

TOZABOZOR Bog'ot t. qishloq. **Toza** (yangi) **bozor** [f-t] yangi bozor, yonidagidan keyin bunyod bo'lgan bozor yonidagi qishloq. Aynan Yangibozor.

TOZABOG'YOP To'rtko'l t. ovul. **Toza** (yangi) **bog' yop** [f-t] yangi (yonidagidan keyinroq) yaratilgan bog' kanali. Tozabog' q. kanali.

TOZADO'RMAN Urganch t. Qishloq. Yangi Do'rman (q)qishlog'i.

TOZAJO'L Chimboy t. ovul. Yangi (yonidagidan keyingi vaqtda paydo bo'lgan) yo'l bo'yidagi ovul. Aynan Yangiyo'l.

TOSHARIQ Samarqand t. qishloq. Toshloq joydan oqadigan ariq bo'yidagi qishloq.

TOSHBULOQ qishloq. Suv manbai atrofi tosh bilan o'ralgan buloq yonidagi ovul.

TOSHGUZAR G'uzor t. qishloq. Toshli joydagi qishloq.

TOSHKENT shahar. Turkiy tosh, eroniy kent (qo'rg'on, qal'a) toshdan qilingan qo'rg'on (shahar).

TOSHKESGAN Toshkent v. tizma. Tegirmon toshi va qurilish uchun tosh qazilgan, kesilgan cho'ziq balandlik.

TOSHKESKAN Bo'stonliq t. Soy. q. Toshkesgan.

TOSHKECHIK Xo'jaobod, Izboskan t. qishloq. Daryoning katta toshlari bo'lgan joydagi o'tish yo'lagi yonida bunyod bo'lgan qishloq.

TOSHOVUL Quyi Chirchiq t. qishloq. Toshi ko'p joy, toshloqda bunyod etilgan ovul.

TOSHQAZG'AN Navoiy v. tizma. Tegirmon toshi qazilib, kesib, o'yib olingan joy.

TOSHQUDUQ qishloq. Qazilgan devoriga tosh terilgan, obxonasi va oxuri toshdan qilingan quduq tevaragidagi qishloq.

TOSHRABOT G'ijduvon t. qishloq. Poydevori va devori toshdan qurilgan rabot yonidagi qishloq.

TOSHSAQO Xorazm v. kanal. Katta hajmdagi suv (daryo) dan tosh qo'yib (qalab, bosib) band yasab boshqa o'zanga oqizilgan suv.

TOSHTO'G'ON Oqqo'rg'on t. qishloq. Suvni bir necha ariqlarga taqsimlash uchun toshdan qilingan to'g'on yonidagi qishloq.

TOSHTOV Toshkent v. tog'. Ulkan toshlari bo'lgan tog'.

TUMOR Dang'ara, Baliqchi, Asaka t. qishloq. Qipchoqlarning tumor/to'qmor (tamg'asi to'qmor shaklida) urug'i jamoasining qishlog'i.

TUNDUKSOY Bo'stonliq t. soy. Tumandagi qirg'iz va qozoqlar nutqida **tunduk** – shimol, terskay, shimol tomondan oqadigan soy

TUPROQBEL Toshkent v. dovon. Ust qismi tuproq bilan qoplangan dovon.

TUPROQQAL'A Romitan t. qishloq. Vayron bo'lib tuproqqa aylangan qo'rg'on yonidagi qishloq.

TUPROQQO'RG'ON Termiz sh. balandlik. Yer qilib tekislanib vayron qilingan qo'rg'on o'rnida hosil bo'lgan balandlik. Aynan Yerqo'rg'on, Yertepa.

TURK qishloq. Qadimiy qarluq, barlos, kaltatoy, musobozorilarning umumiy nomi – **turk**, ana shularning qishlog'i.

TURKISTON tog'. Turklar, turkiy xalqlar yashagan joy.

TURKMANO'BA Muborak t. qishloq. Turkmanlarning qishlog'i. Turkiy tillarda o'ba – qishloq, ovul.

TURG'OQ Uchko'prik t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan **turg'oq** urug'i jamoasining qishlog'i.

TUTAK qishloq. Tut -ak tut daraxti ko'p o'sgan joy. So'g'dcha **tutak** – harbiy lavozim, kichik harbiy vazirlik mansabi, kishi laqabi, laqab qishloq nomiga aylangan.

TUTIKUNDA Kogon t. qishloq. Tut i kunda [f-t] (kesilgan yo singan daraxtning yer ustida ildizi bilan qolgan qismi, g'o'la) tut daraxtining kundalari ko'p bo'lgan joydagi qishloq.

TUTLI qishloq. Tut daraxti ko'p o'sgan joydagi qishloq.

TUVADOQ Bag'dod, Asaka t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi **tuvadoq/tuvaloq** urug'ining qishlog'i. **Tuvadoq/tuvaloq** – totem, qush turi.

TUYABO'G'IZ Toshkent v. suvombori. Daraning bo'g'iz singari tor joyidagi suv havzasi.

TUYAMO'YIN Xorazm v. suvombori. Tog', daryo, qir-adir balandliklarining tor qismi, yo'lagi tuya bo'yniga o'xshash joyi – **tuyamo'yin** (**tuyabo'yin**).

TUYAQUDUQ Tomdi, G'uzor t. qishloq. Suvi tuya kuchi bilan tortib olinadigan quduq yonidagi qishloq.

TUYATORTAR Samarqand v. ariq. Oqim o'zani pastlikda bo'lgani bois charxpalakni tuya tortib aylantirib yuqoriga chiqarilgan suv oqadigan anhor.

TUYOQLI Amudaryo t. ovul. O'zbek, qoraqalpoqlarning **tuyoqli** (tamg'asi tuyoq shaklida xalqa ko'rinishida bo'lgan) urug'i vakillari ovuli.

TUZKON Sirdaryo v. ko'l. Tuz moddasi ko'p bo'lgan yoki yonidagi tuz koni bo'lgan ko'l.

TO'DAKO'L Buxoro, Qoraqalpog'istonda ko'l. Yonma-yon bir necha ko'llar paydo bo'lgan joy.

TO'POLON Surxonning chap irmog'i. **To'pol** (tog'dagi tekis maydoncha) -**alk** (kichraytirish qo'sh.) [f-t] - tog' bag'ridagi tekis maydondan oquvchi daryo.

TO'POR Ishtixon, Sherobod, Muzrabot t. qishloq. Umumturkiy to'por urug'i jamoasining qishlog'i.

TO'PQORA Jarqo'rg'on t. qishloq. Qo'ng'irotlarning to'pqora urug'i vakillari bunyod qilgan ovul.

TO'PCHOQ Kitob t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan to'pchoq (semiz, xushbichim, chiroyli ot: dumaloq; totem va tamg'a shaklidan urug' nomlangan) urug'i jamoasining qishlog'i.

TO'QBOY Pastdarg'om, Qamashi, Yakkabog' t. qishloq. Saroy, mang'it qabilalarining to'qboy (ulkan hajmli tug') urug'i jamoasining qishlog'i.

TO'QMAN Oqdaryo, Ishtixon t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi to'qman urug'i jamoasining qishlog'i.

TO'QMANG'IT Shovot, Koson, Qarshi t. qishloq. Mang'it qabilasining to'qmang'it bo'limi jamoasi bunyod qilgan qishloq.

TO'QMOR Chiroqchi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi to'qmor urug'i jamoasining qishlog'i.

TO'RSARI G'uzor t. qishloq. Saroy q. qabilasining to'rsari urug'i jamoasining qishlog'i.

TO'RTKO'L Qoraqalpog'istondagi shahar, tuman. Qadimgi turkiy tilda to'rtkil/to'rtko'l – choldevor, vayron bo'lgan qo'rg'on xarobasi, qoldiq do'ng yonidagi aholi maskani.

TO'YTEPA Toshkent sh. tuman. Qal'a qurilgan balandlik, qo'rg'on tepa.

TO'G'IZ Sherobod, Dehqonobod t. qishloq. Qo'ng'irotlar tortuvli bo'limining to'g'iz urug'i jamoasi bunyod qilgan ovul.

U

UBACHO'LI Kogon t. qishloq. Qadimgi turkiy uba/uvaloval oba (kichik balandlik, cho'ldagi kichik do'nglik) – balandliklar ko'p bo'lgan cho'l.

UDAYCHI Buxoro, Andijon t. qishloq. Bek yoki dodhoh darajasidagi mansabdor, xon bilan arzhilar orasidagi munosabatlarni boshqaradigan kishi – udaychi/hudaychi. Shu laqab, mansabdagi kishiga qarashli yerda tashkil bo'lgan qishloq.

UGOM Toshkent v. daryo. Yuqori daryo (qadimgi eroniy tilda var/-ur yuqori, baland, kom daryo).

ULACH Shahrisabz t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda *ulush/ulash/uluch/ulach* – qishloq, shaharcha, qo‘rg‘on.

ULLIBOG‘ Urganch t. Qishloq. Ulug‘ (katta) bog‘ yonidagi qishloq.

ULLUBOG‘ To‘rtko‘l t. ovul. q. Ullibog‘.

ULUS Nurobod t. qishloq. Qadimgi turkiy tilda *ulush/ulus* qishloq, qo‘rg‘on.

ULUG‘NOR Andijon v. tuman. En ko‘lami katta va suvining miqdori ko‘p bo‘lgan katta anhor (*nahr*→*nor*).

UNGUT Asaka t. qishloq. O‘zbek *ungut/o‘ngut* qabilasi jamoasining qishlog‘i.

URGANJI Izboskan, Namangan, Paxtaobod, Dang‘ara, Buvayda, Uchko‘prik t. qishloq. **Urganch -i** [f-t] Urganch shahridan ko‘chib kelganlar, urganchliklar qishlog‘i.

URGANCH Xorazm v. shahar. Qadimgi eroniy tilda *var/vara/o‘r/ur* (qal‘a, qo‘rg‘on) *ganch/kent* (shahar) – katta qasrli shahar.

URGUT Samarqand v. tuman. Eroniy *var/vara* (istehkom, qal‘a) *kat/kut* (qo‘rg‘on) – tevaragi mustahkam devor bilan o‘ralgan qo‘rg‘on.

URG‘ULSOY Chiroqchi t. jilg‘a. O‘g‘ri qo‘l birikmasining o‘zgarгани: egri-bugri o‘zanli jilg‘a.

USMONOBOD Boyovut t. qishloq. Davlat arbobi Usmon Yusupov (1900-1960) sharafiga atalgan.

USTYURT Qoraqalpog‘istonda balandlik. Usti yassi balandlik, tog‘ tizmasi.

UVADA Chiroqchi t. qishloq. Turkiy, mo‘g‘ul, tungus-manjur tillarida *uva/o‘va/uba/o‘ba* (balandlik, tepa, do‘nglik) *ata* (orol; kichik do‘nglik) – qo‘rg‘on xarobasidan hosil bo‘lgan yoki qo‘lda tuproq uyib yasalgan tepalik atrofidagi qishloq.

UYAZ Zomin, Baxmal t. qishloq. O‘zbek xalqi tarkibidagi *uyaz/uyas* (qoramol, qo‘tos) urug‘i jamoasining qishlog‘i.

UYRAT Rishton, Kasbi t. qishloq. Qadimgi turkiy uyrat (mo‘g‘ulchasi oyrod) qabilasi avlodlarining qishlog‘i.

UYSHUN qishloq. Qadimgi turkiy *uyshun* qabilasi jamoasining qishlog‘i. *Uy* – o‘rmon, daraxtzor, *-shun/-shin/-chun/-chin* (odam, kishi, xalq) – o‘rmon kishisi, o‘rmonda yashovchilar.

UYCHI tuman. Qadimgi turkiy *uy/ud* (qo‘tos, ho‘kiz, qoramol) *-chi* qabilasi jamoasining qishlog‘i. Qoramolni totem deb bilgan, tug‘ida tasviri tushirilgan qabila – *uychi*.

UYG‘UR Paxtaobod, Pop, Gurlan t. qishloq. Uyg‘ur xalqi vakillarining qishlog‘i.

UZUN qishloq. Qo‘ng‘irot, saroy va boshqa qabilalarning *uzun* urug‘i vakillari bunyod qilgan aholi maskani.

UZUNNOVA Koson t. qishloq. *Nova* [f-t] (yog'och, metall yoki quvur ariq, tarnov; ariq) ko'lamini uzun bo'lgan joyda tashkil qilingan qishloq.

UZUNQIR Kitob t. qishloq. Yassi cho'ziq balandlik yonidagi ovul.

UZUNQUDUQ qishloq. Suvi ancha chuqurlikdan chiqqan quduqli qishloq.

UCHKO'PRIK Farg'ona v. tuman. Yonma-yon yaqin masofada uchta ko'priklilik anhor bo'yida tashkil bo'lgan qishloq.

UCHMA Forish t. qishloq. Tog' bag'ridagi tik qoya, zov, katta jarsimon o'ziq, tiklik ko'lamini baland yon bag'ir quyisidagi qishloq.

UCHQAHRAMON Zafarobod t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi qaraman urug'ining chet (adoq) qishlog'i. q. Qaraman.

UCHQIZ Koson t. tepa. Yonma-yon joylashgan uchta tepa.

UCHQIZIL Termiz t. balandlik. Qizil tuproqli uchta yonma-yon joylashgan tepa bo'lgan balandlik.

UCHQUDUQ Navoiy v. shaharcha. Yonma-yon joylashgan uchta quduq atrofidagi aholi maskani yoki eng chekka joydagi uch quduqli qo'rg'on.

UCHQULOCH Jizzax v. adir. Suv olish uchun qazilgan quduqning yer yuza sathidan chuqurligi uch quloch (4-5 metr) o'lchovida bo'lganligi uchun shunday atalgan.

UCHQUM Navoiy v. cho'l. Uchta qum uyumi (qumtepa) mavjud bo'lgan cho'l.

UCHQO'RG'ON Quva t. qishloq. Yonma – yon uchta qo'rg'on yonidagi qishloq.

UCHTEPA qishloq. Yonma-yon yoki tutash joylashgan uchta tepalik atrofidagi qishloq.

V

VARGANZA Kitob t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda *varg'* (to'g'on, band) -in (-li) zoy (joy, yer) – to'g'on yonidagi qishloq.

VARQ Karmana t. qishloq. So'g'dcha *varg'/varq* to'g'on, band yonidagi qishloq.

VARZAK Toshloq t. qishloq. q. Varzik.

VARZIK Chust t. qishloq. *Varzik* [f-t] – ekinzor. Ekin ekilgan maydon yonidagi qishloq.

VATAK Urgut t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda *vat* (uy, hovli, qo'ra, saroy) -ak (kichraytirish qo'shimchasi: -cha) – saroycha, kichik saroy yonida bunyod bo'lgan qishloq.

VATKANA Kitob t. qishloq. Vat kana/xona (gʻanak soʻzining oʻzgargani) – qoʻrgʻon, tevaragi devor bilan oʻralgan qalʼa atrofidagi qishloq. q. Vatak

VAXSHIVOR Denov, Urgut t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **vaxsh** (suv tangrisi) **var/vor** (qalʼa) – suv xudosi sharafiga qurilgan qoʻrgʻon, Vaxshning qoʻrgʻoni.

VOBKENT Buxoro v. tuman. Qadimgi eroniy tilda **pop/bop/vop/vob** (darvoza) **kent** (qoʻrgʻon, qishloq) – tor joyda tashkil boʻlgan qishloq.

VORI Yakkabogʻ t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **vara** – odam yashaydigan istehkom, qalʼa (yonidagi qishloq).

VOXTAMGʻALI qishloq. Qoʻngʻirotlarning **voxtamgʻali** urugʻi vakillarining qishlogʻi. Urugʻning tamgʻasi qora uying uvugʻi shaklida boʻlgan, tugʻi, tugʻrosida ham shu tamgʻa tasviri boʻlgan.

X

XADIRSHA Qoʻrgʻontepa t. qishloq. q. Xidirsho.

XADRA Toshkent sh. mahalla, maydon. Qadimgi turkiy tilda **qadir/qatir/qadra/xadra** – adirlik, past-baland joy.

XALACH Shahrisabz, Buxoro, Vobkent t. qishloq. Qadimgi turkiy xalach qabilasi jamoasining qishlogʻi.

XALQOBOD qishloq. Xalq [a] obod [a+f-t] etib, yangi yer oʻzlashtirib, yangidan qurilgan qishloq. Aynan Yangiqishloq, Yangiobod.

XAMKON Boysun t. qishloq. Eroniy tillarda **xam** (egik; togʻ bagʻirlarida chuqur joy, kam), **kom** (suv oʻzani, anhor, ariq, qazib oqizilgan suv) – chuqurlikdan oqadigan suv boʻyidagi qishloq.

XARASHXONA Gʻijduvon t. qishloq. Xiroj xona [a+f-t] soliq undiriladigan joy.

XATAK Boysun t. qishloq. Ulkan tosh, qoya atrofidagi qishloqcha. Gʻud [f-t] – ulkan tosh, afgʻon tilida xat tepa, qoya.

XATIB Sariosiyo t. qishloq. Soʻgʻdcha **xat** (ulkan, tosh, qoya, balandlik), **-if/-lp/-lb** (koʻplik, jamlik maʼnosidagi qoʻsh.) – ulkan toshli joy, baland qoya atrofidagi ovul.

XAYROBOD Koʻshkoʻpir, Kitob t. qishloq. Soʻgʻdcha **kad** (qoʻrgʻon), **rabot** [f-t] – qoʻrgʻon yonidagi rabot.

XIVA Xorazm v. shahar. Xorazmiy tilida **xiauv -a** – qoʻrgʻoncha, kichik qalʼa.

XIDIRSHO Oltinsoy t. qishloq. Oʻzbek xalqi tarkibidagi **xidirsho** urugʻining qishlogʻi.

XITOIY qishloq. Qadimiy oʻzbek **xitoy** (kidan/kitan) qabilasi jamoasining qishlogʻi.

XITTOYKENT Qarshi t. qishloq. Xitoy qabilasi jamoasining qo'rg'oni.

XITTOYON Yakkabog' t. qishloq. Xitoy q. larning qishlog'i.

XIYOBON qishloq, mahalla. Xiyobon [f-t] ikki tomoniga daraxt va gullar o'stirilgan yo'lakli joy, keng ko'cha.

XOLCHAYON Denov t. qishloq. Qal'ayi Chag'oniyon [f-t] izofasining o'zgargani: Chag'oniyon qal'asi (o'rni) atrofidagi qishloq.

XONAQOH Samarqand, Kitob t. joy. Qalandarlar, darveshlar zikru samo' qilgan joy, machit.

XONBANDI Forish t. qishloq. Xonning bandi, xon laqab (unvon)li kishining bandi yonidagi qishloq.

XONJIZZA Denov t. qishloq. Xon Jizza (qo'rg'on) – xon qo'rg'oni; xom/kom/xon (ariq, anhor) | Jizza – qo'rg'on ariq, qo'rg'on yonidan oquvchi ariq.

XONOBOD qishloq. Eroniy tillarda xan (qazilgan chuqurcha) obod (qishloq) – chuqurlik atrofidagi qishloq; xan - (qazilgan ariq) anhor bo'yidagi qishloq.

XONQA Xorazm v. tuman. q. Xonaqoh.

XONCHARBOG' Pastdarg'om t. qishloq. Xon laqabli kishining chorbog'i. q. Chorbog'.

XORKASH Vobkent, Shofirkon t. qishloq. Xor kash [f-t] – tikan kabi o'tinlik narsalarni yig'ib sotuvchi, o'tinchi. Kishi laqabidan qishloq nomi yaralgan.

XOVDAK Surxondaryo v. tog', daryo. Qadimgi eroniy tilda kaufa (ulkan tog') dak (daryo) – ulkan tog' daryosi.

XUBBONKO'L Farg'ona v. ko'l. Qadimgi eroniy tilda kaufa (tog', ulkan tog') -on tog' ko'li, tog' ichidagi ko'l.

XUDOYZOT Qarshi t. qishloq. Xudot/xudat (hokim, muzofot boshlig'i) zot [f-t] – Naxshab hokimi va avlodining yozgi qarorgohi (bog'oti) bo'lgan joydagi qishloq.

XUFAR Sariosiyo t. qishloq. Xuf (tog') bar/par [f-t] (yuqori, baland) – yuqori tog', yuksak cho'qqi etagidagi ovul.

XUMDANAK Jondor t. qishloq. q. Xumdonak.

XUMDONAK Jondor t. qishloq. Xumdonli, xum kabi ro'zg'or asboblari pishirilgan joydagi qishloq.

XUMIN Jondor t. qishloq. Xum -in [f-t] – xum pishirilgan joydagi qishloq.

XUMMON Shahrisabz t. qishloq. Xum mon [f-t] xum va shu kabi idishlar pishirilgan, xumdonli joydagi qishloq.

XUROSON Surxondaryo v. cho'qqi. Qadimgi eroniy tilda xur (quyosh) -oson (joy) – quyoshli o'lka, kunchiqar tomon.

XURSAND Sariosiyo t. qishloq. **Xurd** (kichik) **sang** [f-t] (tosh, tog') birikmasining o'zgargani – tog' bag'ridagi qishloq.

XO'BON Sariosiyo t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **xuf/qof** (tog') –on (ko'plik, mavjudlik qo'sh.) tog'lik joy, cho'qqili yerda joylashgan qishloq.

XO'JAHAYRON Kasbi t. qishloq. **Xo'ja ayronchi** (mang'it va kenagas qabilasining urug'i) birikmasining soddalashgani: xo'ja hayron – ayronchi qabilasining xo'jalari bunyod qilgan qishloq. q. Ayronchi.

XO'JAJABBOR Chiroqchi t. tepa. **Xo'ja Jo'ybor** [f-t] nomining o'zgargani: Jo'ybor q. arig'i bo'yidagi qabristonli tepa.

XO'JAKENT Toshkent v. suvombor. Xo'jalar qishlog'i.

XO'JAQBOD Chiroqchi t. qishloq, Andijon v. tuman. Xo'ja qavmiga mansub aholining qishlog'i.

XO'JAQO'RG'ON qishloq. **Xo'ja** (f-t xo'jayin, sohib, tabaqa; toifa, avlod) **qo'rg'on** – xo'jalar tabaqasining qo'rg'oni.

XO'SHMAN Muzrabot, Angor t. qishloq. Eroniy **xush/g'isht/xisht mayn** – g'isht pishirilgan joydagi qishloq.

Y

YAKJUVOZ Quva t. qishloq. **Yak juvoz** [f-t] – bitta juvoz bo'lgan qishloq.

YAKKABOG' qishloq, tuman. Bitta bog' atrofida tashkil bo'lgan qishloq.

YAKKASAROY qishloq. **Yakka** [f-t], (bitta, yolg'iz, yagona) **saroy**, ya'ni yonida, yaqin atrofida faqat bitta saroy bo'lgan joyda yuzaga kelgan qishloq. q. Saroy.

YAKKATUT qishloq. **Yakka** (bitta, tanho, yolg'iz) **tut** [f-t] – yolg'iz bitta tut daraxti o'sgan joydagi ovul.

YALANG'OCH Toshkent sh. mavze. Turkiy **os/as/ach/och** qabilasining **yalang'och** urug'i ajdodlari bunyod qilgan qishloq.

YALLAMA Chinoz t. qishloq. **Yar/jar** yonidagi qishloq.

YARG'UNCHI G'uzor t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan **yarg'unchi/yorg'unchi** (**yarg'un** – vahshiy hayvon, totem) urug'i odamlarining qishlog'i.

YAYPAN O'zbekiston t. kent. **Yozi/yazi poyon** [f-t] cho'l so'ngidagi qishloq.

YANGIBOZOR Qorako'l t. qishloq. Yonidagi savdo-sotiq qilinadigan maskandan keyingi, uncha uzoq bo'lmagan o'tmishda bunyod etilgan bozor atrofidagi qishloq.

YANGIKENT G'uzor, Ishtixon t. qishloq. Yangi qishloq, yangi qo'rg'on.

YANGIQO'RG'ON Oqdaryo, Buvayda, Oltiariq t. qishloq. Yonidagi qo'rg'onga nisbatan keyingi vaqtda bunyod bo'lgan qo'rg'on yonidagi qishloq.

YANGIRABOT G'ijduvon t. qishloq. Yonidagiga nisbatan keyingi vaqtda qurilgan rabot yonidagi qishloq.

YANGIRAVOT G'ijduvon t. qishloq. q. Yangirabot.

YANGIYER Sirdaryo v. shahar. Yangidan o'zlashtirilgan bo'z yerda qurilgan shahar.

YANGIYOP Gurlan t. qishloq. Yangi kanal, boshqalardan keyin, eng so'nggi vaqtda qazilgan o'zandan oqadigan suvli kanal (yop) bo'yidagi qishloq.

YANGIYO'L shahar. Yangi shahar, yangidan bunyod qilingan kent.

YERTEPA Qarshi t. qishloq. Balandlik ko'lami kichik do'nglik, yassi tepa yonidagi qishloq.

YERTOSH Ohangoron t. balandlik. Yuza qismi yer bilan barobar bo'lib, tuproq bilan ko'milgan ulkan toshli do'nglik.

YETIMQIZ Chiroqchi t. balandlik. Yolg'iz va kichik tepali do'nglik.

YETIMQUDUQ Dehqonobod t. qishloq. Yetim [f-t] yakka, yolg'iz qishloqdan uzoqroq masofada qazilgan joydagi quduq yonida bunyod bo'lgan qishloq.

YETIMTOG' Qizilqumda tog'. Tevaragida tog' singari balandliklar bo'lmagan, tik ko'lami past bo'lgan yolg'iz tog'.

YETIMSHOX Jarqo'rg'on t. qishloq. Yolg'iz, kichik ariq bo'yidagi qishloq.

YETIMCHO'QOI Kitob t. qoya. Tevaragida yirik cho'qqisimon tik balandliklar bo'lmagan yakka qoya.

YETTIQASHQA Baliqchi t. qishloq. Yetti (ko'p) qashqa (tepalik, balandlik) yonma-yon, bir-biriga yaqin masofada ko'p tepalari bo'lgan joydagi qishloq.

YETTIQIZ Chiroqchi t. balandlik. Yonma-yon bir necha tepalari bo'lgan balandlik.

YETTISOY Sirdaryo v. tuman. Yettita suv oqar jilg'a tutashgan joy.

YETTITOM Chiroqchi t. qishloq. Yetti va shunga yaqin sanoqdagi hovli qurilgan joydagi qishloq.

YODGOR Koson t. qishloq. Turkiy jetigar/jedigar/jadigar (etti urug' birlashmasi) qabilasi nomining o'zgartirani – yodgor. Turkiy, mo'g'ul tillarida g'ur/g'ar/g'ur/g'ar – kishi, odam. Urug' nomidan qishloq nomi yaralgan.

YOM Zomin t. qishloq. q. Jom.

YOMONQUM Buxoro v. cho'l. Ko'chib yuradigan, turli joylarda uyum hosil qiladigan qumli cho'l.

YOMONSAROY Yakkabog' t. qishloq. Saroy qabilasining yomonsaroy urug'i jamoasining qishlog'i. Yobon qushiga topingan va tug'ida tasviri bo'lgan urug' – yobonsaroy/yomonsaroy.

YOMCHI Forish, Boysun, Shahrisabz t. qishloq. Mo'g'ullar hukmronligi davrida yom ishlari bilan shug'ullangan shaxs – yomchi, unvon. q. Jom.

YORBOSHI Andijon, Uychi t. qishloq. Jar/yar/yorning bosh tomonidagi qishloq, jar usti.

YORMISHYOP Gurlan t. qishloq. Yorib qazilgan, o'yib kavlangan kanal (yop) bo'yidagi qishloq.

YORMOZOR Farg'ona t. qishloq. Jar/yor ustidagi mozor atrofidagi qishloq.

YORQISHLOQ Jalolquduq, Qo'rg'on tepa t. qishloq. Jar/yor yonidagi qishloq.

YORQUDUQ Narpay t. qishloq. Aynan Jarquduq.

YORQO'RG'ON Uychi t. qishloq. Jar/yor yonidagi qo'rg'on.

YOVARIQ Toshkent t. qishloq. Yobi/yobu (qisqa shakli yov) urug'ining arig'i bo'yidagi qishloq.

YOZYOVON Farg'ona v. cho'l, tuman. Qadimgi turkiy yozi yabon cho'l+cho'l, tekis cho'l, cho'lli dala.

YOG'OCHOTA Buxoro v. balandlik. Qadimgi turkiy tilda yog'och – daraxt. Daraxt o'sgan joy atrofidagi do'nglik.

YUMRITOV Xorazm v. tog'. O'zbeklarining eymur qabilasi yashagan hududdagi tog' (eymur tov).

YUNUSOBOD Toshkent sh. daha. Yunus [a] ismli kishi qurgan rabot f-t].

YURCHI Denov t. qishloq. Yurtchi – ko'chib, harbiy yurish, sayohat, ovda yurtni joylashtirish, tiklash bilan shug'ullanuvchilar boshlig'i. O'tmishda yurtchi yasovul harbiy lavozimi bo'lgan.

YUZOVUL Xatirchi t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi yuz/juz qabilasi vakillarining qishlog'i.

YO'RG'ABULOQ Nurobod t. qishloq. Yonma-yon bir necha qaynab chiqadigan buloqlari bo'lgan joydagi qishloq.

Z

ZADARYO Namangan v. daryo. Sar (bosh, yuqori; ulkan) daryo f-t] katta daryo.

ZAHARTEPA Denov t. qishloq. Shahartepa>zahartepa – qo'rg'on o'rnida paydo bo'lgan tepa yonidagi qishloq.

ZAKOSH G'ijduvon, Romitan t. qishloq. **Zax/zax kash/zikash/zakosh** — zovur, zax suvlar arig'i bo'yidagi qishloq.

ZARABOG' Sherobod t. qishloq. **Zarog'an/zarog'ang** (zarang yer, qumloq, qumli joy, qattiq maydon) **bog' f-t]** toshloq joydagi bog'li qishloq.

ZARAFSHON daryo, shahar. Qadimgi eroniy tilda **sar** (bosh, ulkan) **ob** (suv, daryo) **shon/jon** (daryo) – Sarob daryosi. Navoiy viloyatidagi shahar nomi daryo nomidan.

ZARAVUTSOY Sherobod t. soy. Qadimgi eroniy tilda **sar rovt/sar i rovt** – katta o'tloq, o'tloqning yuqorisi; daraning boshi.

ZARDAQO'L Oltinsoy t. qishloq. **Zarda<sar/zar dag'/tag'** (daryo) yuqori daryo. **Qo'l** – jilg'a, daryoga qo'shiladigan kichik oqarsuv.

ZARKAMAR Oltinsoy t. qishloq. **Sar i kamar f-t]** kamarning boshi.

ZARKAT Andijon v. suvombori. **Hisor q.** so'zining soddalashgani **sor/sar/zar** (tevaragi devor bilan o'ralgan qal'a) **kat** (qo'rg'on)– Kattaqo'rg'on.

ZARKENT Yangiqo'rg'on t. qishloq. **Sar f-t]** **kent** – katta qishloq, ulkan qo'rg'on.

ZARMAS Yakkabog' t. qishloq. Eroniy tillarda **zar/sar** (bosh, yuqori, baland) **mas/mos/most** (tog', cho'qqi) – baland cho'qqi atrofidagi qishloq.

ZARMITAN Qiziltepa t. qishloq. Eroniy tillarda **sar** (bosh, ust, yuqori) **mitan** (qishloq) – katta qishloq; **sar i mitan f-t]** – qishloqning yuqorisi.

ZARTEPA qishloq. q. Sartepa.

ZARCHOB Sariosiyo t. qishloq. **Sar i choh ob [f-t]** – qazib suv chiqarilgan buloqning boshi.

ZAXARIQ Toshkent sh. ariq. Yer osti suvlarining sizilishidan chuqur joyda hosil bo'lgan suv: **zax, zaxkash, zix, ziykash.**

ZAXXONA Sariosiyo t. qishloq. **Zax** (suv sizib chiqadigan joy) **xona [f-t]** – qaynar buloqlari ko'p joy.

ZAG'ORKASH Buxoro, Qorako'l t. qishloq. **Yog'in** suvlari oqadigan, oqova suvlar tushadigan ariq bo'yidagi qishloq.

ZACHKANA Shahrisabz t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **zach/chach /choch/shosh** (tosh) **kana** (xona, qo'rg'on, qishloq) – toshli joydagi, toshloqdagi qishloq.

ZANG Surxondaryo v. kanal. **Sang [f-t]** – tosh bandli anhor.

ZANGIOTA Toshkent v. tuman. **Sang/zang** (tosh), **i [f-t]ota** – tosh uyib qilingan ziyoratgoh.

ZANGULASOZI Buxoro t. qishloq. Zangula [f-t] – qo'ng'iroq, zang, shaqildoq. Zangulasozi – zang yasashlik. Zangulasozlarning qishlog'i.

ZIYKO'L Amudaryo quyisidagi ko'l. Yer osti, sizot suvlari yig'ilib hosil bo'lgan suv havzasi.

ZEVAR Sariosiyo t. qishloq. Eroniy tilda zivor – daryoning, oqar suvning burilish joyidagi qishloq.

ZOMIN Jizzax v. tuman. Eroniy tillarda *zax/zah* (yer osti suvi, buloq) *mayn* (qishloq) – yer osti, sizot, buloq suvlari ko'p joydagi qishloq.

O'

O'LMAS Baliqchi, Uychi, Chinobod, Qamashi t. qishloq. Saroy qabilasining *ossaroy* bo'limiga mansub o'lmas urug'ining qishlog'i.

O'NIKKI Payariq, Pastdarg'om, Kasbi t. qishloq. Mang'itlarning o'nikki urug'i jamoasining ovuli. Urug' nomining qadimgi shakli *enaka* (*enaka* - sigir, totem).

O'RAMAS Urgut t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi o'ramas urug'ining qishlog'i.

O'RDA Toshkent sh. daha. Qo'qon xoni noiblarining qarorgohi, davlat boshlig'ining manzili – o'rda.

O'RISQISHLOQ Kitob t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi o'ris/o'rus/o'roz urug'ining qishlog'i. Qo'ng'irotlarning qanjig'ali, tortuvli, qo'shtamg'ali bo'limlarining o'rus/o'ris/o'risbiy urug'i bor.

O'RMONBEK Baliqchi t. qishloq. Qo'qon xoni Xudoyorxonning o'g'li O'rmonbekka berilgan chek yerda bunyod bo'lgan qishloq.

O'ROQLI O'rta Chirchiq, Jomboy t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi o'roqli (tamg'asi o'roq shaklida bo'lgan) urug'ining qishlog'i.

O'RTABEL Nurobod t. dovon. Ikki yonida boshqa yassi balandliklar bo'lgan do'nglik.

O'RTAYOP Qo'shko'pir t. qishloq. Ikki yonida boshqa yop (kanal) bo'lib, ularning oralig'ida joylashgan kanal bo'yidagi qishloq.

O'RTASHIX Samarqand t. qishloq. Ikki yonida Shix qishlog'i bo'lib, ularning oralig'ida o'rnashgan Shix qishlog'i.

O'RTACHO'L Buxoro v. dasht. Adir yo do'ngliklar oralig'idagi cho'l.

O'YMOVUT Chiroqchi t. qishloq. Mang'itlarning o'ymovut urug'i jamoasi bunyod qilgan qishloq.

O'ZBOY Qoraqalpog'istonda joy. O'kuz bo'yi, daryo (Amudaryo) ning qirg'og'i.

O'ZBEKISTON respublika. O'zbek xalqi istiqomat qiladigan mamlakat.

O'ZBEKYOP Qo'shko'pir t. qishloq. O'zbeklarning kanali, XVI asrda Xorazm aholisiga kelib qo'shilgan o'zbek xalqi vakillari qazgan kanal bo'yidagi qishloq.

O'G'IN Yakkabog' t. qishloq. Farg'ona qipchoqlarining o'g'im/o'g'im urug'i bor. Urug' nomi qishloq nomiga aylangan.

O'CHOQLI Bo'ka, O'rta Chirchiq t. qishloq. O'zbeklarning uyshun qabilasi tarkibidagi o'choqli urug'ining qishlog'i.

G'

G'ALLAOROL Jizzax v. tuman. G'alla [a] (boshqoqli ekinlar hosili, don) yetishtiriladigan maydon (yer, tekislik).

G'ALVASOY Bo'stonliq t. jilg'a. G'o'lva so'zining o'zgargani g'alva: suv oqar quvurlar bo'lgan soy.

G'AMBUR Sherobod t. qishloq. Eroniy tillarda xon/xoni/xonik (buloq, hovuz; ariq; jilg'a) har/par/bur/pur (yuqori, baland) – yuqori jilg'a, tog' daryosi bo'yidagi qishloq.

G'ARG'A Chimboy. t. ovul. Turkman, qoraqalpochlarning g'arg'a urug'i jamoasi bunyod etgan qishloq. q. Qarg'a (li).

G'AROVLI Chiroqchi t. qishloq. G'arov [f-t] (poyasi va bargi qamishga o'xshash, bo'g'im-bo'g'im poyali, suvsiz joyda yolg'iz, to'p-to'p o'sadigan bambuksimon o'simlik) o'simligi ko'p o'sadigan joydagi qishloq.

G'AZALKENT Toshkent v. shahar. Bo'stonliq t. qishloq. Hazar q. qabilasi nomining o'zgargani – G'azalkent. Kent – qishloq. Hazarlarning qishlog'i.

G'AZIRA Jomboy t. qishloq. Turkiy hazar/xazar qabilasi vakillarining qishlog'i. Hazar/xazar etnonimiga -on ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan.

G'AZOVOT Qo'shko'pir t. qishloq. G'ozl [a] ismli kishi bunyod qilgan qishloq.

G'IJDUVON Buxoro v. tuman. Qadimgi eroniy g'isht duvon - g'isht qo'rg'on, g'ishtdan qilingan qo'rg'on.

G'ILON Shahrisabz t. qishloq. Tog'ning baland cho'qqisidan quyiga qulab tushgan bahaybat toshlar to'dasi - g'ilink/g'ilank/g'alank [f-t]. Ana shunday toshlar bo'lgan joydagi qishloq.

G'INJAK Qamashi t. qishloq. Jinjak [f-t] o'simligi ko'p o'sgan joydagi qishloq.

G'ISHMAN Koson t. qishloq. Eroniy tillarda g'isht mayn – g'isht pishirilgan joydagi qishloq.

G'ISHTBAND Nurota t. qishloq. G'ishtdan qilingan band [f-t] yonidagi qishloq.

G'ISHTI G'ijduvon t. qishloq. G'isht –i (n) [f-t] g'ishtli, g'ishdan qilingan.

G'ISHTLI Qamashi t. qishloq. Qadimiy qo'rg'on o'rni bo'lgan tepadan g'isht [f-t] topilgan balandlik yonidagi qishloq.

G'OVA Chust t. qishloq. Qadimgi eroniy tildagi **kaufa** (katta tog') so'zining o'zgartirani: ulkan tog'.

G'OVASOY Farg'ona v. jilg'a. Qadimgi eroniy tildagi **kaufa** (tog', ulkan tog') so'zining o'zgartirani: tog' daryosi.

G'OZIOBOD Qo'shko'pir t. qishloq. G'oz **oz** ism (laqab)li kishi qurdirgan qal'a yonidagi qishloq: g'oz **obod** [a+f-t].

G'OZLIQ Yakkabog' t. qishloq. G'oz [f-t] (qamish, g'arov) -liq qamishzor, g'arov o'sgan joydagi qishloq.

G'OZG'ON Nurota t. Kon. O'zbekcha qazg'an so'zining o'zgartirani: g'ozg'on –qazib o'ydim-chuqur, o'nqir-cho'nqir qilingan joy.

G'URJOB Yakkabog' t. qishloq. Xurd (kichik) jo'y (ariq) ob [f-t] – kichik ariqda oqadigan suv bo'yidagi qishloq.

G'URUMSAROY Pop t. qishloq. Turkiy **qurum/g'urum/g'urim** tosh uyumi atrofida yashovchi saroy qabilasi jamoasining qishlog'i.

G'UZOR Qashqadaryo v. tuman. Qadimgi turkiy **hazar/xazar** qabilasining qishlog'i, hazarlar yashagan joy.

G'O'RATI Dehqonobod t. qishloq. G'o'ra **teg'** [f-t] – tog' cho'qqisi, baland qoya etagidagi qishloq.

G'O'RUT Sariosiyo t. qishloq. G'o'r **ut** [f-t] – ulkan toshlar ko'p bo'lgan joydagi aholi maskani.

G'O'S Urgut. t. qishloq. G'oz [f-t] – qamish, qamishzor yonidagi qishloq.

Sh

SHAHIDMOZOR Norin t. qishloq. **Shahid mozor** [a+f-t] – o'z ajali bilan emas, balki din yoki boshqa maqsad ijrosi uchun vafot etgan kishi(lar) qabristoni yonidagi qishloq.

SHAHRINAV Nurobod, Sariosiyo t. qishloq. **Shahr i nav** [f-t] – yangi shahar (qishloq).

SHAHRI SABZ Qashqadaryo v. tuman. **Shahr i sabz** [f-t] – yashil shahar, daraxtlar ko'p o'sgan shahar.

SHAHRIXON Andijon v. tuman. Xon (Qo'qon xoni) amri bilan tashkil qilingan qishloq, xonning shahri.

SHAHRUD Buxoro sh. anhor. *Shahr i rud* [f-t] shahar arig'i yoki shoh rud – shohning arig'i, shoh qazdirgan ariq.

SHAKARJO'Y Kasbi t. qishloq. *Chaqar* (shakar) jo'y [f-t] (ariq) – qo'rg'on yonidan o'tadigan ariq bo'yidagi qishloq.

SHAKARTERI Shahrisabz t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan *kenagaslarning shakartira* urug'i vakillarining qishlog'i.

SHALQAN Sherobod t. qishloq. Eroniy tillardagi *shal/shar/sher/shir* (balandlik; baland) g'ar (tog') birikmasining o'zgargani; sharg'ar – shalqan baland cho'qqi, ulkan tog'.

SHAMATON Shahrisabz t. qishloq. So'g'dcha *shov* (qora) *metan/mitan* (qishloq) – qora qishloq, ya'ni kichik balandlik yonidagi qishloq.

SHANBI Kitob t. qishloq. Haftaning oltinchi kuni (*shanba*)da bozor bo'lgan joydagi qishloq.

SHARAQSOY Jizzax v. jilg'a. Sharsharali suv oqadigan suv o'zani bo'lgan soylik.

SHARG'UN Sariosiyo t. shaharcha. So'g'dcha *shirg'an/shirxan* – tog' daryosi yonidagi aholi maskani.

SHAYXLAR Ishtixon t. qishloq. *Shiq* q. urug'i jamoasining qishlog'i: shiqlar.

SHAG'AL Nukus t. ovul. Turkmanlarning taka, ersari qabilasiga mansub *shag'al* urug'i jamoasi bunyod etgan ovul. *Shag'al* – shaqal (chiyabo'ri), totem.

SHERJON Sherobod t. qishloq. Eroniy tillarda *sher/shir/jer/jir* (balandlik; tosh; qoya, cho'qqi) *jan/jon* (anhor, buloq) – tog' daryosi, yuqoridagi oqar suv bo'yidagi qishloq.

SHERKENT Sariosiyo t. qishloq. Eroniy tillarda *sher/shir/jer/jir* – tog', cho'qqi; tog' ichidagi qishloq.

SHEROBOD Surxondaryo v. tuman, Yangiariq t. qishloq. Eroniy tillarda *shir/sher* (tosh) *rovut/ravitt/ravad* (o'tloq, yaylov) yoki *rabot* (qo'rg'on) – tog' bag'ridagi yaylov yoki tosh qo'rg'on. Shoh rabot – katta karvonsaroy, qo'rg'on.

SHERTOG' Samarqand, Qashqadaryo v. tog'. Qadimgi eroniy tilda *jir/jer/shir/sher* – tosh, tog'. Ulkan tog'.

SHIRBUDUN Buxoro t. qishloq. Qadimgi turkiy *sir/shir/chir* xalqining (budun) qishlog'i.

SHIRKENT Kasbi t. qishloq. Eroniy *shir/sher* (tosh; balandlik) *kent* (qo'rg'on) – tepadagi qo'rg'on, balandlik atrofidagi qishloq.

SHIRMONBULOQ Xo'jaobod t. qishloq. Qadimgi turkiy *shirmon/chirmon* (yaylov, o'tloq) *buloq* o'tloq joydagi buloq yonida bunyod etilgan qishloq.

SHOFIRKON Buxoro v. tuman. Eroniy tillarda *shox* (bosh; katta). *pur* (to'liq, to'la) *kon* (kanal, anhor) – ko'p suv oqadigan bosh anhor.

SHOVA Bekobod t. qishloq. Tik balandlikdan pastga oqib tushadigan suv (shova < shovva).

SHOVKAN Shahrisabz t. qishloq. Qadimgi eroniy tilda **shovkan** – qo'rg'on, qal'a.

SHOVOT Xorazm v. tuman. **Shoh obod** [f-t] – shohning, shoh laqabli kishining qishlog'i.

SHOVOTARNA Shovot t. anhor. Shovot tumanining yerlarini sug'orishga mo'ljallab qazilgan katta anhor.

SHOVQOR Jizzax v. tog', cho'qqi, qishloq. So'g'dcha **shov** (qora, past, kichik) g'az/qar/qor tog'. Aynan Qoratog'.

SHOVG'AZ Toshkent v. dara. Qadimgi eroniy tilda **shov** (qora, balandlik ko'lami past) g'az/xas/qas (buloq, anhor, jilg'a) – kichik tog'dan boshlanuvchi jilg'a.

SHUKURCHI Shofirkon t. qishloq. **Shukurchi** – amir boshiga soyabon tutib yurish bilan mashg'ul shaxs. Buxoro amirligidagi mansab nomi qishloq nomiga o'tgan.

SHO'RARIQ Norin t. qishloq. Sho'r suvli ariq bo'yidagi qishloq.

SHO'RKO'L Konimex t. qishloq, Amudaryo quyisida ko'l. Sho'r suvli ko'l.

SHO'RKENT Chust. t. qishloq. Aynan Shirkent q.

SHO'ROB Boysun t. daryo, qishloq. Achchiq toshli, talx suvli jilg'a va jilg'a bo'yidagi qishloq.

SHO'RQUDUQ Chiroqchi t. qishloq. Suvli sho'rliги sababli ichishga yaroqsiz quduq(li qishloq).

SHO'RSUV Farg'ona v. jilg'a. Taxir, ichishga yaroqsiz suvli irmoq.

SHO'RTAN G'uzor t. kent. Sho'r tuproqli joydagi aholi maskani.

SHO'RO'ZAK Sayxunobod t. qishloq, Buxoro v. o'zan. Sho'r suvli jilg'a bo'yidagi qishloq.

SHO'RCHI Surxondaryo v. tuman. **Sho'r ji** [f-t] sho'r suvli hovuz (buloq, ko'l); **sho'r choh** – sho'r suvli quduq (buloq).

Ch

CHEKGUZAR Uychi t. qishloq. Qo'qon xonlari tomonidan ajratib berilgan chek yerdagi daryoning o'tish joyida bunyod bo'lgan qishloq.

CHEKSAROY Bag'dod t. qishloq. Qo'qon xonlari tomonidan xususiy mulk sifatida ajratib berilgan yer – **chek**. **Saroy** – o'zbek xalqi tarkibidagi qabila, qo'rg'on, tevaragi devor bilan o'ralgan

rabot. Chek sifatida berilgan qo'rg'on, saroy qabilasi avlod-ajdodlarining chek yeri.

CHELAK Poyariq t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan chelak/chelek urug'i jamoasining qishlog'i.

CHEM Qamashi t. qishloq. Eroniy tim – karvonsaroy; usti yopiq bozor; saroy, qo'rg'on.

CHEPTOSHSOY Bo'stonliq t. jilg'a. Tog'liklar nutqida chep–chetan, to'siq g'ov sifatida o'r'nashgan toshli soy.

CHETKO'PIR Urganch t. qishloq. Chet joydagi, katta qishloqdan chekkaroqdagi ko'prik yonida bunyod bo'lgan aholi maskani.

CHECHAK Kitob t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan chechak urug'i jamoasining qishlog'i.

CHILJUVUT Chiroqchi, Kitob, Karmana t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi chiljuvut qabilasi jamoasining qishlog'i. Qadimiy turkiy chil/chal/chol (oqish, bo'zrang, ola-bula) juvut (rang, bo'yoq, tus) oq rangli kiyim (bosh kiyim) kiygan kishilar jamoasi – chiljuvut.

CHILONZOR qishloq, daha. Chilon (katta, mag'izli jiyda) – zor [f-t] (o'rin-joy qo'sh.) – jiyda daraxti ko'p o'sgan joydagi qishloq, daha.

CHILTANOB Buxoro t. qishloq. Chil<chihil (qirq, ko'p) tanob [f-t] (chorak gektar) – qirq tanob – 10 gektarlik yaxlit maydonda bunyod bo'lgan qishloq.

CHIMBOY Kitob t. qishloq, Qoraqalpog'istonda tuman. O'zbek xalqining chimboy qabila-urug'i vakillarining qishlog'i.

CHIMBOYLIQ Chirchiq d. bo'yidagi qishloq. Chimboy q. qishlog'idan ko'chib kelganlarning qishlog'i.

CHIMQORTOG' Jizzax v. tog'. Eroniy tillardagi chim/chem (qo'rg'on, o'ralgan joy) g'arlg'or/qar/qor (tog') - o'ralgan tog', qo'rg'onga o'xshash tog', qo'rg'on tog'.

CHIMQO'RG'ON Chiroqchi, Kasbi t. qishloq. Eroniy tim (qo'rg'on) va o'zbekcha qo'rg'on – katta qo'rg'on.

CHIMYON Farg'ona t. qishloq. Toshkent v. tog'. Qadimgi turkiy tilda chimgan – chimzor, chimga aylangan yerda bunyod bo'lgan qishloq. Qadimgi eroniy tilda chim/chem (qo'rg'on) gan/yon (suv, daryo) – qo'rg'on singari o'ralib turgan tog' daryosi.

CHINOBOD Toshkent, Angor t. qishloq. Eroniy tim rabat birikmasining o'zgargani – baland va katta rabot.

CHINOZ Toshkent v. shahar, tuman. O'zbek xalqi tarkibidagi chinoz/chinas urug'i jamoasining qishlog'i. Qadimgi turkiy, mo'g'ul tilida chin (bo'ri), -as/ -az (jamlik qo'sh.) – bo'rilar, bo'ri – totem.

CHIRKAY Kitob t. qishloq. Kichik daryo, tez oqar suv bo'yidagi qishloq.

CHIROQCHI tuman. Qadimgi turkiy *strak/siroq/slyroq* -chi qabila-urug'i jamoasining yashash maskani.

CHIRCHIQ daryo, shahar. Chir xalqi (qabilasi)ning kichik daryosi (-*chliq* qo'sh. kichiklikni bildiradi).

CHITGARON Vobkent t. qishloq. *Chit* -gar -on [f-t] chitga gul bosuvchilar, chit gazlamasini to'quvchilar qishlog'i.

CHIQRICHI Qo'shko'pir t. ovul. Charx (sbevada *chiqir*) yasovchi hunarmandlar ovuli.

CHIG'ATOY Sherobod, Boysun t. qishloq. Turkiy *chig'atay* qabilasi jamoasining qishlog'i.

CHORRAHA Buxoro t. qishloq. *Chor*<*chahor roh* -a [f-t] to'rt, yo'lning tutashgan joyidagi qishloq.

CHORSU Samarqand, Buxoro, Toshkent sh. mavze. *Chahor* (to'rt) su [f-t] (burchak, tomon) – to'rt yo'l (ko'cha) ning birlashgan yoki to'rt yo'lga bo'linadigan joyi, chorraha.

CHORTOQ Namangan v. shahar. *Chor*<*chahor* (to'rt) toq [f-t] (ark, gumbaz) – to'rt gumbazli, to'rt tomonida ravog'i bo'lgan bino.

CHORVOQ suvombori. q. Chorbog'.

CHOSHTEPA qishloq. Chosh u'yib ko'tarilgan tepa, uyilgan tuproq to'dasi. Tekis joylarda tuproq u'yib qo'ldan qilingan tepa yonidagi qishloq.

CHOVLISOY Ohangaron t. jilg'a. *Chovli* urug'i jamoasining yeridan oqadigan suv.

CHOVQAY Qarshi, Kasbi t. qishloq. Mang'itlarning *chovqay/cho'qay* urug'i jamoasiga mansub qishloq. Urug' tamg'asi *chov/chovli* shaklida bo'lgan.

CHUQURAK Shofirkon t. qishloq. Chuqur joydagi qishloq (*chuqur* -ak – chuqur joy).

CHUQURQOQ To'rtko'l t. ovul. Quyi tomon yo'nalishi chuqur bo'lgan qoq (suv to'planadigan chuqurlik) yonidagi ovul.

CHUVALACHI Bag'dod, Toshkent t. qishloq. Qurama o'zbeklar tarkibidagi *chualachi* urug' tarmog'i jamoasining qishlog'i.

CHUVULLOQ Zomin, G'allaorol, Chiroqchi, Qamashi t. qishloq. Qo'ng'iroq, nayman, saroy, qipchoq kabi qabilalarning urug'i – *chuvulloq* (qush turi), totem asosida urug', urug' asosida qishloq nomlangan.

CHUYUT Shahrisabz t. qishloq. O'zbek xalqi tarkibidagi *chuyut* qabilasi jamoasining qishlog'i.

CHO'MBAG'ICH Yangiqo'rg'on t. qishloq. Turkiy bag'ish qabilasining urug'i – *chombag'ish/choh-bag'ish*larining qishlog'i.

CHO'MBOG'ICH Shahrixon t. qishloq. q. Cho'mbag'ish.

CHO'MICHLI G'uzor, Qamashi t. qishloq. Tamg'asi **cho'mich** shaklida bo'lgan urug' (**cho'michli**) jamoasining qishlog'i. Xitoy, nayman, qirq, saroy, qo'ng'irotlar tarkibida **cho'michli** urug'i bo'lgan.

CHO'QMORTOSH Zomin t. qoya. **To'qmor** singari baland, ulkan toshli cho'qqi.

CHO'QMOZOR Dehqonobod t. qishloq. O'zbekcha **cho'q/cho'ng** (balandlik, yuksaklik), **mozor** [f-t] (qabr, qabriston) baland joydagi qabriston atrofidagi qishloq.

CHO'YINCHI Sherobod t. qishloq. Cho'yandan xo'jalik asboblari quyib tayyorlovchi usta (**cho'yanchi**)larning qishlog'i.

MUNDARIJA

A L I F B O	3
TOPONIMLAR – XALQ IJODI, TIL MULKI, TARIX KO‘ZGUSI	4
LUG‘ATNING TUZILISHI	7
A	10
B	12
D	19
E	22
F	22
G	23
H	24
I	24
J	25
K	27
L	32
M	33
N	36
O	39
P	44
Q	46
R	55
S	56
T	60
U	65
V	67
X	68
Y	70
Z	72
O‘	74
G‘	75
SH	76
CH	78

BU KITOBLARNI O'QISHNI TAVSIYA ETAMIZ

Tursunali JUMAYEV

**O'ZBEK TILINING O'QUV
ETIMOLOGIK LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Otabek SHUKUROV
Barchinoy BOYMATOVA

**O'ZBEK TILINING MA'NODOSH SO'ZLAR
O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Yorqinoy HAMRAYEVA

**O'ZBEK TILINING O'ZLASHMA SO'ZLAR
O'QUV IZOHLI LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Umida TO'RAYEVA
Dildor SHODMONOVA

**O'ZBEK TILINING
ZID MA'NOLI
SO'ZLAR O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun

Baxtiyor MENGLIYEV
Bashorat BAHRIDDINOVA

**O'ZBEK TILINING SO'Z
TARKIBI O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Nilufar YO'LDOSHEVA
Nargiza MUSULMONOVA

**O'ZBEK TILINING SO'ZLAR
BIRIKUVCHANLIGI O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Xosiyat SUVONOVA
Gulnoza TURDIYEVA

**O'ZBEK TILINING
SHAKLDOSH SO'ZLAR
O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Baxtiyor MENGLIYEV
Oynisa BOYMATOVA
Mahbuba XUDOYBERDIYEVA

**O'ZBEK TILI IBORALARINING O'QUV
IZOHLI LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun

Sharif BOBOJONOV

Ikrom ISLOMOV

**O'ZBEK TILINING SO'ZLAR
DARAJALANISHI
O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



**Baxtiyor MENGLIYEV
Bashorat BAHRIDDINOVA**

O'rol XOLIYOROV

**O'ZBEK TILINING SO'Z
YASALISHI O'QUV LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun



Xurshida NORXO'JAYEVA

**O'ZBEK TILINING ESKIRGAN SO'ZLAR
O'QUV IZOHLI LUG'ATI**

Maktab o'quvchilari uchun

O'quv-uslubiy nashr

To'ra NAFASOV
Vazira NAFASOVA

**O'ZBEK TILI TOPONIMLARINING
O'QUV IZOHLI LUG'ATI**

*(maktab o'quvchilari, kollej va
litsey talabalari uchun)*

Muharrir
A. XUDOYBERDIYEV

Musahhah
M. QUTLIYEVA

Tex. muharrir
V. DEMCHENKO

Kompyuterda sahifalovchi
A. MATOCHENKO

Original maket «El-Press» MChJda tayyorlandi

**Bosishga 28.05.2007- y.da ruhsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.
Bosma tobog'i 2,75. Shartli bosma tobog'i 4,62.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 22.
Bahosi kelishilgan narxda.**

**Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.
«El - Press» MChJda chop etildi.
700113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru**

Izohlar uchun
